O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA’LIMI MARKAZI

X. MUHIDDINOVA, R. MAJIDOVA, S. SHOKIROVA

# O‘ZBEK TILI

*Iqtisodiy yo‘nalishdagi kasb-hunar kollejlari rus guruhlari uchun o‘quv qo‘llanma*

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2013

UO‘K: 811.512.133 (076)
KBK 81.2O‘zb
M 92

*Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi ilmiy-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

O‘quv qo‘llanma iqtisodiy yo‘nalishdagi kasb-hunar kollejlarining iqtisod, bank ishi, moliya, hisob-kredit, soliq, buxgalteriya tizimi mutaxassisliklari bo‘yicha ta’lim beruvchi rus guruhlari uchun tavsiya etiladi.

*Taqrizchilar:* **N. MAHMUDOV** — O‘zRFA Til va adabiyot instituti direktori, filologiya fanlari doktori, professor;
**K. SHAYXOVA** — Toshkent bank hisob-kredit kolleji o‘qituvchisi;
**SH. NABIYEVA** — Toshkent 1-pedagogika kolleji o‘qituvchisi.

ISBN 978-9943-16-138-2
© «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2013-yil.



*Abdulla Oripov so'zi* *Mutal Burhonov musiqasi*

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad, ilm-u fan ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Naqarot:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi, senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo'l obod!

Naqarot:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi, senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor.

# *I bob.* O‘ZBEKISTON – MUSTAQIL O‘LKA
## *(ATOQLI OTLAR IMLOSI VA TANISHISH IBORALARINI QO‘LLASH)*

## *1-DARS:* MENING VATANIM – O‘ZBEKISTON



***1-mashq.*** Matnni ifodali o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

### O‘ZBEKISTON

Mening Vatanim — O‘zbekiston. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoda, Amudaryo bilan Sirdaryo oralig‘ida joylashgan. Amudaryo va Sirdaryo bu mintaqada qishloq xo‘jaligi uchun qulay shart-sharoit yaratgan. O‘zbekiston — serquyosh o‘lka. Bu yerda yilning 250—300 kunida havo ochiq va quyoshli bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda parlament yo‘li bilan o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritdi. Mustaqillik davrigacha O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mamlakati hisoblanar va asosan paxta yetishtiradigan respublikaga aylantirilgan edi. Hozirgi kunda respublikaning serhosil yerlarida paxta bilan bir qatorda sholi, bug‘doy, shirin-shakar mevalar, sabzavot va poliz ekinlari mahsulotlari ko‘plab yetishtirilmoqda. Qisqa muddat ichida respublika g‘alla mustaqilligini ham qo‘lga kiritdi va endilikda O‘zbekiston o‘z aholisini o‘z g‘allasi bilan to‘liq ta’minlamoqda.

Mustaqillikdan so'ng respublikamizda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, og'ir va yengil sanoatni rivojlantirishga kirishildi. Xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda bir nechta to'qimachilik kombinatlari, mashinasozlik zavodlari ishga tushirildi. Hozirgi kunda O'zbekiston nafaqat paxta, qorako'l kabi xomashyolari, tabiiy gaz, oltin, rangli metallari, balki ip va ipak mahsulotlari, mashinalari bilan ham jahon bozorlarida qatnashmoqda. O'zbekiston o'z qo'shnilari bo'lgan barcha MDH davlatlari, yaqin Sharq davlatlari va rivojlangan G'arb mamlakatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarni keng yo'lga qo'ymoqda.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. O'zbekiston qayerda joylashgan?
2. O'zbekiston Respublikasi qachon mustaqillikni qo'lga kiritdi?
3. O'zbekiston hududida qanday tog'lar, daryolar bor?
4. O'zbekiston qaysi davlatlar bilan chegaradosh?
5. O'zbekiston mustaqillikkacha qanday mamlakat edi?
6. Hozirgi kunda O'zbekistonda qanday mahsulotlar yetishtirilmoqda?
7. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy ahvoli haqida yana nimalarni bilasiz?
8. Qomusiy lug'atlar, tarixiy kitoblar, Internet materiallaridan O'zbekiston haqida qo'shimcha ma'lumotlar to'plang va ular haqida so'zlab bering.

*1-topshiriq.* Xaritadan foydalanib, O'zbekistonning yirik shaharlari nomlarini daftaringizga ko'chirib yozing va ularni to'g'ri o'qing.



*2-topshiriq*. Xaritada quyida berilgan shaharlarni ko‘rsating. Internet va adabiyotlardan ushbu shaharlar haqida ma’lumotlar to‘plang va so‘zlab bering.

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon, Termiz, Farg‘ona, Xiva, Nukus, Namangan, Qarshi, Navoiy, Guliston, Qo‘qon, Zarafshon, Chirchiq, To‘rtko‘l, Marg‘ilon, Urganch, G‘ijduvon.

***2-mashq***. Xaritadan va 1-mashqda berilgan matndan foydalanib, O‘zbekistonning daryolari, tog‘lari, ko‘l va cho‘llari haqida ma’lumot bering.

***Yodda tuting!*** O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni 1989-yil 25-avgustda qabul qilingan va 1995-yil 25-dekabrda qayta tahrir qilingan. Qonun 24 ta moddadan iborat. Qonunga rioya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir.

***3-mashq.*** Matnni ifodali o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## O‘ZBEK XALQI VA O‘ZBEK TILI

1989-yilning 12-yanvarida o‘tkazilgan aholi ro‘yxati ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 14 million 142 ming 500 o‘zbek istiqomat qilgan. 1994-yilga kelib O‘zbekistonda aholining soni 23 millionga yetdi. Hozirgi kunda esa O‘zbekiston aholisi 28 milliondan ortiqdir. O‘zbeklar Qoraqalpog‘iston Respublikasida, shuningdek, Tojikiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmanistonda ham istiqomat qiladilar. Xorijiy mamlakatlardan: Afg‘oniston, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Eron, Xitoyning Shin-Jon uyg‘ur viloyatida va boshqa davlatlarda ham o‘zbeklar yashaydilar.

O‘zbek tili XI asrdan adabiy til sifatida shakllana boshlagan. U davrda o‘zbek tili turkiy til nomi bilan yuritilgan. Hozir turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar, shu jumladan, o‘zbeklarning avlod-ajdodlari ham XI asrgacha qadimiy turkiy tilda gaplashganlar. XIV asrda umumxalq o‘zbek adabiy tili vujudga keldi. O‘zbek adabiy tilining shakllanishida buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning xizmati nihoyatda katta. Hozirgi kunda o‘zbek tili mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili hisoblanadi.

**Topshiriqlarni bajaring:**

1. Matndagi atoqli otlarning talaffuziga e'tibor bering va yozilishini izohlang.
2. Matndan foydalanib, o'zbeklar qaysi mamlakatlarda yashashi, ularning soni qanchaligi haqida ma'lumotnoma tuzing.
3. O'zbek tilining rivojlanish davri bosqichlarini tartib bilan yozib chiqing.

### O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni moddalarini yodda tuting!

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

**2-modda.** O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat Konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

**3-modda.** O'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi. Tilning Qoraqalpog'iston Respublikasida amal qilishiga bog'liq masalalar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog'liq udumlarni ado etishda qo'llanishini tartibga solmaydi. Fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egadirlar.

***4-mashq.*** Berilgan matnni o'zbek tilining spetsifik nutq tovushlariga e'tibor bergan holda ifodali o'qing va savollarga javob bering.

### «ASSALOMU ALAYKUM» SO'ZINING MA'NOSI

«Assalomu alaykum!»ning ma'nosi nima ekanligini bilasizmi?

«Assalomu alaykum!» aslida arabcha ibora bo'lib, «Sizga tinchlik va salomatlik tilayman» degan ma'noni bildiradi.

«Assalomu alaykum!» — yurti, millatidan qat'i nazar dunyodagi barcha musulmonlarning salomlashuv iborasi hisoblanadi. Siz qaysi musulmon mamlakatiga bormang, u millat tilini bilmasangiz ham, «Assalomu alaykum» desangiz, sizga ochiq yuz bilan «Va alaykum assalom!» deb javob berishadi. Bu ularning «Sizga ham tinchlik, salomatlik tilayman!» deganidir. Demak, «Assalomu alaykum!» o'zaro muomala-munosabatning boshi hamdir. Uni nechog'lik samimiy va muloyim aytsangiz, munosabatga ham shunchalik iliqlik, samimiyat, ochiq ko'ngillik baxsh etadi.

«Assalomu alaykum!»ning yana bir sirli kuchi bor. U kishilar o‘rtasida muhabbat paydo qilib, o‘rtadagi gina va kuduratlarni ketkazadi. Bu so‘z bir-biri bilan arazlashib qolgan insonlarni yarashtirish vositasi hamdir. Salom-alik vositasida o‘zidan kattalarga hurmat, kichiklarga mehr bildirish qadim-qadimdan kishilarimiz uchun axloqiy mezon bo‘lib kelgan.

Bizning odatlarimizga ko‘ra, yoshi kichiklar yoshi ulug‘larga, mashina mingan odam piyoda ketayotganda, piyoda ketayotgan kishi o‘tirganga, ozchilik ko‘pchilikka salom beradi. Siz kattalarga hurmat bilan «Assalomu alaykum!» desangiz, ular sizga mehr bilan «Va alaykum assalom!» deb javob berishadi va yana «Barakallo! Katta yigit bo‘ling!» deb qo‘yishadi. Chunki odatimiz shunaqa. Xalqimiz nihoyatda oqko‘ngil. Biz hamisha hammaga yaxshi niyat bildiramiz.

*3-topshiriq.* Matnlar va qo‘shimcha ma’lumotlardan foydalanib, «Mening Vatanim — O‘zbekiston» mavzusida insho yozing.

*4-topshiriq.* O‘zbek tilida salomlashish va xayrlashishga oid muomala odobini bilib oling va nutqiy qurilmalarni qo‘llab, turli vaziyatlarga mos rolli o‘yinlar tashkil eting.

| | |
|---|---|
| I. — Assalomu alaykum, Sulton aka! | — Здравствуйте, Султон ака! |
| — Vaalaykum assalom, Ulug‘bek! | — Здравствуй, Улугбек! |
| — Yaxshi yuribsanmi? | — Как ты (поживаешь)? |
| — Rahmat, yaxshiman. O‘zingiz yaxshimisiz? | — Спасибо, хорошо. А вы как? |
| — Men ham yaxshiman, rahmat. | — У меня тоже хорошо, спасибо. |
| — Bo‘pti, sog‘ bo‘l. | — Ладно, будь здоров. |
| — Ko‘rishguncha, xayr. | — Пока. До встречи. |
| II. — Salom, Bobur! | — Привет, Бобур! |
| — Salom, Ulug‘bek! Qalaysan? | — Привет, Улугбек! Как ты? |
| — Yomon emas, rahmat. Sen o‘zing yaxshimisan? | — Не плохо, спасибо. А ты как? |
| — Men ham yaxshiman, rahmat. | — У меня тоже хорошо, спасибо. |
| III. — Xayrli tong, Nodiraxon! | — Доброе утро, Нодирахон! |
| — Xayrli tong, Gulnoraxon! | — Доброе утро, Гульнорахон! |
| — Yaxshi yotib turdingmi? | — Как выспалось? |
| — Yomon emas. O‘zing qalaysan? | — Неплохо. А ты как? |
| — Kuning xayrli o‘tsin. | — Доброго дня тебе. |
| IV. — Xayrli kun, Azizbek! | — Добрый день, Азизбек! |
| — Ishlaring yaxshimi? | — Как твои дела? |
| — Rahmat, yaxshi. O‘zing qalaysan? | — Спасибо, хорошо. А как ты? |
| — Xayr, ko‘rishguncha. | — Пока, до свидания. |

## *2-DARS:* ONA YURTING — OLTIN BESHIGING

***5-mashq.*** Berilgan matnni geografik atamalarning talaffuzi va imlosiga e'tibor berib o'qing. So'ngra topshiriqlarni bajaring.

O'zbekiston Respublikasi tarkibiga 12 ma'muriy viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi, 157 qishloq tumani, 123 shahar va 104 shahar tipidagi qishloqlar kiradi. Davlatimizning poytaxti — Toshkent shahri. O'zbekistonda 130 dan ziyod millat vakillari yashaydi. O'zbekistonning Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Andijon, Namangan, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Jizzax, Navoiy va Namangan viloyatlari bo'lib, ular shevalari bilan ham bir-biridan farq qiladi.

**Topshiriqlar:**

1. Matndagi atoqli otlarni daftaringizga alifbo tartibida yozib chiqing, imlosi va talaffuziga e'tibor bering.
2. Matnda berilgan joy nomlaridan biri haqida bilganlaringizni kengaytirib gapirib bering.
3. Matndagi raqamlarni harflar bilan yozib chiqing, o'lchov birliklarini izohlang.
4. O'zbekiston xaritasidan o'zingiz yashaydigan viloyatning joylashish o'rnini ko'rsating va relyefi haqida gapirib bering.
7. O'z viloyatingiz haqida Internet uchun ma'lumotnoma tayyorlab kiriting. Unda yangi ma'lumotlarni berishga harakat qiling.

***Yodda tuting!*** Barcha tillarda tilning adabiy til va sheva shakllari mavjud bo'ladi. O'zbek tili shevalarga boy til bo'lib, O'zbekistondagi har bir viloyat, shahar va qishloqlar ham shevalarga ko'ra, bir-biridan farqlanishi mumkin. Ayrim so'zlar qarindosh-urug'lar nomlari turli hududlarda har xil aytiladi. Og'zaki nutqda shevaga xos so'zlar ko'p ishlatiladi, biroq yozma nutqda ular adabiy tilda yoziladi.

***6-mashq.*** Quyidagi jadvalga respublikamizning har bir viloyati, ularning markazlari va o'zingiz tug'ilgan joy nomlarini yozib chiqing.

| Viloyat nomi | Viloyat markazi nomi | Men tug'ilgan joy nomi |
|---|---|---|
| | | |
| | | |
| | | |

*7-mashq.* Eshitish mashqi. So'zlashuv nutqidan olingan ushbu suhbat matnini tinglang. Noto'g'ri talaffuz qilinayotgan so'zlarni aniqlab, to'g'ri shakli qanday bo'lishini yozib ko'rsating.

## HAYDOVCHI BILAN SUHBAT

— Assalomalaykom, meni Karasuga olib borolmaysizmi?
— Biz Qoraqamish tomonga ketayotgan edik.
— Yo'q. Karakamsh uzoq, biz Chorsudan ketsak yaqin bo'ladi.

* * *

— Salom alaykum, kechras, bizni Chilonzorga olib borasizmi?
— Mayli, faqat Oqtepa orqali yuramiz.
— Ha, Aktepedan ketsak ham bo'ladi.

***Yodda tuting!*** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy birliklar, aholi turar joylari, tashkilotlar va boshqa toponimik obyektlarning nomlarini tartibga solish to'g'risida»gi qarori 1996-yil 31-mayda e'lon qilingan bo'lib, u 7 moddadan iborat. Respublikamizning har bir fuqarosi davlat tilidagi joy nomlarining to'g'ri aytilishi va yozilishiga rioya qilishi shart!

**Bilib oling!**

O'zbek tilida o'rin-joy ma'nosini ifodalovchi otlar quyidagi so'z yasovchi qo'shimchalar bilan yasaladi:
**-zor** qo'shimchasi: olmazor, shaftolizor, Bodomzor kabi.
**-iston** qo'shimchasi: O'zbekiston, Qozog'iston, Armaniston kabi.
**-kent** qo'shimchasi: Toshkent, Parkent, Chimkent kabi.
**-loq** (-liq) qo'shimchasi: o'tloq, qumloq, Bo'stonliq, Olmaliq kabi.
**-don** qo'shimchasi: suvdon, qalamdon, guldon kabi.

Shuningdek, **xona, obod, tepa, ovul** so'zlari ham ot va sifatlarga qo'shilib, joy nomlarini yasaydi: *Yusufxona, Chinobod, Oqtepa, O'rtaovul* kabi.

**Sodda va qo‘shma joy nomlarining yasalishi va yozilishini bilib oling!**

| Bular sodda yasama otlar | Bular qo‘shma otlar |
|---|---|
| paxta**zor** | Qashqadaryo |
| gul**don** | Mirzacho‘l |
| o‘t**loq** | Markaziy Osiyo |
| Tosh**kent** | Yakkasaroy |
| Olma**liq** | Qorasuv |
| Gul**iston** | Yunusobod |

*Bular sodda yasama otlar* *Bular qo‘shma otlar*

***8-mashq.*** Berilgan turdosh otlarga so‘z yasovchi qo‘shimchalar va so‘zlar qo‘shib, shahar, qishloq va mamlakatlar nomlarini yasang. So‘ngra ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Namuna: Bodom+zor, Gul+iston, Chim+kent, Uch+tepa, Xon+obod.*

Men Bodomzorda yashayman.

Lola, chaman, tok, g‘azal, olma, Yunus, qo‘rg‘on, bodom, meva, Yusuf, ish.

*6-topshiriq.* Ijodiy ish. Shahringiz, tuman, qishloq yoki mahallangizda qayta tiklangan joy nomlarining avvalgi nomlari va hozirgi nomlarini yozib chiqing va ularning tarixi haqida bilganlaringizni so‘zlab bering.

**Bilib oling!**

Shaxsning qayerdanligini bilish uchun joy nomlariga **-lik** qo‘shimchasi yoki **-da** (o‘rin-payt kelishigi), **-dan** (chiqish kelishigi) qo‘shimchalari qo‘shiladi. Bunday so‘zlar *qayerlik? qayerda? qayerdan?* so‘roqlariga javob beradi. Masalan: *Aziz andijonlik. Aziz Andijonda yashaydi. Aziz Andijondan.*

Joy nomlari **-lik** qo‘shimchasi bilan qo‘llanganda kichik harflar bilan yoziladi.

***9-mashq.*** Birinchi ustundagi shaxs otlari va ikkinchi ustundagi joy nomlarini bir-biri bilan bog‘lab, «Kim qayerdan?» yoki «Kim qayerlik?» konstruksiyalarida gaplar tuzing.

| | |
|---|---|
| Abu Rayhon Beruniy | Xorazm |
| Amir Temur | Shahrisabz |
| Mirzo Ulug‘bek | Samarqand |
| Alisher Navoiy | Hirot |
| Bobur | Andijon |
| Muqimiy | Marg‘ilon |
| Nodira | Qo‘qon |

**!** **Topshiriq:**

1. Siz bu shaxslar haqida nimalarni bilasiz? So‘zlab bering.
2. Yuqorida tilga olingan shaharlar necha yoshga kirganini bilasizmi?

*7-topshiriq.* Suhbat matnini o‘qing va davom ettiring.

## ABITURIYENTLAR SUHBATI

— Kechirasiz, siz shu yerlikmisiz?

— Ha, men toshkentlikman.

— Men Navoiy shahridanman. Menga iqtisodiyot kollejiga qanday borishni aytib bera olmaysizmi?

— Iqtisodiyot kollejiga borish uchun keyingi bekatda tushasiz.

— Siz ham o‘sha kollejda o‘qiysizmi?

— Yo‘q, men Toshkent bank hisob-kredit kollejida o‘qiyman.

— Bank sohasi bo‘yicha mutaxassis bo‘lmoqchi ekansiz-da. Kollejingizda iqtisod ham o‘qitiladimi?

— Albatta. Iqtisod va hisob-kitob uzviy bog‘liq.

— Toshkentda banklar ko‘p, shuning uchun shu soha mutaxassislariga ham ehtiyoj katta.

— Ha, iqtisod va hisob-kitobni biluvchi kichik mutaxassislar hozir barcha korxonalarga kerak. Biroq men kichik mutaxassis bo‘lib qolmoqchi emasman. Kollejni tugatib, iqtisod yoki moliya institutiga o‘qishga kirmoqchiman.

— Yaxshi o‘ylabsiz. Men esa informatika fani va tillarni o‘rganishga qiziqaman. Maktabimizda ingliz tilini o‘rgatishadi. Hozir xitoy tilini ham mustaqil o‘rganyapman. Informatika fani to‘garagiga qatnashaman. O‘qituvchimiz bizga kompyuterda turli dasturlar tuzishni o‘rgatyaptilar. Kelajakda aloqachi-muhandis bo‘lmoqchiman.

— Omadingizni bersin.

*10-mashq.* Matnni o‘qing. Atoqli otlarning aytilishi, yozilishi, nutqda qo‘llanishiga e’tibor bering.

Bizning guruhimizda 28 o‘quvchi o‘qiydi. Ulardan 18 nafari o‘g‘il bola, 12 nafari qiz bolalar. Men Xurshid, Sergey va Jamshid bilan yaqin do‘stman. Xurshid Olimov Farg‘ona viloyatidan. U Marg‘ilon shahrida yashaydi. Sergey Shabanov esa chirchiqlik. Jamshid bilan men hamshaharmiz. Ikkalamiz ham Buxorodanmiz. Buxoro — buyuk allomalar yashagan tabarruk joy. Guruhimizda deyarli barcha viloyatlardan kelgan bolalar o‘qiydi. Komila va Otabek To‘ytepada, Jahongir, Nigoraxon va Sardorbek Surxondaryoda yashaydilar. Jumagul va Matnazar To‘rtko‘ldan kelishgan. Ushbu joyning nomlari yozib chiqilsa, respublikamizning geografik xaritasini tuzish mumkin. Biz hozir Toshkentda o‘qiyapmiz. Toshkent O‘zbekistonning poytaxtidir. Toshkent juda katta va chiroyli shahar. Uning ko‘chalari keng, binolari muhtasham. Biz poytaxtimiz bilan faxrlanamiz.

*7-topshiriq.* 10-mashqdagi matn asosida quyida berilgan topshiriqlarni bajaring.

1. Guruhingiz a’zolarining ism-shariflarini va yashash joylarini yozib chiqing.
2. Ushbu ro‘yxat yordamida «Kim qayerlik?» konstruksiyasida gaplar tuzing.
3. Ushbu shaharlar, qishloqlar qaysi viloyatda joylashganligi hamda ular haqida qisqa ma’lumot bering.
4. Siz yashaydigan viloyat, shaharda rivojlangan sohalar haqida ma’lumot bering. Ushbu so‘zlarni asos va qo‘shimchalarga ajratib, qanday yasalganini tushuntiring. Shu sohadagi kasblar va shaxslar nomlarini yozib chiqing.

## *3-DARS:* TOSHKENT — RESPUBLIKAMIZ POYTAXTI

*8-topshiriq.* Suhbat matnini o‘qing. Joy nomlarining aytilishi, yozilishi, nutqda qo‘llanishiga e’tibor bering.

### YO‘LOVCHILAR SUHBATI

— Siz «Kobul — O‘zbek» qo‘shma korxonasida ishlaysizmi?
— Ha.
— Iltimos, ushbu korxona haqida so‘zlab bersangiz.

— Xo‘p bo‘ladi. «Kobul — O‘zbek» qo‘shma korxonasi Toshkentning Shayxontohur tumanida joylashgan. Janubiy Koreya bilan O‘zbekiston hamkorligida «Kobul — O‘zbek» to‘qimachilik qo‘shma korxonasi ishga tushirildi. U yerda juda ko‘p miqdorda ip yigiriladi. Avvallari O‘zbekiston faqat paxtaning o‘zini xomashyo holida eksport qilar edi. Mazkur korxonada juda ko‘p O‘zbekiston fuqarolari ishlamoqdalar. Endilikda to‘qimachilik korxonalarida paxtadan ip, gazlamalar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilmoqda. Bizning mahsulotlarimiz ko‘plab xorijiy mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

— Shunday korxonalardan yana bormi?

— Aynan shunday korxona To‘ytepada bor. Bugungi kunda boshqa shaharlarimiz, hatto qishloqlarimizda ham ko‘plab qo‘shma korxonalar ochilmoqda.

— To‘g‘ri. Respublikamiz sanoati borgan sari rivojlanib bormoqda. Bizning respublikamiz kelajakda rivojlangan mamlakatga aylanadi.

***11-mashq.*** Namunadan foydalanib, geografik atamalar ishtirokida sinonimik birikmalar hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Namuna: Chorsudan — Chorsu tomondan — Chorsu orqali. Biz Yunusobodga Chorsu orqali ketamiz.*

***12-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## KO‘HNA TOSHKENT

Qadimgi manbalarda hozirgi Toshkent o‘rnida 2000 yil ilgari yirik obod shahar bo‘lganligi qayd qilingan. Arxeologik qazish natijasida Toshkent hududidan 2000 yil ilgari yasalgan sopol idishlar, bronza oyna va turli mamlakatlar tangalari topilgan. Biroq hozirgacha Toshkentning o‘sha davrdagi nomi aniqlanmagan. Toshkent V—VIII asrlarda Choch, Shosh, Shoshkent, Binkent deb atalib kelingan va ayni vaqtda shu nomdagi feodal davlatning poytaxti bo‘lgan. Buyuk ipak yo‘lida joylashgan Toshkent Yevropa mamlakatlarining Hindiston va Xitoy bilan olib borgan turli aloqalarida muhim o‘rin tutgan. Arxeologik qazilmalarda topilgan

ishlab chiqarish qurollari va ro'zg'or buyumlari bu yerda yuksak madaniyat bo'lganidan dalolat beradi. Hunarmandchilikning taraqqiyoti savdo-sotiq aloqalarining kengayishiga olib keldi.

XVIII asr o'rtalarida Toshkent to'rt daha: Sebzor, Ko'kcha, Beshyog'och, Shayxontohurga bo'lingan, ularning har birini mustaqil hokim boshqargan. Bu davr tarixda «Chorhokim» nomi bilan mashhur. Shaharni o'rab turgan devori va Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Sag'bon, Chig'atoy, Ko'kcha, Samarqand, Kamolon, Beshyog'och, Qo'qon, Qashqar, Qo'ymas nomli 12 darvozasi bo'lgan. Darvozalar tunda yopilgan va tonggacha shaharga hech kim kiritilmagan.

Hozirgi kunda Toshkent Markaziy Osiyodagi eng yirik ilm-madaniyat va sanoat markazidir. Toshkent «Sharq mash'ali», «Islom madaniyati markazi» nomlarini ham olgan. Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib Toshkentda metropoliten qurilgan.

**!** **Topshiriqlar:**

1. Matndagi belgi bildiruvchi so'zlarni aniqlang va o'zi bog'langan so'zlar bilan ko'chirib yozing.
2. Toshkent haqida quyidagi mavzularda 10 daqiqalik ma'ruza matni tayyorlang va gapirib bering:
   1. Toshkent – ilm-fan markazi.
   2. Toshkent – islom madaniyati markazi.
   3. Toshkent metropoliteni.
   4. Talabalar shaharchasi.
   5. Toshkentdagi banklar.
   6. Toshkent — bunyodkorlik shahri.
   7. Toshkent — xalqaro anjumanlar o'tadigan markaz.
   8. Toshkent — televideniye vatani.

*9-topshiriq.* Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing. Muomala odobiga oid so'zlar va joy nomlarining to'g'ri talaffuziga e'tibor bering.

## SAYYOH BILAN SUHBAT

*Sayyoh:* — Salom, og'ayni! Kechirasiz, biroz vaqtingizni olaman. Menga Chorsuga qanday borishni aytib bera olmaysizmi?

*Yo'lovchi:* — Salom. Siz toshkentlik emasmisiz?

*Sayyoh:* — Yo'q, men Moskva shahridanman. Toshkentga birinchi kelishim. Chorsu bu yerdan ancha uzoqmi? Keyin eski shaharni ham borib ko'rmoqchi edim.

*Yo‘lovchi:* — Shahrimizga xush kelibsiz! Chorsu aynan Toshkentning eski shahar qismida joylashgan.

*Sayyoh:* — Haqiqatan ham u yerlar «Eski shahar»mi?

*Yo‘lovchi:* — Yo‘q, borsangiz o‘zingiz ko‘rasiz. U yerda qadimgi madrasalar ham, tor ko‘chalar ham, pastqam uylar ham, yangi zamonaviy binolar ham bor. Shaharning bu qismida eski uysozlik bilan yangi zamonaviy arxitektura uyg‘unlashib ketgan.

Chorsuga borganingizda Ko‘kaldosh madrasasini, Hazrati Imom masjidini, xalq hunarmandchiligi rastalarini borib ko‘rishni maslahat beraman.

*Sayyoh:* — Sizga katta rahmat. Albatta, borib ko‘raman.

*Yo‘lovchi:* — Salomat bo‘ling.

***13-mashq.*** Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

## DONISHMAND O‘GITI

Bir yigit uzoq mamlakatlarga safar qilmoqchi bo‘libdi va ustozidan so‘rabdi:

— Begona yurtlarga borganimda ko‘proq nimalarga e’tibor beray, ustoz?

— Dunyoning qaysi bir mamlakatiga borsang, o‘sha yurtning uch jihatiga e’tibor bergin, – debdi ustozi. – Dastavval, mozorini, keyin bozorini, so‘ng xalqining muomala-munosabatini kuzat. Mozorni ziyorat qilganingda, o‘sha mamlakat odamlari o‘zlarining ajdodlari va qadriyatlarini qanchalik e’zozlashlarini bilib olasan. Bozorlarini aylansang, tirikchiliklari va turmush tarzlarini, kayfiyatlarini sezasan. Muomala-munosabatlarini kuzatsang, odamlarining xulq-odobi, bir-birlariga mehr-oqibatlari qanchalik ekanini o‘rganib olasan. Qadimdan qolgan naqlda ham, bozor – xalq turmushi mezoni ekanligi zikr etilgan: «Yurtning boyligini, elning kayfiyatini bilishni istasang, bozorni borib ko‘r» deb bejiz aytilmagan.

Haqiqatan ham, har bir mamlakatga, uning shaharlariga, bozorlarining to‘kin-sochinligiga, sarishta-tartibiga qarab baho

beriladi, chunki bozor xalqning farovonligi, tirikchilik darajasini ko‘rsatadi. Chetdan kelgan mehmonlar bozor aylanib, «Ha, bu xalq shunday yashar ekan» deb xulosa chiqaradi.

**Ushbu maqol va aforizmlarni yod oling!**

Dunyoda onangdan ulug‘roq inson,
Vataningdan buyukroq ne’mat topilmas.

* * *

Bulbul chamanni sevar, inson — Vatanni.

* * *

Vatan sajdagoh kabi muqaddas.

**Mehmondo‘stlik odobiga oid iboralarni eslab qoling!**

| | |
|---|---|
| — Shahrimizga xush kelibsiz! | — Добро пожаловать в наш город! |
| — Aziz mehmonimiz bo‘ling! | — Будьте дорогим гостем! |
| — Eshigimiz siz uchun doim ochiq! | — Наши двери открыты для вас всегда! |
| — Xonadonimiz sizga muntazir! | — Наш дом в ожидании Вас! |
| — Yo‘lingiz bexatar bo‘lsin! | — Счатливого пути! |
| — Oq yo‘l! | — Добрый путь! |
| — Sizga oq yo‘l tilaymiz! | — Желаем Вам доброго пути! |
| — Bizni unutmang! | — Не забудьте нас! |
| — Yana kelishingizni istab qolamiz! | — Желаем, чтобы еще раз приехали! |
| — Kelishingizni kutamiz! | — Ждем вашего приезда! |
| — Sog‘ borib, omon qayting! | — Счастливого пути и скорого возвращения! |
| — Keyingi safar ko‘rishguncha, xayr! | — До встречи в следующий раз! |

*10-topshiriq.* Xorijiy mehmonlarni kutib olish, salomlashish, ularni shahar bo‘ylab sayohat qildirish va xayrlashishda qo‘llanadigan muomala odobiga oid so‘zlardan foydalanib, rolli o‘yinlar tashkil qiling.

## *4-DARS:* O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

***14-mashq.*** Iqtisodiy-geografik ma’lumotnomani o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

### O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI







O‘zbekiston Osiyoning markaziy qismida, Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida joylashgan. Shimol va shimoli-g‘arbda Qozog‘iston, janubi-g‘arbda Turkmaniston, janubi-sharqda Qirg‘iziston, janubda Afg‘oniston bilan chegaradosh. Uning umumiy hududi 448,9 ming kv.km.

Respublika hududining sharqiy va janubi-sharqiy qismida Tyanshan, Himolay, Hisor, Boysun tog‘lari, Chimyon, Chotqol tog‘ tizmalari mavjud.

Poytaxti — Toshkent shahri. O‘zbekiston aholisi 28 million kishidan ortiq. O‘zbekiston — ko‘p millatli respublika. Uning asosiy aholisini o‘zbeklar tashkil qiladi. Shuningdek, respublikada qoraqalpoqlar, ruslar, tatarlar, qozoqlar, tojiklar, koreyslar, ukrainlar, qirg‘izlar, yahudiylar, turkmanlar, ozarbayjonlar, armanlar, uyg‘urlar, boshqirdlar va boshqa millat vakillari yashaydilar.

O‘zbekiston tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va 12 viloyat mavjud.

Ilgari O‘zbekiston Rossiya sanoat mintaqasining agrar xomashyo bazasi bo‘lib kelgan. Sanoat, ishlab chiqarish rivojlanmagan, yirik korxonalari yo‘q edi.

Rivojlangan energetika bazasi deyarli bo‘lmagan, ko‘p korxonalar mavsumiy xarakterga ega bo‘lib, ularda eng sodda asbob-uskunalar qo‘llanilar, asosan, qo‘l mehnatidan foydalanilar edi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda bir qancha yirik tarmoqlararo — paxtachilik, dehqonchilik, chorvachilik, shuningdek, qayta ishlovchi sanoatning turli tarmoqlarini o‘z ichiga olgan ishlab chiqarish komplekslari, rangli metallurgiya; yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati, mashinasozlik va metallsozlik, qurilish materiallari sanoati va qurilish industriyasi, iste’mol buyumlari va oziq-ovqat mahsulotlari sanoati kabilar rivojlandi.

O‘zbekistonda 3 ta yirik ko‘mir koni — Angren, Sharg‘un, Boysun konlari mavjud. O‘zbekistonda mis, qo‘rg‘oshin, rux, volfram, yonuvchi gaz va boshqa foydali qazilmalar zaxirasi yetakchi o‘rinda turadi. Tuz, alumin, pardozlash toshlari va qimmatbaho toshlar, ayrim nodir elementlar zaxirasi ham ko‘p.

O‘zbekistonda bozor iqtisodiga o‘tilishi respublikaning sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish va jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirishi uchun katta imkoniyat yaratdi.

O‘zbekistonning boy qazilma boyliklari, qulay ob-havo sharoiti juda ko‘p xorijiy mamlakatlarni o‘ziga jalb etmoqda. Mustaqillik yillarida respublikada ko‘plab qo‘shma korxonalar vujudga keldi va O‘zbekiston sanoati, iqtisodining keng tarmoqli rivojlanishiga olib keldi.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. O‘zbekiston Respublikasi qayerda joylashgan va qaysi davlatlar bilan chegaradosh?
2. O‘zbekistonda qanday foydali qazilmalar bor?
3. O‘zbekiston aholisi va viloyatlari haqida ma’lumot bering.
4. Avvalgi paytlarda O‘zbekistonda ishlab chiqarish qanday ahvolda edi?
5. Hozirgi kunda O‘zbekistonda sanoatning qaysi tarmoqlari rivojlanmoqda?
6. O‘zbekistonda mavjud yirik sanoat korxonalari, qo‘shma korxonalar haqida ma’lumot bering.
7. Internet ma’lumotlari va boshqa qo‘shimcha manbalardan (ensiklopediyalar, ommaviy axborot vositalari) foydalanib, O‘zbekiston haqida referat tayyorlang.

***Adabiy o'qish***

*Muhammad Yusuf*

## VATANIM

Men dunyoni nima qildim, o'zing yorug' jahonim,
O'zim xoqon, o'zim sulton, sen taxti Sulaymonim,
Yolg'izim, yagonam deymi, topingan koshonam deymi,
O'zing mening ulug'lardan ulug'imsan, VATANIM...

Shodon kunim gul otgan sen, chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen, yuzing bosib yuzimga,
Singlim deymi, onam deymi, hamdard-u hamxonam deymi,
Oftobdan ham o'zing mehri ilig'imsan, VATANIM...

Sen Xo'jandsan, Chingizlarga darvozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan Sirdaryoga sakragan.
Muqannasan, qorachig'i olovlarga sachragan,
Shiroqlarni ko'rgan cho'pon-cho'lig'imsan, VATANIM...

Kim Qashqarni qildi makon, kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin Qurdistonda, Boburing Hindistonda,
Bu qanday yuz qarolik deb, yotarlar zimistonda,
Tarqab ketgan to'qson olti urug'imsan, VATANIM...

O'g'lim desang, osmonlarga G'irot bo'lib uchgayman,
Chambil yurtda Alpomishga navkar bo'lib tushgayman,
Padarkushdan pana qilib, Ulug'beging quchgayman,
G'ichir-g'ichir tishimdagi so'lig'imsan, VATANIM...

Sen shoxlari osmonlarga tegib turgan chinorim,
Ota desam, o'g'lim deb, bosh egib turgan chinorim,
Ko'nglimdagi g'ururim, bo'ynimdagi tumorim,
O'zing mening ulug'lardan ulug'imsan, VATANIM!

**!** **Topshiriqlar:**

1. She'rni diqqat bilan tinglang va ifodali o'qing.
2. She'r matnidan atoqli otlarni yozib oling va qo'shimcha ma'lumotlar yordamida ular haqida qisqa ma'lumotnoma tuzing.
3. Sevara Nazarxon tomonidan aytilgan «Vatanim» qoshig'ini tinglang va birgalikda ijro eting.

## *II bob.* OILAM — TAYANCHIM VA FAXRIM
## *(KISHILIK OLMOSHLARI VA SHAXS-SON QO‘SHIMCHALARINING QO‘LLANILISHI)*

### *1-DARS:* MEN VA MENING OILAM

**Bilib oling!**

O‘zbek tilida kesim ot, olmosh va otlashgan so‘zlar bilan ifodalanganda maxsus kesimlik qo‘shimchalarini olib keladi. Kesimlik qo‘shimchalari ega bilan shaxs-sonda moslashadi. Nutqda ular tushirib qoldirilsa, ega bilan ot kesim o‘rtasiga tire qo‘yiladi. Inkor ma’nosini bildirish uchun shaxs-son qo‘shimchalaridan avval *emas* to‘liqsiz fe’li qo‘llaniladi. Masalan:

| | |
|---|---|
| *Men soliqchiman.* | *Men soliqchi emasman.* |
| *Bu kasb qiziqarli.* | *Bu kasb qiziqarli emas.* |

**Kishilik olmoshlari va kesimlik qo‘shimchalarining birgalikda qo‘llanishi**

| *Birlik* | *Ko‘plik* |
|---|---|
| I shaxs: men (я) .......-man | biz (мы).................-miz |
| II shaxs: sen (ты) ......-san, | siz (вы)....................-siz |
| III shaxs: u (он, она, оно)....-dir | ular (они)..............-lar |

***15-mashq.*** Berilgan gaplarni o‘qing. Kesimlik affikslarining urg‘u olmasligiga diqqat qiling.

Men talabaman. Men talaba emasman. Biz talabamiz. Biz talaba emasmiz. Sen o‘quvchisan. Sen o‘quvchi emassan. Siz o‘quvchisiz. Siz o‘quvchi emassiz. U ishchidir. U ishchi emas. Ular ishchidirlar. Ular ishchi emaslar.

***16-mashq.*** Berilgan so‘zlarni uchta shaxs bo‘yicha tuslang. So‘ngra ularni inkor shaklida ifodalang.

*Namuna:* Men iqtisodchiman, sen iqtisodchisan, u iqtisodchi. Men iqtisodchi emasman, sen iqtisodchi emassan, u iqtisodchi emas.

O‘qituvchi. Quruvchi. Harbiy. G‘aznachi. G‘avvos. To‘quvchi. Qo‘shiqchi. Shifokor. Huquqshunos.

***17-mashq.*** Ushbu atoqli otlardan familiyalar hosil qiling. So‘ngra ularga turli shaxs va sondagi kishilik olmoshlari va kesimlik affikslarini qo‘shib, namunadagidek gaplar tuzing.

*Namuna:* Men Qobiljonova Xolidaxon Qahramon qiziman. Men Qobiljonova Xolidaman.

Otabek, Bobur, Behzod, Oybek, Jahongir, Abdurahmon, Ozodbek, Komiljon, Qahramon, Olimjon, Qobiljon, Asadbek, Hasan, Husan, Tohir, Murodjon, Rahmatjon, Nizomiddin, Abduaziz, Nodirbek, Jamshid, Durbek, Oybek, Saidjon, Habibullo, Hojiakbar, Sardor, Kamol, Rahimxon, Davron, Diyorbek, Umidjon, Sarvar, Ahmadbek.

***18-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## BIZNING OILAMIZ

Bizning oilamiz katta. Buvam, buvim, dadam, oyim, akam va bitta singlim — jami 8 kishi birga yashaymiz. Buvam loyihachi-muhandis, buvim esa hamshira bo‘lganlar. Hozir ular nafaqada. Dadam quruvchilik bilan shug‘ullanadilar, oyim bolalar bog‘chasida tarbiyachi bo‘lib ishlaydilar. Dadam oila boshi hisoblanadilar. Men oilada o‘rtancha farzandman. Oilamizning to‘ng‘ich farzandi — akam moliyachilik kasbini tanladi. U Toshkent Moliya instituti talabasi. Men esa iqtisodchi bo‘lmoqchiman, shuning uchun bank kollejiga o‘qishga kirdim. Kenja singlim maktabda o‘quvchi, u ko‘proq o‘qituvchilikka qiziqadi. Buvam bizga: «Qaysi kasbni egallasangiz ham, uni astoydil seving va yaxshi mutaxassis bo‘ling. O‘z kasbi-hunarini yaxshi bilgan inson hamisha el hurmatiga sazovor bo‘ladi, «Hunarli xor bo‘lmas» deb bekorga aytishmaydi» deb nasihat qiladilar.

**!** **Topshiriqlar:**

1. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ifodalanishi va qaysi so‘zlar bilan bog‘lanishiga diqqat qiling.
2. Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni tugallang.

| | |
|---|---|
| *Men iqtisodchi...* | *(bo‘lmoq, tayyorlamoq)* |
| *Dadam quruvchilik bilan...* | *(ishlamoq, shug‘ullanmoq)* |
| *Onam bog‘chada tarbiyachi bo‘lib...* | *(kelmoq, ishlamoq)* |
| *Singlim o‘qituvchilikka...* | *(bo‘lmoq, qiziqmoq)* |
| *Akam moliyachilikni...* | *(intilmoq, tanlamoq)* |

3. Berilgan shaxs va kasb otlarini fe’llardan biri bilan bog‘lab yozing.

quruvchi, iqtisodchi, hamshira — bo‘lib / lik bilan → (bo‘lmoq, ishlamoq, shug‘ullanmoq)

***19-mashq.*** Berilgan shaxs otlaridan foydalanib, ushbu nutqiy qurilmada gaplar tuzing.

*Namuna:* Men talabaman. Xolam — tikuvchi. Siz filologsiz.

Chevar, tilshunos, haydovchi, muhandis, sardor, sotuvchi, xaridor, hamshira, shifokor, farrosh, zargar, konchi, to‘qimachi, oshpaz, talaba, ip yigiruvchi.

***20-mashq.*** Yuqoridagi mashqda berilgan matnni yana bir bor o‘qing. Matnda berilgan shaxs otlaridan kasb otlari hosil qiling va har birini fe’llar bilan to‘g‘ri bog‘lab yozishga harakat qiling.

*Namuna:* Iqtisod — iqtisodchilik.
Iqtisodchi bo‘lmoqchiman.
Quruvchi bo‘lib ishlamoqchiman.
Quruvchilik qilmoqchiman.
Quruvchilik bilan shug‘ullanaman.

Quruvchi, iqtisodchi, hamshira, tarbiyachi, o‘qituvchilik →
- bo‘lmoq
- bo‘lib ishlamoq
- shug‘ullanmoq
- qilmoq

*11-topshiriq.* «Bizning oilamiz» matnini yana bir bor o'qing va qarindosh-urug'larning nomlarini tartib bilan yozib chiqing. Ular sizning viloyatingiz (shaharingiz, qishlog'ingiz) da qanday nomlanishini qiyoslang.

*12-topshiriq.* O'z oilangiz va tanlagan kasbingiz haqida uy inshosi yozing.

## *2-DARS:* MEN — O'ZBEKISTON FARZANDIMAN

***21-mashq.*** I.A. Karimovning «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asaridan keltirilgan matnni ifodali o'qing.

Vatan ravnaqi, avvalo, uning farzandlariga, yoshlarning ma'naviy va jismoniy kamolotiga bog'liq. Bu esa har bir yurtdoshimizni fuqarolik mas'uliyatini his etishga, o'z manfaatlarini xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashiga da'vat etadi. Har bir fuqaro o'z mamlakatining taraqqiy etgan davlatlar qatoridan o'rin olishidan manfaatdordir. Vatan ravnaqi va farovonlik masalasi bir-biri bilan bog'liq. Bu dunyoda har bir odam to'q va badavlat hayot kechirish, el-yurt uchun munosib farzand tarbiyalash, ularga bilim berish va baxt-u kamolini ko'rish orzusi bilan yashaydi. Bu maqsadga erishish uchun yurtimizda bacha asoslar — tabiiy boyliklar, katta iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ma'naviy salohiyat mavjud.

**! Topshiriq:**

O'zbekiston yoshlarining burchlari va huquqlari haqida bilganlaringizni so'zlab bering.

**Ushbu nutqiy konstruksiyalarni bilib oling!**

| | |
|---|---|
| Kim — (bu) kim? | Prezident — respublikaning birinchi shaxsi. |
| Nima — (bu) nima? | Pul — insonlar orasidagi muomala vositasi. |
| Kim kim hisoblanadi? | Tijoratchi xususiy savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan shaxs hisoblanadi. |
| Kim kimdir? | Broker bitimlarning tuzilishida vositachi bo'lib xizmat qiladi. |
| Nima nimadir? | Tijoratchilik foyda olishga qaratilgan savdo-sotiqdir. |

| | |
|---|---|
| Nima nimadan iborat? | Marketing mollarning sotilishini kengaytirish maqsadida bozorni o‘rganishga doir tadbirlar tizimidan iborat. |
| Nima nima deb ataladi? | Ishlab chiqarishni boshqarish menejment deb ataladi. |
| Nimani nima deb atashadi? | Ishlab chiqarishni boshqarishni menejment deb atashadi. |
| Nima qanday ataladi? | Hisob varag‘iga zudlik bilan haq to‘lash «skonto» deb ataladi. |

***22-mashq.*** Namunadan foydalanib, berilgan so‘zlar ishtirokida quyidagi konstruksiyada gaplar tuzing.

| *Namuna:* | **Kim?** | **Nima qiladi?** |
|---|---|---|
| | Quruvchi | uylarni quradi. |
| | O‘qituvchi | bolalarni o‘qitadi. |
| | Shifokor | kasallarni davolaydi. |
| | Bog‘bon | daraxtlarni parvarishlaydi. |
| | Gulchi | gullarni yetishtiradi. |

Loyihachi, hisobchi, moliyachi, paxtakor, zargar, qo‘shiqchi, bastakor, zobit, duradgor, san’atkor, iqtisodchi, tilshunos, beshikchi, zargar.

***23-mashq.*** Savollarga yozma javob bering.

1. Dehqon kim? U nima ish bilan shug‘ullanadi?
2. Diler kim hisoblanadi? Uni yana qanday atash mumkin?
3. Ip yigiruvchi kim? U qayerda ishlaydi?
4. To‘qimachilik kombinatlarida kimlar ishlaydi?
5. Bichuvchilik va tikuvchilik kasbi bilan shug‘ullanadiganlarni kim deb ataydilar?
6. Do‘konlarda kimlar ishlaydi? Mahsulotlarni xarid qiluvchilarni kim deb ataydilar?

***24-mashq.*** Quyidagi matnni diqqat bilan o‘qing va berilgan topshiriq asosida davom ettiring.

## MUQADDAS BURCH

Buyuk milliy madaniyatning ulkan ma'naviy merosi bilan boyita oladigan, jahon fani va madaniyati durdonalaridan bahramand eta oladigan mamlakatgina buyuk kelajakka erishishi mumkin. Biz yigit va qizlarimizning ma'lumotli kishi bo'lishi uchun zarur bo'lgan barcha bilimlarni egallay olishlariga imkon berishimiz kerak.

O'zbek millatining muqaddas burchi ona tili, o'z milliy madaniyati va tarixini tiklashdan iborat. Shu bilan birgalikda, hayot kechiruvchi kam sonli xalqlarning taqdiri uchun, ularning o'ziga xos madaniy-ma'naviy xususiyatlarini saqlab qolishi uchun, kamol topishi va o'zligini namoyon etishi uchun ularga teng sharoit va imkoniyatlar yaratib berishga mas'ul bo'lishlari lozim.

**Topshiriq:**

Vatanimizning rivojlanishi, xalqimiz farovon yashashi uchun yana nimalar qilish kerak deb o'ylaysiz?

***25-mashq.*** Publitsistik maqoladan berilgan parchani o'qing va topshiriqlarni bajaring.

## FUQAROLIK BURCHI

Do'stim, ushbu fuqarolik burchimizni yodingda tut va unga rioya qil: Farzand faqat seniki emas, millatning ham farzandi. U davlatimizning eng yaxshi fuqarosi bo'lishi kerak. Demak, noto'g'ri tarbiya faqat sening emas, millatning ham qalbini yaralaydi. Davlatimiz taraqqiyotiga yoki foydali bo'ladi yoki zarar keltiradi. Farzanding sen va sen ishlayotgan jamoaning mustaqilligimizni mustahkamlashga qo'shayotgan hissalarini o'zingdan eshitsin.

Hammamiz O'zbekistonda ishlab chiqarilgan degan yorliq sifati uchun kurashyapmiz. O'zbekistonning jahoniy mavqeyi yanada oshishi uchun hamma qatori sen ham kuyib-pishayotganingni farzanding ko'rsin, chunki o'zing faol fuqaro bo'lmay turib, farzandingni faol fuqaro qilib tarbiyalay olmaysan. Farzanding kecha, bugun, hozir sening O'zbekiston bayrog'iga, madhiyasiga, gerbiga munosabatingdan andoza olyapti. Shuni bilib qo'y!

Bolalaring bilan «Axborot», «Davr» teleko‘rsatuvlarini birga ko‘rishni odat qil. Sodda-sodda qilib sharhlab ber. Yutuqlarimizdan, xalqaro obro‘-e’tiborimizdan bolalaring faxrlanib so‘zlashayotganini ko‘rsang, bilib qo‘y, sen ham yaxshi ota, ham yaxshi fuqarosan va shunday fuqarolarni tarbiyalayotgan bo‘lib chiqasan.

**! Topshiriq:**

1. Sizningcha, XXI asr yoshlari qanday bo‘lishlari kerak? Shu haqda o‘z fikringizni bayon eting.
2. «Iqtisodiy tanazzul», «Ma’naviy tanazzul» tushunchalarini sharhlab bering.
3. Hozirgi kunda respublikamiz fuqarosi bo‘lgan yoshlarga berilayotgan ta’riflar va ularning burchlari haqida so‘zlab bering.
4. Matnga o‘z munosabatingizni bildiring.

***26-mashq.*** Matnni o‘qing va asosiy mazmunini o‘zbek tilida so‘zlab bering.

## БУДЬ ДОСТОЙНЫМ ГРАЖДАНИНОМ

Всё, что тебя окружает, создано трудом человека. И сам ты, сегодняшний студент, завтра встанешь в ряды тех, кто трудится на благо своего народа. Ты, как и каждый из нас, являешься членом большого коллектива. Поэтому тебе очень важно уметь вести себя в обществе, быть ему полезным, приносить счастье людям, бороться за него.

Тебе предстоит строить будущее. Учись быть достойным его строителем. Постоянно работай над собой, помогай другим, вырабатывай в себе необходимые нравственные качества, стремись быть скромным, волевым, решительным и мужественным человеком. Стремись знать как можно больше, овладевай своей специальностью, чтобы принести пользу своему народу.

При этом не забывай помогать товарищам, потому что сила каждого из нас — в неразрывной связи с коллективом. Помни, что человек человеку — друг, товарищ и брат. Будь всегда отзывчивым, внимательным к людям, заботься о них, уважай их. Но если ты видишь, что твой товарищ поступает неправильно, смело говори ему. Этим ты ему поможешь.

Будь требовательным и к самому себе: умей признавать свои ошибки, исправляй их, не обижайся на справедливую критику, старайся быть вежливым и скромным. Помни, что скромность украшает человека. Постоянно контролируй своё поведение, воспитывай в себе волю, решительность, мужество.

Помни об этом и будь всегда достойным имени гражданина, патриота, человека!

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Har bir abzasda ifodalangan fikrni aniqlang va daftaringizga yozing.
2. Matnda asosiy fikr qaysi abzasda ifodalangan?
3. O‘z Vataningiz, ota-onangiz, jamiyatingiz oldidagi burchlaringiz haqida so‘zlab bering.
4. *«O‘z-o‘zini tanqid qilish»* deganda nimalarni tushunasiz?
5. Kamtarlik va manmanlikka oid maqollardan ayting va ularning mazmunini sharhlab bering.

## *3-DARS:* MENING DO‘STLARIM

*13-topshiriq.* Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing. Tanishuv iboralarining qo‘llanishiga e’tibor bering.

— Keling, tanishamiz. Men talabaman. Ismim — Bobur, familiyam — Abduqodirov. Dadamning ismlari — Alisher, oyimning ismlari — Nodira. Dadam aloqachilar, onam esa shifokorlar. Marhamat, endi siz o‘zingizni tanishtirsangiz.

— Bo‘pti. Men Abdurahmon Xalilov Abdurahim o‘g‘liman. Dadamning ismlari — Abdurahim, oyimning ismlari — Nargiza. Dadam ham, oyim ham shifokorlar.

— Siz bilan tanishganimdan juda xursandman.

***27-mashq.*** Matnni o‘qing. Insonlarni tanishtirish va ularni sifatlashda qo‘llanadigan so‘zlar va iboralarni ko‘rsating.

Tanishing: bu mening do‘stimning oilaviy surati. Do‘stimning ismi — Qobiljon. Bular Qobiljonning ukalari — Hasan va Husan. Hasan va Husan — egizaklar. Ularning yuz-ko‘zlari bir xil. Faqat

Hasanning bo‘yi biroz balandroq, Husanning bo‘yi esa biroz pastroq. Ular maktab o‘quvchilari. Mana bular do‘stimning ota-onalari. Ular shifokor bo‘lib ishlashadi. Do‘stim bank kollejida o‘qiydi. U bo‘lajak moliyachi. Do‘stim juda tirishqoq va intiluvchan. Men do‘stimni juda hurmat qilaman.

***28-mashq.*** Savollarga javob bering va do‘stingiz haqida so‘zlab bering. So‘ngra ushbu nutqiy qurilmalardan foydalanib, o‘z tarjimayi holingizni yozing.

Sizning do‘stingiz bormi? Uning ismi nima? Familiyasi-chi?
Do‘stingizning otasi kim? Onasi-chi? Ular qaysi kasb egalari? Do‘stingiz qaysi kasbga qiziqadi? Hozir qayerda o‘qiyapti? Do‘stingizning qaysi odatlarini yoqtirasiz? Qaysi odatlari esa sizga yoqmaydi? Do‘stingizning ukasi yoki singlisi bormi? Ularning ismlari nima?

*14-topshiriq.* Dialogni juftliklarga bo‘lingan holda ifodali o‘qing va rolli o‘yinlar tashkil eting. Tasdiq va inkor bildiruvchi so‘zlarning ohangiga e’tibor bering.

## O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI SUHBATI

— Mumkinmi?
— Kiring, marhamat.
— Kechirasiz, siz o‘zbek tili o‘qituvchisi Jamila Odilovnamisiz?
— Ha, men Jamila Odilovnaman.
— Ustoz, men Jo‘rayev Jahongirning maktabdoshi bo‘laman.
— Shundaymi, Jahongir mening eng yaxshi o‘quvchim. Siz ham shu kollejda o‘qiysizmi?
— Men boshqa guruhda o‘qiyman. O‘zbek tilidan menga ayrim maslahatlar berib tura olasizmi? Jahongir sizni juda maqtagan edi.
— Mayli. Mashg‘ulotlar tugaganda kelishingiz mumkin.
— Albatta kelaman. Sizga katta rahmat.

*15-topshiriq.* Tanishuv iboralari va savollarini ifoda ohangiga mos holda o‘qing va yod oling.

| **Tanishuv iboralari** | **Javob iboralari** |
|---|---|
| — O‘zimni tanishtirishga ruxsat eting. | — Marhamat. |

| | |
|---|---|
| — Ruxsat bersangiz, o‘zimni tanishtirsam. | — Marhamat. O‘zingizni tanishtiring. |
| — Mumkinmi, o‘zimni tanishtirsam? | — Albatta. Yaxshi bo‘lar edi. — Juda xursand bo‘lar edim. — Maqsadga muvofiq bo‘lar edi. |
| — Meni tanishtirsangiz. | — Marhamat, tanishing. |
| — Tanishsak bo‘ladimi? | — Albatta. |
| — Tanishaylik. | — Juda xursandman. |
| — Meni tanimadingiz, shekilli. | — Yaxshi eslay olmayapman. |
| — Keling, tanishamiz. | — Bo‘pti. |

| **Tanishuv savollari** | **Savollarga javoblar** |
|---|---|
| — Ismingiz? | — Ismim Komila. |
| — Familiyangiz? | — Familiyam Ahmedova. |
| — Kimsiz? (Siz kimsiz?) | — Men Komila Ahmedovaman. — Men Ahmedova Komilaman. |
| — Siz kim bo‘lasiz? | — Men Komila Ahmedova bo‘laman. |
| — Kimligingizni bilsak bo‘ladimi? | — Albatta, men Azamat akaning qizlariman. |
| — Kimligingizni ayta olasizmi? | — Ha, men Azamat Ahmedovning qiziman. |
| — Rahmat, tanishganimdan xursandman. | — Men ham. |

## *4-DARS:* O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

***29-mashq.*** Rasmlarni diqqat bilan kuzating. Har biri asosida matn tuzing.





*30-mashq.* Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

## MENING VATANIM

Mening Vatanim — O'zbekiston. O'zbekiston — yeri oltin, havosi beg'ubor, suvi shirin o'lka. O'zbekistonning so'lim bahori, jazirama yozi, serhosil iliq kuzi, kumush qishi insonning ko'ngliga quvonch bag'ishlaydi.

O'zbekiston — boylikka kon diyor. O'zbekistonning bitmas-tuganmas zahiralari bizning faxrimiz. O'zbekiston — quyoshli o'lka, uning tilni yorar qovun-tarvuzlari, xushta'm olma-yu anorlari, uzumlari jahonga mashhurdir. Yurtimizga bir marta kelganlar yana bir bor kelishni xohlaydilar.

Vatanimiz mustaqilikka erishganidan so'ng o'zining yerosti va yerusti boyliklaridan samarali foydalana boshladi. Navoiy shahridagi «Zarafshon — Nyumont» qo'shma korxonasi, Qashqadaryo viloyatidagi Ko'kdumaloq kompressor stansiyasi, Sho'rtan gaz-kimyo majmuyi shular jumlasidandir.

Andijonning Asaka shahrida barpo etilgan «GM — O'zbekiston», Samarqand shahrida turkiyaliklar bilan bunyod etilgan «Isuzu» qo'shma korxonalari O'zbekistonni dunyodagi o'z avtomobilsozlik sanoatiga ega bo'lgan 28 davlatning biriga aylantirdi.

Hozirgi kunda O'zbekiston jahon bozorida o'zining «Neksiya», «Damas», «Matiz», «Lasetti», «Spark», «Kobalt» kabi yengil avtomobillari, «Isuzu» avtobuslari bilan qatnashmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston kelajakka ishonch bilan qadam tashlamoqda va jahonga yuz tutmoqda.

**Topshiriqlar:**

Matndagi ma'lumotlardan foydalanib, quyidagi savollarga javob bering:

1. O'zbekiston qanday diyor?
2. O'zbekistonning nimalari jahonga mashhur?
3. U mustaqillikka erishgandan so'ng nimalardan va qanday foydalana boshladi?
4. Hozirgi kunda O'zbekistonda qanday qo'shma korxonalar barpo etilgan?
5. Dunyo bo'yicha nechta davlatda mashinasozlik sanoati mavjud?
6. O'zbekistonda qanday mashinalar ishlab chiqariladi?
7. O'zbekistonda yana nimalar ishlab chiqariladi?

## *III bob.* **MENING QIZIQISHLARIM VA MASHG‘ULOTLARIM**
*(SHAXS VA KASB OTLARINI IFODALASH)*

### ***1-DARS:*** **KASBIM – FAXRIM**



*16-topshiriq.* Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing. Muomala odobiga oid so‘zlarning talaffuzi va ohangiga e’tibor bering.

— Assalomu alaykum.
— Vaalaykum assalom.
— Kechirasiz, bu qurilish kollejimi?
— Yo‘q, bu bank hisob-kredit kolleji.
— Kollejingizda qanday kasblarga o‘rgatiladi?
— Bizning kollejimizda bank ishi, hisob-kredit ishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanadi. Siz ham bizning kollejga o‘qishga kirmoqchimisiz?
— Yo‘q, men quruvchilikka qiziqaman. Mening dadam loyihachi-muhandislar. Men ham ularning kasblarini egallamoqchiman. Buning uchun avval qurilish kollejida o‘qimoqchiman, so‘ng Toshkent davlat arxitektura-qurilish institutiga o‘qishga kiraman. Qurilish kollejiga qanday borishni ko‘rsatib bera olmaysizmi?

— Albatta, aytib bera olaman. Keyingi muyulishdan o‘ng tomonga biroz yursangiz, avval zargarlik, undan keyin esa qurilish kolleji joylashgan.

— Sizga katta rahmat.

— Omadingizni bersin.

**! Topshiriq:**

1. Matndan kasbga oid so‘zlarni aniqlab yozib oling.
2. O‘z kollejingiz va tanlagan kasbingiz haqida so‘zlab bering.

**Bilib oling!**

Otlar ma’nosiga ko‘ra shaxs otlari, narsa-buyum, kasb-hunar va mavhum otlar guruhiga bo‘linadi. Shaxs otlari shaxsning kasb-kori, hunari, lavozimi kabilarni bildiradi. Shaxs bildirmaydigan otlar esa narsa-buyum otlari hisoblanadi. Ular tuzilishiga ko‘ra tub va yasama bo‘lishi mumkin.

Olim, muallim, farrosh, raqqosa, kollej, shahar, qalam kabi otlar tub otlar, sportchi, zargar, guldon, o‘chirg‘ich kabi otlar yasama otlardir. Yasama shaxs otlarini yasovchi eng faol so‘z yasovchi qo‘shimchalar quyidagilar:

**-chi, -kor, -gar, -shunos** qo‘shimchalari asosdan anglashilgan ish bilan shug‘ullanuvchi shaxs otlarini yasaydi. Masalan: *yozuvchi, bo‘yoqchi, tadbirkor, kimyogar, tilshunos* kabi.

**-soz** qo‘shimchasi asosdan ifodalangan narsani tuzatuvchi shaxs otini yasaydi. Masalan: *soatsoz, tunukasoz, avtomobilsoz* kabi.

**-paz** qo‘shimchasi asosdan ifodalangan narsani pishiruvchi shaxs otini yasaydi. Masalan: *somsapaz, mantipaz, kabobpaz* kabi.

**-bon** qo‘shimchasi asosdan ifodalangan narsani saqlab turuvchi shaxs otini yasaydi. Masalan: *bog‘bon, darvozabon, saroybon* kabi.

Shaxs otlariga **-lik, -chilik, -garchilik** qo‘shimchalarini qo‘shish orqali kasb-hunar otlari va mavhum otlar yasaladi. Masalan: *tadbirkor — tadbirkorlik, hisobchi — hisobchilik, gulchi — gulchilik, chizmakash — chizmachilik* kabi. Ushbu qo‘shimchalar

turdosh otlar, sifat, son, olmoshlarga qo‘shilib mavhum otlarni yasashi ham mumkin. Masalan: *do‘st — do‘stlik, yaxshi — yaxshilik, uch — uchlik, man (men) — manmanlik, odam — odamgarchilik, isrof — isrofgarchilik* kabi.

**Shaxs va narsa-buyumlarni ifodalash**

| **Shaxslarni ifodalash** | **Narsa-buyumlarni ifodalash** |
|---|---|
| Ishchi, talaba, iqtisodchi, bog‘bon, o‘lkashunos, dehqon | kitob, bog‘, olma, daraxt, non, telefon, kompyuter |

**Shaxs otlarini yasovchi qo‘shimchalarni eslab qoling!**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| quruv**chi** | osh**paz** | soat**soz** | paxta**kor** | til**shunos** |
| hisob**chi** | kabob**paz** | mashina**soz** | tadbir**kor** | adabiyot**shunos** |
| loyiha**chi** | manti**paz** | samolyot**soz** | durad**gor** | siyosat**shunos** |
| iqtisod**chi** | somsa**paz** | uy**soz** | zar**gar** | o‘lka**shunos** |

***31-mashq.*** She’rdagi shaxs otlarini aniqlang va ifodalanishini ko‘rsating. Oxirgi misralar mazmunini o‘z so‘zlaringiz bilan tushuntiring.

Bo‘lay desang bog‘bon
Yo vatanga posbon
Yo osmonda uchuvchi
Yo dengizda suzuvchi,
Nimaki qilsang tilak,
Bariga o‘qish kerak.

*(Q. Muhammadiy)*

***32-mashq.*** Qayd qilingan shaxs otlaridan foydalanib, *Kim — bu kim?* konstruksiyalarida gaplar tuzing.

*Namuna:* Men talabaman. Xolam — tikuvchi. Siz filologsiz.

Chevar, tilshunos, haydovchi, muhandis, sardor, sotuvchi, xaridor, hamshira, shifokor, farrosh, zargar, konchi, to‘qimachi, oshpaz, ip yigiruvchi.

## Kasb otlarining yasalishi va tarkibiy qismlarga bo‘linishini bilib oling!

**+ -*lik***
ishbilarmon + lik
tadbirkor + lik
manman + lik
sohibkor + lik
duradgor + lik

**+ -*chilik***
qo‘shni + chilik
dehqon + chilik
kulol + chilik
paxta + chilik
ipak + chilik

**+ -*chi* + -*lik***
quruv + chi + lik
tikuv + chi + lik
hisob + chi + lik
loyiha + chi + lik
gilam + chi + lik

**+ -*garchilik***
loy + garchilik
odam + garchilik
yog‘in + garchilik

***33-mashq.*** Berilgan otlarga ushbu qo‘shimchalarni qo‘shib, avval shaxs otlari, so‘ngra kasb otlarini hosil qiling.

+-chi + -lik: gulchi — gulchilik, ... .
+-paz + -lik: oshpaz — oshpazlik, ... .
+-soz + -lik: soatsoz — soatsozlik, ... .
+-gar + -lik: zargar — zargarlik, ... .
+-bon + -lik: bog‘bon — bog‘bonlik, ... .

Xizmat, somsa, uy, mis, darvoza, beshik, kabob, saroy.

***34-mashq.*** Berilgan fe’l o‘zaklaridan avval shaxs otlari, so‘ngra kasb otlarini hosil qiling. Yuz beradigan tovush o‘zgarishlariga e’tibor bering.

*Namuna:* sotmoq — sotuvchi — sotuvchilik, ... .

Bo‘yamoq, o‘qimoq, taramoq, o‘qitmoq, hisoblamoq, qurmoq.

***35-mashq.*** Matnni o‘qing va uni davom ettiring. Matndagi shaxs va kasb otlarini tuzilishiga ko‘ra tahlil qiling.

## KASBLAR HAQIDA

Mening otam — huquqshunos. Huquqshunoslik juda zarur kasb. Har qanday mamlakatda adolat o‘rnatilishi kerak. Huquqshunos ... .

Mening onam — shifokor. Shifokorlik juda oliyjanob kasb. Shifokor ... .

Mening akam — uchuvchi. Uchuvchilik kasbi juda qiziqarli kasb. Uchuvchi ... .

Men o‘qituvchi bo‘lmoqchiman. O‘qituvchilik ... .

Mening do‘stim esa tarjimon bo‘lmoqchi. Tarjimonlik kasbi insonlardan... .

Hozirgi kunda iqtisodchi va moliyachilik kasblari ham juda zarur kasblardan biridir. Iqtisodchilar... . Moliyachilik esa ... .

✍ ***36-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## HUNARMANDCHILIK RASTALARI

Toshkentning eng gavjum va markazi bo‘lgan eski shaharda katta bozor joylashgan. O‘zbekistonning barcha viloyatlaridan, hatto chet ellardan kelgan mehmonlar, albatta, bu yerga kelmay ketmaydilar. Bozorga kiraverishda kishini o‘ziga jalb qiluvchi qator savdo rastalari bor. Bu **hunarmandchilik** rastalari bo‘lib, u **beshikchilar** rastasidan boshlanadi. **Beshikchilik** qadimdan juda rivojlangan, chunki o‘zbek xalqi serfarzand xalq va har bir xonadonda beshik bo‘ladi. Beshikchilar rastasi qatorida **zargarlar** rastasi joylashgan. Bu yerda siz turli-tuman milliy zeb-u ziynatlarni: zirak, uzuk, tillaqosh, bilaguzuklarni ko‘rasiz. Bu san’at durdonalarini nafaqat o‘zbeklar, balki chet ellik mehmonlar ham ko‘rgani keladilar. **Zargarlik** do‘konlaridan so‘ng **misgarlik** va **temirchilik** rastalari boshlanadi. Bu yerda ketmon, belkurak, tesha, o‘roq, pichoq, chovli, xokandoz kabi turli uy-ro‘zg‘or anjomlari sotiladi va ta’mirlanadi. Ushbu rastalarning qarama-qarshi tomonida esa o‘zbek milliy choponlari, zardo‘zlik buyumlari sotiladi.

**!** **Topshiriqlar:**

1. Matndan narsa-buyum, shaxs va kasb otlarini uch guruhga bo‘lib ko‘chiring.

2. Narsa-buyum otlariga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shib, shaxs va kasb otlarini hosil qiling.

*Namuna:* iqtisod — iqtisodchi — iqtisodchilik, ... .

3. Matnda ajratib ko'rsatilgan shaxs va kasb otlarining yasalishini sharhlab bering.

✍ ***37-mashq.*** Matnni o'zbek tiliga o'giring va topshiriqlarni bajaring.

Сколько людей участвуют в изготовлении текстильной продукции? На самом начале дехкане выращивают хлопок, обрабатывают и поливают землю, ухаживают за всходами. Они трудятся начиная с ранней весны до поздней осени. Осенью раскрываются коробочки хлопка. Хлопкоробы собирают выращенный хлопок и передают их для очистки. Из очищенного хлопка на текстильной фабрике прядильщики изготовляют пряжу, после этого ткачи ткут ткань. Из полученного материала кройщицы выкраивают и портнихи шьют. Так готовая одежда попадает в магазины продавцам, затем в руки покупателей. Раньше люди делали всё вручную. Сейчас во всём помогают машины, которые облегчают труд рабочих.

**!** **Topshiriqlar:**

1. Matndagi narsa-buyum va shaxs otlarini 2 ustunga ajratib yozing.
2. Shaxs otlarining o'zbek va rus tillarida ifodalanishi va yasalishini tushuntiring.
3. To'qimachilik sohasidagi ish jarayonini bosqichma-bosqich tushuntirib berishga harakat qiling.
4. O'zingiz yaxshi ko'rgan sohadagi ish jarayonini ham shu tarzda tushuntirib berishga harakat qiling.

✍ ***38-mashq.*** Matnni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

## SHARQ HUNARMANDCHILIGI

Sharqda IX—XII asrlarda binolarni turli naqshlar bilan bezash, ustunlar, eshiklar va boshqa yog'och buyumlarga o'yib naqsh solish juda keng tarqalgan edi. Bu o'ymakorlik san'atini vujudga keltirdi. Naqsh bilan birgalikda rasm chizish ham rivojlana boshlandi. Afrosiyobdagi binolardan birining devoriga kishilarning

surati solingan. Samarqandning Registon maydonidagi Sherdor madrasasi peshtoqlaridagi sher tasviri ham bundan dalolat beradi. Umuman, naqqoshlik, o'ymakorlik va tasviriy san'at sharqda binokorlik bilan birgalikda rivojlandi. Sharq me'morchiligining durdonalari bo'lgan Ulug'bek madrasasi, Go'ri Amir maqbarasi, Sherdor, Tillakori madrasalari, Bibixonim masjidi, Ko'kaldosh madrasasi, Xiva shahridagi betakror obidalar naqsh va o'ymakorlik san'ati bilan hozirgi kungacha butun jahon ahlini hayratga solib kelmoqda.

Shuningdek, sirlangan va sirlanmagan sopol idishlarni yasash, sirlangan idishlarga rangli bo'yoqlar bilan turli naqshlar va gullar solib bezash ham keng qo'llana boshlangan. Bu san'at, ayniqsa, Samarqand, Toshkent va Zarafshon vodiysida juda keng rivojlangan. Naqsh san'ati keyinchalik chinnisozlik sanoatiga va zardo'zlik sohasiga ham kirib bordi. Buxoro zardo'zlarining do'ppilari, turli kiyim-kechaklar palaklarida, Xiva gilamlarida qadimiy naqsh san'ati hozirgacha saqlanib qolgan.

**!** **Topshiriqlar:**

1. Matndan shaxs otlarini aniqlab, daftaringizga ko'chirib yozing. Ularni tarkibiy qismlarga ajrating va yasalishini tushuntiring.
2. Berilgan savollardagi subyektni ifodalovchi so'zlarga diqqat qiling va har bir savolga asosli javob berishga harakat qiling:

— Sharqda IX—XII asrlarda nima keng tarqalgan edi?
— Sherdor madrasasi peshtoqlarida nimaning tasviri bor?
— Sherdor madrasasi qayerda joylashdan?
— Yana qaysi obidalar o'ymakorlik san'ati bilan hozirgi kungacha butun jahon ahlini hayratga solib kelmoqda?
— Naqsh san'ati yana qaysi sohalarda keng ishlatila boshlandi?
— O'zbekistonga kelgan sayyohlar aynan qaysi buyumlarni sevib xarid qiladilar?

## *2-DARS:* ILM — KAMOLOT BESHIGI

***39-mashq.*** I.A. Karimovning «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asaridan keltirilgan matnni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

Inson qalbiga yo'l, avvalo, ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun biz buyuk zotlar – o'qituvchi va murabbiylarning oliyjanob mehnatini hurmat qilamiz. Maktab degan ulug' dargoh-

ning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta'sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o'qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi.

Agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir. Chindan ham, o'qituvchi o'z o'quvchilariga hayot maktabini beradigan mo'tabar zotdir.

**! Topshiriqlar:**

1. Matnning mazmunini so'zlab bering.
2. Matnning asosiy mazmunini ifodalovchi jumlani ko'rsating.
3. Ilmning inson hayotidagi o'rnini misollar yordamida tushuntiring.

*17-topshiriq.* Suhbatni rollarga bo'lib, ifodali o'qing.

## TALABA VA ABITURIYENT SUHBATI

*Abituriyent:* — Assalomu alaykum.
*Talaba:* — Vaalaykum assalom.
*Abituriyent:* — Kechirasiz, bu texnika universitetimi?
*Talaba:* — Yo'q, bu O'zbekiston Milliy universiteti.
*Abituriyent:* — Siz shu universitetda o'qiysizmi?
*Talaba:* — Ha, men shu universitet talabasiman.
*Abituriyent:* — Universitetingizda qanday kasblarga o'qitiladi?
*Talaba:* — Bizning universitetimizda barcha fanlar hamda jurnalistika, huquqshunoslik sohalari bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi. Siz bizning universitetga o'qishga kirmoqchimisiz?

*Abituriyent:* — Yo'q, men quruvchi bo'lmoqchiman. Mening dadam loyihachi muhandislar. Men ham ularning kasblarini egallamoqchiman. Shuning uchun arxitektura institutiga o'qishga kirmoqchiman. Arxitektura-qurilish institutiga qanday borishni ko'rsatib bera olmaysizmi?

*Talaba:* — Albatta, aytib bera olaman. Shu ko'chadan to'g'ri yursangiz, avval Toshkent davlat texnika universiteti, keyingi muyulishdan chap tomonga biroz yursangiz, Toshkent Davlat arxitektura-qurilish instituti joylashgan.

*Abituriyent:* — Sizga katta rahmat.

*Talaba:* — Omadingizni bersin.

*40-mashq.* Matnni o'qing va uni davom ettiring. Matndagi atoqli otlarni ajratib yozing va ularning yozilishini tushuntiring.

## IQTISODIYOT KOLLEJLARI

Respublikamizda «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi»ning qabul qilinishi ta'lim tizimining isloh qilinishiga olib keldi. Ko'plab akademik litseylar va turli kasb-hunar kollejlari ochildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 10-iyundagi 216-sonli qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qoshida Toshkent bank hisob-kredit kolleji tashkil etildi. 1996-yilda esa Toshkent moliya instituti qoshida bank kolleji faoliyat yurita boshladi. ...

***Savol va topshiriqlar:***

1. Matndan kelishik qo'shimchali va ko'makchili birikmalarni ajrating, bog'lanishni tushuntiring.
2. Matnni davom ettiring. «Qachon?», «Qayerda?», «Qanday kollejlar ochilgan?»
3. O'zingiz o'qiydigan kollej haqida so'zlab bering.
4. Do'stlaringiz qaysi bilimgohlarda o'qiydilar? Bu o'quv yurtlari qayerda joylashgan? Shular haqida so'zlab bering.

*41-mashq.* Matnni rus tiliga o'giring.

Bilimsiz odam ko'zi ko'r kishiga o'xshaydi. Uning qo'lidan yetaklab yo'l ko'rsatish, ya'ni bilimga chorlash shart. O'quv – idrok zulmat tunidagi mash'aladir. Bilim kishini shu zulmatdan ozod qiladi. Bilim — boylik. Ammo uning boshqa boyliklardan farqi bor. Har qanday boylikdan bir zumda ayrilib qolish mumkin. Biroq bilimni hech kim tortib ololmaydi. Aksincha, u qancha ko'p ishlatilsa, shuncha ko'payib boraveradigan boylikdir.

*42-mashq.* Matnni o'qing. Savollarga javob bering va topshiriqlarni bajaring.

## O'ZBEKISTON — KATTA IMKONIYATLAR MAMLAKATI

O'zbekiston — katta imkoniyatlar mamlakati. O'zbekistonning rivojlanishi uchun hamma narsa: tabiiy boyliklar, hosildor yerlar, mehnat resurslari, iqtisodiy, ilmiy, texnikaviy va ma'naviy imkoniyatlar mavjud.

O‘zbek xalqi mehnatsevar, iste’dodli va mehmondo‘st xalqdir. Respublikamiz aholining o‘sish sur’ati va mehnat resurslari yuqori bo‘lgan mintaqa hisoblanadi. Markaziy Osiyodagi barcha mehnat resurslarining 44 % ga yaqini O‘zbekiston hissasiga to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda cho‘l yerlarni obodonlashtirish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini ochish, qishloq xo‘jaligi va sanoatni rivojlantirish uchun katta ishlar qilinyapti. Muhtasham binolar, magistral yo‘llar, ko‘priklarning qurilishi iqtisodimizning rivojlanib borayotganining belgisidir. O‘zbekistonning jahon mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalari kundan kunga rivojlanib bormoqda.

**?** ***Savollarga javob bering:***

1. O‘zbekiston qayerda joylashgan?
2. U qaysi mamlakatlar bilan chegaradosh?
3. O‘zbekistonda qanday viloyatlar, shaharlar bor?
4. O‘zbekiston hududida qanday tog‘lar, daryolar, cho‘llar joylashgan?
5. O‘zbekistonda qanday tabiiy boyliklar mavjud?
6. O‘zbekistonda qanday qo‘shma korxonalar bor?
7. Nima uchun O‘zbekiston «katta imkoniyatlar mamlakati» deb ataladi?
8. O‘zbekiston haqida yana nimalarni bilasiz?

**!** **Topshiriqlarni bajaring:**

1. Matndan bosh, tushum va qaratqich kelishik qo‘shimchali so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan birga yozib oling va qo‘llanishini tushuntiring.
2. Matndan foydalanib, quyidagi gaplarni to‘ldiring.

*O‘zbekistonda ... — hamma narsa mavjuddir.*
*O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga ... lar kiradi.*
*Respublikamiz ... mintaqa hisoblanadi.*
*O‘zbekistonda ... katta ishlar qilinyapti.*
*... ning qurilishi ... ning belgisidir.*

3. Matndan ko‘makchili konstruksiyalarni yozib oling va ularning sinonimik variantlarini ayting.
4. Qarashlilikni ifodalovchi so‘z birikmalarini ko‘chirib yozing va ifodalanishini tushuntiring.

*18-topshiriq.* Internet ma'lumotlaridan foydalanib, berilgan mavzulardan biriga ma'lumotnoma tayyorlang.

1. O'zbekiston sporti.
2. O'zbekiston tabiiy boyliklar mamlakati.
3. O'zbekiston sanoati.

## *3-DARS:* FANLARNI O'RGANAMIZ *(EGALIK QO'SHIMCHALARINING QO'LLANISHI)*

**Bilib oling!**

O'zbek tilida qarashlilik ma'nosi egalik qo'shimchalari va *-niki* qo'shimchasi vositasida ifodalanadi. Egalik qo'shimchalari 3 shaxs shakliga ega bo'lib, hamisha ***-ning*** qaratqich kelishigi qo'shimchasini olib kelgan ot yoki olmoshlar bilan bog'lanadi. Bunda I va II shaxsdagi so'zlar kishilik olmoshlari ***-men, sen, biz, siz*** bilan, III shaxsda esa otlar bilan ifodalanadi. Masalan: *men (biz) + ning kollejim (imiz), sen (siz) + ning kollejing (ingiz), u (lar), do'stim +ning kolleji.*

Egalik ma'nosi *-niki* qo'shimchasi vositasida ham ifodalanishi mumkin. Bunda *-niki* qo'shimchasi olmoshlarga qo'shiladi va rus tilidagi konstruksiyalarga o'xshaydi. Qiyoslang: *mening kitobim — kitob meniki — моя книга.* Shuningdek, qarashlilik *taalluqli, qarashli, tegishli* so'zlari vositasida ham ifodalana oladi. Masalan: *Kitob menga qarashli. Bu masala sizga taalluqli* kabi.

**Egalik ma'nosini ifodalovchi vositalarni bilib oling!**

| Egalik qo'shimchalari orqali | Qarashlilik qo'shimchalari orqali | Maxsus so'zlar orqali |
|---|---|---|
| mening kitobim | kitob meniki | taalluqli |
| sening kitobing | kitob seniki | tegishli |
| uning kitobi | kitob uniki | qarashli |
| bizning kitobimiz | kitob bizniki | -ga+ oid |
| sizning kitobingiz | kitob sizniki | -ga+ oid |
| ularning kitoblari | kitob uniki | |

*43-mashq.* Ushbu ma'nodosh so'zlarni va so'z birikmalarini mashq daftaringizga ko'chiring va qo'llanishiga e'tibor bering.

Bizning qishlog'imiz — bizning qishloq — qishlog'imiz.
Bizning oilamiz — bizning oila — oilamiz.
Bizning Vatanimiz — bizning Vatan — Vatanimiz.
Sizning mahallangiz — sizning mahalla — mahallangiz.
Bizning kollejimiz — bizning kollej — kollejimiz.
Bizning litseyimiz — bizning litsey — litseyimiz.
Sizning maktabingiz — sizning maktab — maktabingiz.

*44-mashq.* Matnni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

## TOSHKENT BANK HISOB-KREDIT KOLLEJI

Toshkent bank hisob-kredit kolleji O'zbekiston Markaziy banki qoshida tashkil etilgan. Kollejda bank ishi, buxgalteriya hisobi, qimmatli qog'ozlar bozori yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi.

O'quvchilarga umumta'lim, umumkasbiy va mutaxassislik fanlaridan ham dars beriladi. Kollejda zamonaviy axborot texnologiyalarini o'rgatish uchun maxsus kompyuter xonalari mavjud. Kollej o'quvchilari Markaziy bank va «Asakabank», «Xalq banki», «Ipoteka» banki kabi turli banklarda ham amaliyot o'taydilar. Hozirgi kunda respublikamizda bank tizimi juda rivojlanmoqda. Odamlarning iqtisodiy bilimini oshirish jamiyatning rivojlanishi uchun zarurdir.

**Topshiriqlar:**

1. Matndagi mutaxassisliklar nomlarini, fakultetlar tayyorlaydigan mutaxassislar qanday atalishini yozib chiqing.
2. Matndagi otlarni shaxs yoki narsa-buyum bildirishiga ko'ra, ikki guruhga bo'lib yozib chiqing.
3. Siz o'qiydigan kollejda qanday mutaxassisliklar o'qitiladi?
4. Umumta'lim, umumkasbiy va mutaxassislik fanlariga qaysi fanlar kiradi?
5. Matnda nomlari keltirilgan banklar faoliyati haqida so'zlab bering. Yana qanday banklarni bilasiz?

**Ushbu faol so'zlar va so'z birikmalarini eslab qoling!**

hisob-kredit
bank tizimi
iqtisod yo'nalishi
mutaxassislik fanlari
umumta'lim fanlari
umumkasbiy fanlar
yo'nalishi bo'yicha mutaxassis
mutaxassis tayyorlamoq

***45-mashq.*** Gaplarni o'qing. Nuqtalar o'rniga **-ni** yoki **-ning** qo'shimchalaridan mosini qo'ying, ularning qaysi so'zga bog'lanishini ko'rsating.

1. Turli yuridik shaxslar va fuqarolar bitta mulk... subyektlari bo'lishi mumkin. Ne'matlar mulk... aylangandagina o'zgartiriladi.

2. Mulkdor o'z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday xatti-harakatlar... qo'llashga haqlidir. Mulkdor... manfaati asosida, avvalambor, u... iqtisodiy manfaati yotadi.

3. Jamiyat... rivojlanishi uchun odamlar... iqtisodiy bilimi... oshirish zarurdir.

***46-mashq.*** Matnni o'qing. Bank haqidagi asosiy va qo'shimcha ma'lumotlarni abzaslarga bo'lgan holda ajratib yozing.

## BANK NIMA?

Bank — kredit-moliya muassasasi bo'lib, uning eng asosiy vazifasi vaqtincha bo'sh pul vositalarini bir joyga to'plash, korxonalarga va pulga muhtojlarga kredit, ssuda berish, pul hisob-kitoblarini amalga oshirish, pul va turli qimmatli qog'ozlar chiqarish, oltin va chet el valutalari bilan bog'liq muammolarni bajarishdir.

Banklar pul qo'yuvchilarga ma'lum foiz to'lab, qarz oluvchilardan yuqoriroq foiz stavkasi undiradi. Ana shu foizlar o'rtasidagi farqdan bank foydasi hosil bo'ladi.

Bank so'zi dastlab Italiyada qo'llangan. Italyancha «banko» so'zi «skamya» (kursi) ma'nosini anglatib, bundan hozirgi «bank» so'zi kelib chiqqan. Hozirgi zamon bank tizimi birinchi marta 1587-yilda Vizantiyada tashkil etilgan bo'lib, u «Banko di Rialdo» deb nomlangan. U pul qabul qilgan va pul qo'yuvchiga ma'lum (aniq) so'm miqdorida chek yozib bergan.

Hozirgi kunda bank tizimi juda rivojlanmoqda. Banklarning faoliyati ham ko‘payib bormoqda. O‘zbekiston Markaziy banki va Tashqi iqtisod faoliyat milliy banki respublikadagi eng yirik banklardir.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Matndan foydalanib, bank so‘ziga ta’rif bering.
2. Matndan **-ni** va **-ning** qo‘shimchali so‘zlarni topib, o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan ko‘chirib yozing.
3. Nuqtalar o‘rniga zarur so‘zlarni qo‘yib, gaplarni to‘ldirib yozing:

   *Banklar pul ... ... ma’lum foiz to‘lab, ... yuqoriroq foiz stavkasi undiradi. Ana shu foizlar o‘rtasidagi farqdan ... hosil bo‘ladi.*

4. O‘zingiz biladigan banklar va ularning faoliyati haqida so‘zlab bering.

## *4-DARS:* O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

### O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni moddalarini yodda tuting!

**4-modda.** O‘zbekiston Respublikasida davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta’minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o‘qitish bepul amalga oshiriladi.

**5-modda.** O‘zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko‘rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa — ularning tillarida faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarini tashkil etish ta’minlanadi.

**6-modda.** O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tilllarda ham umumiy, hunar-texnika, o‘rta maxsus va oliy ma’lumot olishni ta’minlaydi.

**47-mashq.** Iqtisodiy-geografik ma'lumotnomani o'qing va topshiriqlarni bajaring.

## TOSHKENT VILOYATI




Toshkent viloyati respublikamizdagi aholi eng zich joylashgan hududdir. Bu yerda Chirchiq, Olmaliq, Angren, Ohangaron, Bekobod, Yangiyo'l, Yangiobod, Piskent, G'azalkent, To'ytepa, Chinoz shaharlari mavjud. Avvalgi vaqtlarda Toshkent viloyati hududida faqat qo'l mehnatiga asoslangan hunarmandchilik korxonalarigina bor edi. Aholi qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash, uy-ro'zg'or buyumlari tayyorlash bilangina shug'ullanar edi.

Hozir Toshkent viloyati respublika yalpi sanoat mahsulotining 44 % ini beradi. Sanoat mahsulotining 2/3 qismini og'ir sanoat korxonalari ishlab chiqaradi. Chirchiqdagi kimyo-farmatsevtika qo'shma korxonasi, Olmaliqdagi metallurgiya kombinati Toshkent viloyatida sanoatning turli yo'nalishlari rivojlanishiga olib keldi. Toshkent viloyatida, shuningdek, bog'dorchilik, sabzavotchilik juda rivojlangan bo'lib, ushbu mahsulotlardan konservalar tayyorlovchi yog', un zavodlari keng miqyosda rivojlanib bormoqda.

***Savol va topshiriqlar:***

1. Matnni davom ettiring.
2. Toshkent viloyati hududi qayerda joylashgan?
3. Viloyatda qanday shaharlar mavjud?
4. Viloyatning avvalgi va hozirgi ishlab chiqarish korxonalari haqida ma'lumot bering.
5. Internet ma'lumotlari va boshqa qo'shimcha manbalardan foydalanib, Toshkent viloyati sanoati haqida referat yozing.

## *IV bob.* MUSTAQILLIK — BUYUK NE'MAT
## *(ALOQA-MUNOSABAT SHAKLLARINING QO'LLANISHI)*

### *1-DARS:* MUQADDAS KUN

**Bilib oling!**

So'zlar orasidagi aloqa-munosabat kelishik shakllari orqali amalga oshiriladi. O'zbek tilida 6 ta kelishik mavjud bo'lib, ulardan 5 tasi maxsus qo'shimchalar bilan ifodalanadi. Bosh kelishikdan keyingi kelishik qaratqich kelishigi bo'lib, uning ko'rsatkichi ***-ning*** qo'shimchasidir. Ushbu kelishikda qo'llangan so'zlar qarashlilik ma'nosini bildiradi va **kimning? nimaning? qayerning?** so'roqlariga javob beradi. Qaratqich kelishigidagi so'zlar hamisha o'zi bog'langan so'zdan oldin keladi. Faqat she'riy asarlardagina ularning o'rni almashishi mumkin. Masalan: *O'zbekiston — Vatanim mening.*

*-ning* qo'shimchasi atoqli otlarga, olmoshlarga, egalik qo'shimchasi bor bo'lgan so'zlarga qo'shilganda, albatta, qo'llanadi, umumiylikni anglatgan turdosh otlarda esa tushib qoladi.

Qiyoslang:

| | | | |
|---|---|---|---|
| *A'zam* | | *daftar* | |
| *har kim* | *ning orzusi* | *kitob* | *varag'i* |
| *qadam* | | *jurnal* | |

Tushum kelishigining ko'rsatkichi ***-ni*** qo'shimchasi bo'lib, ushbu kelishik ot yoki olmoshlar va otlashgan so'zlarni fe'llar bilan bog'laydi va **kimni? nimani? qayerni?** so'roqlariga javob beradi. Qiyoslang: *Anvarning kitobi — kitobni o'qidim.*

Tushum kelishigi ham belgili-belgisiz qo'llanishi mumkin.

**Ushbu qo‘shimchalar va ularning qo‘llanishini yodda tuting!**

| | | |
|---|---|---|
| Bosh kelishik | Kim? | *Anvar kollejda o‘qiydi.* |
| – | Nima? | *Kitob — eng yaqin do‘stim.* |
| | Qayer? | *Toshkent — katta shahar.* |
| Qaratqich | Kimning? | *Lolaning daftari.* |
| kelishigi | Nimaning? | *Daftarning varag‘i.* |
| ***-ning*** | Qayerning? | *Samarqandning nomi.* |
| Tushum | Kimni? | *Azizni uchratdim.* |
| kelishigi | Nimani? | *Kasbingizni seving.* |
| ***-ni*** | Qayerni? | *Uyimni sog‘indim.* |

***48-mashq.*** Berilgan so‘zlar ishtirokida qaratqichli so‘z birikmalari tuzing.

Bozor, iqtisodiyot, mehnat, sarmoya, moliya, institut, buxgalteriya, hisob, mulk, ega, ijara, haq, kredit, fakultet, omonat, daftarcha.

***49-mashq.*** Maqollarning ma’nosini izohlang. Gaplardagi bosh, qaratqich va tushum kelishigidagi so‘zlarni aniqlab, ifodalanishi va bog‘lanishini tushuntiring.

1. Baxilni saxiyliging bilan uyaltir.
2. Yoshlik va sog‘liqning qadriga ular yo‘qotilgandan keyin yetiladi.
3. Bir kalima shirin so‘z qilichni qiniga kiritar.
4. Aql va mehnat insonni o‘stirib, balog‘atga yetkazadi.
5. Mehnat — tanga quvvat, kishiga shuhrat keltiradi.
6. Tirishqoqlik mehnatni yengillashtiradi.
7. Yaxshi so‘z temir darvozalarni ochtiradi.

***50-mashq.*** Nuqtalar o‘rniga zarur kelishik qo‘shimchalari yoki ko‘makchilarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Ko‘rgan... eshitgan yengibdi. 2. Yaxshi yaxshi... yondashtirar, yomon yo‘l... adashtirar. 3. Dadam mehribon odamlar ... suhbatlashish... zavqlanar edilar. 4. Omon maktub... xolasi... berib, ko‘chaga chiqib ketdi. 5. Rais odamlar ... xayrlashdi. 6. Gul... sevgan, tikan... ham sevadi. 7. Bolalar zargar... shogird tushganlar.

***51-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## MUSTAQILLIK KUNI

XX asrning oxirida Vatanimiz tarixida yangi davr boshlandi. 1991-yil 31-avgustda Respublika Oliy Kengashining navbatdagi sessiyasi mustaqil O‘zbekiston Respublikasi tashkil etilganini e’lon qildi.

1-sentabr — O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilandi. Xalqimizning asriy orzusi — o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi ro‘yobga chiqdi va siyosiy qaramlikdan qutuldi. Dunyo xaritasida yana bitta to‘la huquqli, suveren davlat — O‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari har yili 1-sentabrda o‘z yurtining Mustaqillik kunini tantanali ravishda nishonlaydilar.

**Topshiriqlar:**

1. Matnda qo‘llanilgan egalik va kelishik qo‘shimchali so‘zlarni yozing va qaysi so‘z bilan bog‘lanayotganiga e’tibor bering.
2. Nuqtalar o‘rniga avval kerakli so‘roqlarni, so‘ngra javob so‘zlarini qo‘yib ko‘chiring:

   *Respublikamiz ... mustaqillik bayrami keng nishonlanadi.*
   *O‘zbek xalqi Mustaqillik kun ... nishonlaydilar.*
   *Dunyo xaritasida ... davlat paydo bo‘ldi.*

3. Matndan foydalanib, quyidagi so‘zlarga belgi bildiruvchi so‘zlar qo‘yib yozing.

| | | | |
|---|---|---|---|
| ... <br> ... <br> ... | orzu(si) | ... <br> ... <br> ... | davlat |
| ... <br> ... <br> ... | huquqli | ... <br> ... <br> ... | fuqarolar(i) |

4. Matn mazmunini so‘zlab bering. BBB usulidan foydalanib, shu matn ustida ishlash orqali nimalarni bilib olganingizni aytib bering.

*20-topshiriq.* «Mustaqillik — buyuk ne’mat» mavzusida uy inshosi yozing.

## *2-DARS:* DAVLAT RAMZLARI

***52-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

### MUQADDAS BAYROQ



O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i 1991-yil 18-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashida tasdiqlangan. Bayroqdagi moviy rang — osmon va obihayot, oq rang — muqaddas tinchlik va poklik, yashil rang — tabiatning yangilanish ramzi bo‘lib, yashnab turgan hayot va hosildorlikni ifodalaydi. Qizil chiziqlar vujudimizda jo‘shib oqayotgan hayotiy qudratni bildiradi. Navqiron yarim oy — ayni paytda qo‘lga kiritilgan mustaqilligimiz, 12 yulduz — madaniyatimizning qadimiyligi, xalqimizning komillikka, o‘z tuprog‘ida saodatga intilish ramzidir. Davlatimiz bayrog‘i bizning o‘tmishimiz, bugungi kunimiz va kelajagimiz ramzidir.

**?** ***Savollarga javob bering:***

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i qachon qabul qilingan?
2. Bayroqdagi ranglar, oy va 12 yulduz tasviri nimani anglatadi?
3. Siz davlat bayrog‘ini ko‘targanmisiz?

***53-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

### TANTANALI QO‘SHIQ

Jahondagi har bir mustaqil davlat o‘z madhiyasiga ega bo‘ladi. Madhiya muayyan maqsadni ko‘zlab bitilgan she’r asosida yaratilgan tantanali qo‘shiqdir. Mamlakatlarda davlat madhiyalaridan tashqari jangovar (harbiy) madhiyalar, diniy madhiyalar ham bo‘ladi. Respublikamizda har kuni tongda televideniye va radio orqali madhiyamiz yangraydi. U, shuningdek, bayramlarda, mehmonlarni kutib olishda, tantanali yig‘ilishlarda ijro etiladi. Sport musobaqalarida g‘olib davlatlar madhiyasi chalinadi. Oliy va o‘rta ta’lim dargohlarida har kuni darslar davlat madhiyasini ijro etish bilan boshlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasida buyuk Vatanimiz — ozod, eli baxtiyorligi, tarixi buyuk, kelajagi porloqligi, shuhrati olamga taralgani kuylanadi. Zamini boyliklarga konligi, xalqi ilm-fan va ma’rifat bayroqdori ekanligi tarannum etiladi. Tinchliksevar elning asosiy boyligi uning istiqloli ekanligi madhiya mazmunining negizini tashkil qiladi.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi qachon qabul qilingan?
2. Madhiyaning matni kim tomonidan yozilgan?
3. Uning kuyini kim bastalagan?
4. Madhiyani yoddan yoki ifodali aytib bering.
5. Madhiyani audiotasma orqali eshiting va birgalikda ijro eting.
6. Madhiya matnidagi belgi bildiruvchi so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chirib yozing.

***54-mashq.*** Matnni o‘qing va rus tiliga tarjima qiling.

## TAMG‘A NIMA?

Tamg‘a insonlarning o‘zlari yaratgan narsani qaysidir yo‘l bilan ajratib ko‘rsatish maqsadida o‘ylab topilgan. U mulk egasida ham, yer egasida ham, hunarmandda ham bo‘ladi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida bu tamg‘aning ma’nosi va vazifasi kengayib, davlatlarning alohida belgisi mazmunini kasb etgan.

Bundan 2500 yil muqaddam Erondan Oltoyga qadar cho‘zilgan ulkan hududda hukm surgan O‘g‘uzxon davrida ham tamg‘a biron shaxs ixtiyoridagi yer-mulklarning alohida belgisi vazifasini bajargan.

«Tamg‘a» vazifasini hozir «gerb»lar bajarmoqda. «Gerb» nemischa «erbe» so‘zidan olingan bo‘lib, shohlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, hudud va nasldan naslga meros qoluvchi mulk belgisini anglatadi.

***55-mashq.*** Matnni o‘qing, savol va topshiriqlarni bajaring.

## DAVLAT TAMG‘ASI



O‘zbekiston Respublikasining davlat tamg‘asi 1992-yil 2-iyulda XII chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat tamg‘asi gullagan vodiy uzra charaqlab turgan quyosh tasviridan hamda o‘ng tomonida bug‘doy boshoqlari, so‘l tomonida ochilgan paxta chanoqlari surati tushirilgan chambardan iboratdir. Tamg‘aning yuqori qismida respublika jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan: sakkiz qirra ichida joylashgan yarim oy va yulduz musulmonlarning qutlug‘ ramzidir. Tamg‘a markazida qimmat, oliyjanoblik va fidoyilik timsoli bo‘lgan afsonaviy Humo qushi qanotlarini yoyib turibdi. Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, ezgulik, baxt-saodat, farovonlik yo‘lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi. Tamg‘aning pastki qismidagi Respublika Davlat bayrog‘ini ifodalovchi uch rangdagi chambar bandiga «O‘zbekiston» so‘zi bitilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat tamg‘asi uning boshqa ramzlari kabi muqaddas sanaladi.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Mustaqil davlatlarning qanday ramzlari bo‘lishi shart?
2. Nima uchun Davlat ramzlari muqaddas hisoblanadi?
3. O‘zbekistonning Davlat tamg‘asi qachon qabul qilingan?
4. O‘zbekistonning Davlat tamg‘asida nimalar tasvirlangan?
5. Afsonaviy Humo qushi nimaning timsoli hisoblanadi?
6. Narsa-buyumni tasvirlashda qo‘llangan so‘zlarni hajm-shakl, rang-tus, xususiyatni ifodalashiga ko‘ra guruhlab yozib chiqing.

## *3-DARS:* RESPUBLIKAMIZNING DAVLAT TILI

### O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni moddalarini yodda tuting!

**7-modda.** Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta’minlaydi, shu jumladan, unga hamma e’tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta’minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo‘mitasining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etiladi.

**8-modda.** O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e’lon qilinadi. Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi.

**9-modda.** Davlat hokimiyati va boshqaruv o‘rganlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta’minlanadi.

***56-mashq.*** Matnni o‘qing. Savollarga javob bering va topshiriqlarni bajaring.

## HAYOTBAXSH QONUN

1989-yil 19-oktabr kuni O‘zbekiston Oliy Kengashi sessiyasida o‘zbek tili davlat tili deb e’lon qilindi. Bir yarim asrlik qaramlikdan so‘ng ona tilimiz mamlakatimizda o‘zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo‘ldi.

Bu Vatanimiz tarixidagi buyuk voqea edi. Chunki buyuk ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy aytganlaridek, «Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oyinayi hayoti til va adabiyotidur.

Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur». 1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi va davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yildi.

Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan hamda qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi qonuni qachon qabul qilingan?
2. Nima uchun bu Vatanimiz tarixidagi buyuk voqea hisoblanadi?
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?

4. Matnda ajratib ko‘rsatilgan jumlalarni daftaringizga ko‘chirib yozing va mazmunini tushuntirib bering.
5. I.A. Karimovning «Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch» asarida davlat tili haqida bildirilgan fikrlarni diqqat bilan o‘qing va ma’nosini tushunib oling.

*21-topshiriq.* Til haqidagi maqollarni o‘qing va ma’nolarini izohlang.

1. Tilga ixtiyorsiz — elga e’tiborsiz.
2. Insonni til ayladi judo hayvondin,
   Bilki gavhari sharifroq yo‘q ondin.
3. Tiling bilan ko‘nglingni bir tut.
4. So‘zning turi juda ko‘pdir, lekin yolg‘ondan yomonroq turi yo‘qdir.
5. Izzat tilasang, kam de, sihat tilasang, kam ye.

## *4-DARS:* O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

***57-mashq.*** Iqtisodiy-geografik ma’lumotnomani o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

### QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI




Qoraqalpog‘iston Respublikasi 1932-yil 20-martda tashkil etilgan. Maydoni 165,6 ming kv. km., aholisi 904 ming kishi. Qoraqalpog‘istonda 14 ta ma’muriy tuman, 9 ta shaharcha bor. Poytaxti — Nukus shahri. Aholisining asosiy qismi qoraqalpoqlar, shuningdek, o‘zbeklar, qozoqlar, turkmanlar, ruslar, koreyslar, ukrainlar va boshqa xalqlar yashaydilar.

Qoraqalpoqlarning etnogenezi Sirdaryo va Orol bo‘ylarining delta va cho‘l viloyatlarida yashagan qabilalar bilan bog‘liq. Qoraqalpoqlarning aksariyat qismi XVII—XVIII asrning o‘rtalarida Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimlarida yashagan. Ular yarim ko‘chmanchi hayot kechirib, chorvachilik, dehqonchilik, baliqchilik bilan shug‘ullanganlar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiritilgandan so‘ng, u iqtisodiy jihatdan ancha rivojlandi. Biroq Orol dengizining qurishi oqibatida respublikada keyingi yillarda ekologik muammolar ko‘paydi. Ushbu muammolarni hal qilish bo‘yicha bir nechta xalqaro simpoziumlar o‘tkazildi.

***Savol va topshiriqlar:***

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi qachon tashkil etilgan?
2. Respublikada nechta shahar, nechta tuman bor?
3. Respublika aholisining soni qancha? Poytaxti qaysi shahar?
4. Qoraqalpoq xalqi qanday sohalar bilan shug‘ullangan?
6. Hozirgi kunda Qoraqalpog‘istonda qanday sanoat korxonalari bor?
7. Respublikada qanday ekologik muammolar mavjud va ularni bartaraf etish yuzasidan qanday ishlar qilinmoqda?
8. Internetdan foydalanib, Qoraqalpog‘iston haqidagi ma’lumotlarni to‘ldiring va ijodiy insho yozing.

## QIZIQARLI GRAMMATIKA

*22-topshiriq.* Ushbu boshqotirmani yeching.




**Eniga:**

1. Bir yoki bir necha tovarlarni qiymatiga ko‘ra, teng boshqa tovar bilan naqd pulsiz ayirboshlash.
2. Bank xabarnomasi.

3. Korxona va muassasalar mablag‘larining vujudga kelish manbalarini aks ettiradi hamda ularning qaysi guruhlarga taalluqliligini ifodalovchi hisobot balansining bir qismi.
4. Vositachi dallol.
5. Tenglik, teng munosabat, bir xil mavqe.

**Bo‘yiga:**

6. Muddatli bitim turi.
7. Moliya kredit muassasasi.
8. Firma, uning xizmatlari, rahbari va mollari haqida xaridorlarning tasavvuri.
9. Qarzga tovar yoki pul berish.
10. Kafolatchi kredit oluvchiga biror narsada kafolat beruvchi davlat, muassasa yoki shaxs.
11. Pul qo‘yuvchi, investorlashni amalga oshiruvchi shaxs, tashkilot yoki davlat.

***Adabiy o‘qish***

*Azim Suyun*

## KITOB, MENING DO‘STIMSAN!

Charaqlagan ko‘zlarim
Shuur olar kitobdan;
Ma’no topib so‘zlarim,
Baxtim kular kitobdan.
Shuning uchun deymanki:
Kitob, mening do‘stimsan!

Varaqlasam bir boshdan
Quvnab bag‘rim ochilar,
Oltin harf so‘zlardan
Totli ma’no sochilar.
Shuning uchun deymanki:
Kitob, mening do‘stimsan!

Har sahifang men uchun
Bir hikoyat so‘zlaydi:
— O‘qib, olim bo‘lgin,—deb
Yaxshi niyat ko‘zlaydi.
Shuning uchun deymanki:
Kitob, mening do‘stimsan!

Boldan shirin tiling-la
Kelajakdan kuylaysan,
Shunday chaman elimda
Zafarlardan so‘zlaysan.
Shuning uchun deymanki:
Kitob, mening do‘stimsan.

! **Topshiriq:**

1. Kitob o‘qishni yaxshi ko‘rasizmi? Kitobni qachon va qay tarzda o‘qiysiz?
2. Oxirgi o‘qigan kitobingiz haqida so‘zlab bering.

## *V bob.* **MILLIY QADRIYATLARIMIZ** *(ALOQA-MUNOSABAT SHAKLLARINING QO‘LLANISHI)*

### *1-DARS:* **URUG‘, SHAJARA, SULOLA**

**O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni moddalarini yodda tuting!**

**10-modda.** Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarining ko‘pchiligi o‘zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

**11-modda.** Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o‘sha joydagi ko‘pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so‘zlash huquqi ta’minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o‘rtasidagi xo‘jalik nizolarini ko‘rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo‘llaniladi. Xo‘jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko‘rib chiqilishi mumkin.

**Bilib oling!**

O‘zbek tilida jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishiklari harakat yo‘nalgan shaxs, predmet yoki joy, vaqtni ko‘rsatadi, shuning uchun o‘zbek tilida jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklari o‘rin kelishiklari deb ham ataladi. Bu qo‘shimchalar otlarni fe’lga bog‘laydi. Masalan: *o‘qishga kirmoq, o‘qishda bo‘lmoq, o‘qishdan kelmoq.*

Jo‘nalish kelishigi **-k** tovushi bilan tugagan so‘zlarga **-ka** shaklida, **-q** tovushi bilan tugagan so‘zlarga **-qa** shaklida, qolgan barcha hollarda esa **-ga** shaklida qo‘shiladi va shunday yoziladi.

**-ga** qo‘shimchasi rasmiy-kitobiy nutqda ***doir, oid, binoan, asosan*** ko‘makchilari bilan birga qo‘llanadi. Masalan: *masalaga oid, qarorga binoan.*

O‘rin-payt va chiqish kelishiklarining qo‘shimchalari **-da, -dan** og‘zaki nutqda **-ta, -tan** shaklida talaffuz qilinsa-da, yozma nutqda hamisha **-da, -dan** shaklida yoziladi.

**Ushbu konstruksiyalarni bilib oling!**

| | | |
|---|---|---|
| Jo‘nalish kelishigi | Kimga? | **Direktorga** ariza yozdim. |
| **-ga (-ka, -qa)** | Nimaga? | **Darsingizga** kechikmang. |
| | Qayerga? | **Qishloqqa** qaytdik. |
| | Qachon? | Mehmonlar **kechga yaqin** kelishdi. |
| O‘rin-payt kelishigi | Kimda? | Hisobotlar bosh **hisobchida**. |
| **-da** | Nimada? | Barchasi **hisob daftarchamda** bor. |
| | Qayerda? | **Bankda** ish qizg‘in. |
| | Qachon? | **Peshinda** ketamiz. |
| Chiqish kelishigi | Kimdan? | **Boshlig‘imdan** topshiriq oldim. |
| **-dan** | Nimadan? | **Hisobotdan** ko‘chirib yozing. |
| | Qayerdan? | **Asaka bankidan** to‘lov qog‘ozi keldi |
| | Qachondan? | **Keyingi yildan** xo‘jalik hisobiga o‘tiladi. |

***58-mashq.*** Nuqtalar o‘rniga mos kelishik qo‘shimchalarini qo‘yib maqollarni ko‘chiring. Har bir maqolning ma’nosini izohlang.

Oltin o‘t..., odam mehnat... bilinar. Katta... hurmat... bo‘l, kichik... izzat... bo‘l. Aql yosh... emas, bosh... . Mehnat... qo‘rqma, minnat... qo‘rq. O‘roq... yo‘q, mashoq... yo‘q, xirmon... hozir. Ko‘k... boqma, ko‘p... boq. Ko‘rpang... qarab oyoq uzat. Qolgan ish... qor yog‘ar. Do‘st bosh... kulfat tushgan... bilinadi. Ko‘rgan... eshitgan yengibdi.

***59-mashq.*** Matnni o‘qing. Turkiy xalqlardagi shevalar, urug‘lar, sulolalar haqida so‘zlab bering.

## URUG‘, SHAJARA, SULOLA

Qadimgilar o‘z shajara, urug‘, sulola, urug‘-avlodlarini yaxshi bilishgan. Turkiy xalqlar uch katta lahja bo‘yicha qorluq-chigil, qipchoq va o‘g‘uz urug‘lariga bo‘linadi. Dunyodagi barcha turkiy xalqlar mana shu uch bosh urug‘lardan tarqalib, so‘ng turli kichik urug‘ va shajaralarga bo‘linib ketadilar. Bizning nisbiy jihatdan o‘zbek xalqi deb atalib qolgan xalqimizning o‘zi yuzlab urug‘, elat, xalqlardan tarkib topgan bo‘lib, ming yillar davomida bir-biriga aralashib, ko‘pchilikning qoni qo‘shilib, bugungi avlodlar, siz va bizning avlodlarimiz paydo bo‘lib, shakllangan.

Hali ham ayrim turkiy xalqlarda urug‘ so‘rash odati saqlanib qolgan. O‘zbeklarda yaqin paytlargacha xo‘ja, said urug‘lari mavjud bo‘lgan. Ulardan kelib chiqqan eshonlar qorachalarga qiz bermaganlar. Hozir ham bu odat ba’zan ko‘zga tashlanib qoladi. Turkiy xalqlarda har kim o‘z shajarasini, hech bo‘lmasa 7 avlod-ajdodini bilishi shart deb hisoblanadi.

**!** **Topshiriq:**

Siz o‘z shajarangizni bilasizmi? Ajdodlaringizni yozib chiqing.

***60-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## SULOLALAR

O‘rta asrlarda hozirgi vatanimiz hududida qudratli sulolalar hukm surdi. Bular — Xorazmshohlar sulolasi, Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar sulolalaridir. Mo‘g‘ullar istibdodiga chek qo‘yilgach, Sohibqiron Amir Temur va uning avlodi — Temuriylar sulolasi hukm surgan.

XVI—XX asr boshlarida esa Movarounnahr hududida Shayboniyxonlar, Ashtarxoniylar, mang‘itlar sulolalari hukm surishdi. XVIII asrga kelib qadimda Turkiston nomi bilan atab kelingan ulkan hudud parchalanib ketib, uchta xonlik yuzaga kelgan. Bular Xorazm xonligi, Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligidir.

Shuni aytib o‘tish kerakki, o‘sha davrlarda yashagan ajdodlarimizga oson bo‘lmagan. Bosqinchilar galma-gal hujum qilgan, ularga tinch hayot kechirish imkonini berishmagan. Miloddan avval eron hukmdorlari — Kir, Doro, keyin Aleksandr Makedonskiy

(Iskandar Zulqarnayn ham deyishadi), VII—VIII asrlarda esa arablar bosqinchilik qilishgan. XIII asrning 20-yillarida Chingizxon va uning vorislari boshliq mo‘g‘ullar vatanimizni ishg‘ol qilishgan.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. O‘rta asrlarda Movarounnahrda qanday sulolalar hukmronlik qilgan?
2. O‘zbek xalqi hayotida katta iz qoldirgan sulola qaysi?
3. Temuriylar sulolasidagi tarixiy shaxslarni sanab bering.
4. Bobur va uning sulolasi haqida so‘zlab bering.
5. Har bir sulolani alohida ustun qilib, daftaringizga yozib chiqing.

***61-mashq.*** Matnlarni qaytadan o‘qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matnlardan jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishiklarining qo‘shimchalarini olgan so‘zlarni aniqlab, o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan birga ko‘chiring.

2. Qavs ichidagi so‘zlarga zarur aloqa-munosabat shaklini hamda nuqtalar orniga zarur so‘zlarni qo‘yib, gaplarni tugallang.

1. (O‘rta asrlar) hozirgi vatanimiz (hududi) qudratli sulolalar hukm surdi.

2. Mo‘g‘ullar (istibdodi) chek qo‘yilgach, XVI—XX asr (boshlari) Shayboniyxonlar, Ashtarxoniylar, mang‘itlar sulolalari hukm surishdi.

3. XVIII (asr) kelib, Movarounnahr (hududi) uch xonlik yuzaga kelgan.

4. O‘sha (davrlar) yashagan (ajdodlarimiz) oson bo‘lmagan.

5. Bosqinchilar galma-gal hujum qilgan, (ular) tinch hayot kechirish (imkoni) berishmagan.

6. (Milod) avval ..., (VII—VIII asrlar)..., XIII asrning (20-yillari) (vatanimiz) ishg‘ol qilishgan.

## *2-DARS:* «O‘ZBEK» ATAMASI TARIXI

***62-mashq.*** Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

### O‘ZBEK ADABIY TILINING ASOSCHISI

Alisher Navoiy jahon adabiyotida salmoqli o‘rin egallaydi. Uning juda ko‘p ilmiy, tarixiy asarlaridan tashqari, g‘azal va dostonlarining o‘zi bir necha yuz ming misrani tashkil qiladi.

Alisher Navoiy she'rlarini o'z ichiga olgan «Chor devon» 47 ming misradan iboratdir. Badiiy ijodning go'zal namunalarini to'plagan «Xamsa» asari 60 ming misraga yaqin she'rni o'z ichiga oladi. Navoiyning 6 mingga yaqin forscha g'azallari ham bor.

She'r va tafakkurning buyuk sohibqironi bo'lgan Alisher Navoiy o'zida tug'ilgan har bir fikrni she'r bilan ifoda qilar edi: Bu haqda uning o'zi ham:

Ko'nglimda ne ma'ni bo'lsa erdi paydo,
Til aylar edi nazm libosida ado,

deb yozgan Alisher Navoiygacha o'zbek va umuman turk xalqlari adabiyoti eron adabiyotining ta'siri ostida edi. Hamma shoirlar deyarli fors tilida yozar edilar. O'zbek tilida yozish ayb sanalar va o'zbek tilida yozilgan asarlarni saroy ahllari tan olmas edilar.

Alisher Navoiy shunday bir sharoitda «Muhokamat-ul lug'atayn» nomli mashhur asarini yozib, o'sha davrda «turk tili» deb atalgan qadimgi o'zbek tilining fors tilidan ham boy, rang-barang ekanini isbot qildi va o'z asarlarini o'zbek tilida bitdi. Shuning uchun Alisher Navoiyni o'zbek adabiy tilining asoschisi deymiz.

**?** ***Savollarga javob bering:***

1. Alisher Navoiy nima uchun o'zbek adabiy tilining asoschisi deb ataladi?
2. Alisher Navoiyning qaysi asari ayniqsa eng mashhur?
3. Siz u shoirning qaysi asarlarini o'qigansiz?
4. Navoiyning qanday aforizmlarini bilasiz?

**Alisher Navoiy hikmatlarini bilib oling va yodda tuting!**

Bilmaganin so'rab o'rgangan — olim,
Orlanib so'ramagan — o'ziga zolim.

* * *

Oz-oz o'rganib dono bo'lur,
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

* * *

Izzat tilasang, kam de,
Sihat tilasang, kam ye.

***63-mashq.*** Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering va topshiriqlarni bajaring.

## «O‘ZBEK» ATAMASI TARIXI

«O‘zbek» atamasi tarixda ilk bor XII asrda Rashididdinning «Mo‘g‘ullar tarixi» asarida atoqli ot ma’nosida tilga olinadi. O‘zbek degan so‘zning «o‘ziga bek», «otliq», «qo‘shin», «to‘g‘ri», «insofli», «saxiy», «diltortar» kabi ma’nolari mavjud. O‘zbeklarning mustaqil elat bo‘lib tanilishi XI—XII asrlarga borib taqaladi. Biroq bu elat o‘sha davrda «o‘zbek» deb nomlanmagan.

«O‘zbek» so‘zining millat atamasi shaklida keng qo‘llanishi XVI asrda Shayboniyxon boshchiligidagi qipchoq o‘zbeklarining O‘rta Osiyoga ommaviy ko‘chib kelishi bilan bog‘liqdir.

Shuning uchun ba’zi tilshunos olimlar «o‘zbek» so‘zining yuzaga kelishi XVI asrga to‘g‘ri keladi deb hisoblaydilar.

**Topshiriqlar:**

1. O‘zbek so‘zining ma’nolarini yozib chiqing.
2. O‘zbek xalqining kelib chiqishi haqida ma’lumot bering.
3. Matnda keltirilgan sonlarni harflar bilan yozing.
4. O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari haqida so‘zlab bering.

## *3-DARS:* MILLIY BOYLIKLARIMIZ

*23-topshiriq.* Suhbatni rolli o‘qing.

— Aziz, sen milliy boyliklar deganda nimani tushunasan?

— Har bir mamlakat hududida mavjud bo‘lgan yerosti va yerusti boyliklari, shuningdek, har bir xalqqa oid milliy yodgorliklar, obidalar milliy boyliklar hisoblanadi.

— O‘zbekistonda qanday yerusti boyliklari bor?

— Respublikamizning serhosil yerlari, u yerlarda yetishtiriladigan shirin-shakar mevalar, poliz, g‘alla mahsulotlari, paxta, pilla yerusti boyliklariga kiradi.

— Respublikamizda boqiladigan qo‘y-qo‘zi, echki-buzoq kabi mol-hollar hammi?

— Ha, respublikamizda boqiladigan mol-hollar ham yerusti boyliklarimiz hisoblanadi.

*64-mashq.* Matnni o‘qing va savollarga javob bering. Kelishik qo‘shimchali so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan ko‘chirib yozing.

O‘zbekiston yerosti konlari va metallarga boy. Respublikamiz oltin, kumush, uran, mis, qo‘rg‘oshin, ruh singari rangli metallar zahirasi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Hozirgi kunda O‘zbekiston hududida 30 dan ortiq rangli metallar koni bor. O‘zbekiston oltin ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Gaz, ko‘mir va neft mahsulotlarini eksport qilish bo‘yicha birinchi 10 ta davlat safidan o‘rin olgan.

? ***Savollarga javob bering:***

1. O‘zbekistonda qanday yerosti manbalari bor?
2. Oltin ishlab chiqarish bo‘yicha O‘zbekiston dunyoda nechanchi o‘rinda turadi?
3. Gaz, ko‘mir, neft mahsulotlari bo‘yicha-chi?
4. Jahonda nechta davlat mashinasozlik sanoatiga ega?
5. O‘zbekiston boyliklari haqida yana qanday ma’lumotlarni bilasiz?

*65-mashq.* Matnni o‘qing. Berilgan savol asosida matnni davom ettiring va topshiriqlarni bajaring.

## VATANIMIZNING YANGI DAVRI

Mustaqillik tufayli shu davrdan mamlakatimizda mustaqil demokratik davlatga asos solindi va vatanimiz tarixida yangi davr boshlandi. Biz jahondagi bozor munosabatlariga o‘ta boshladik va rivojlangan davlatlar qatoridan joy olish uchun astoydil harakat qilina boshlandi. Bu, eng avvalo, iqtisodiy ahvolni yaxshilashni talab etar edi. Bu yo‘ldagi ilk yutuqlarimizdan biri g‘alla mustaqilligini qo‘lga kiritganimiz bo‘ldi.

Oz fursatda serhosil yerlarimizda bug‘doy, sholi yetishtirishni keng yo‘lga qo‘yish, tomorqa xo‘jaliklarida mevalar yetishtirishni ko‘paytirish orqali biz bozorlarimiz to‘kinligiga erishdik. Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida tub islohotlar amalga oshirildi: fermerlik, kichik jamoa xo‘jaliklari barpo etildi. Keyingi qadam — sanoatni rivojlantirishga qaratildi.

Ayting-chi, o‘tgan 20 yil ichida bu sohada qanday ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi?

**!** **Topshiriqlar:**

1. Gaplarni davom ettiring:
   — *Bozor munosabatlariga o'tishdagi ilk yutuqlardan biri ...*
   — *Galdagi vazifalar ...*
2. Respublikamizda sanoatning qaysi turlari keng rivojlanmoqda?
3. Matndan kelishik qo'shimchali so'zlarni toping va quyidagi guruhlarga ajratib yozing:

a) *-ning* qo'shimchali birikmalar: ................................................
b) *-ni* qo'shimchali birikmalar:....................................................
d) *-ga* qo'shimchali birikmalar:....................................................
e) *-da* qo'shimchali birikmalar:....................................................
f) *-dan* qo'shimchali birikmalar:..................................................

*24-topshiriq.* Ilm haqidagi maqollarni o'qing va mazmunini izohlab bering.

- Beshikdan to qabrgacha ilm izla.
- Bilimli bir yashar, bilimsiz ming yashar.
- Bilgan bilganin ishlar, bilmagan barmog'in tishlar.

## *4-DARS:* O'TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

*25-topshiriq.* «BILASIZMI?» ruknidagi matnni o'qing va so'zlab bering.

### QALAM QAYERDA VA QAY TARZDA IXTIRO QILINGAN?

Kunlardan bir kun qadimgi ingliz grafligiga qarashli Kamberlendda dahshatli tabiiy ofat ro'y berdi. Kuchli yomg'ir quydi va kuchli bo'ron daraxtlarni tag-tomiri bilan qo'porib tashladi. Bo'ron to'xtab, yomg'ir tingach, katta daraxt tanasidan qolgan kovakdan qandaydir bir qora moddani topishdi. Bu grafit bo'lib, uning yordamida mahalliy aholi u-bu narsalarga belgi qo'yib yoza boshladilar.

Savdogarlar esa o'zlarining mol ortilgan savatlar va sandiqlariga u yordamida belgi qo'yib qo'yadigan bo'ldilar. Biroq bu birinchi «qalamchalar»da ikkita kamchilik bor edi. Ular tez sinar va qo'llarni qoraytirib qo'yar edi. Shuning uchun grafitni biror narsa bilan o'rab ishlata boshladilar. Buning uchun oltingugurt, surma kabi moddalardan foydalandilar.

Bu 1565-yilda yuz bergan edi. Qalamning hozirgi shakli esa XVIII asr oxirida ishlab chiqildi. Arzon, qulay qalamni hech narsaga: avtoruchkalarga ham, flomasterlarga ham almashib bo'lmaydi.

*(«Bolalar ensiklopediyasi»dan)*

***66-mashq.*** Iqtisodiy-geografik ma'lumotnomani o'qing va topshiriqlarni bajaring.

## JIZZAX VILOYATI




Jizzax viloyati 1973-yil 29-dekabrda tashkil etilgan. Respublikaning markaziy qismida joylashgan. Ma'muriy jihatdan 11 ta tumanga bo'linadi (Arnasoy, Baxmal, Do'stlik, Jizzax, Zomin, Mirzacho'l, Zafarobod, Paxtakor, Forish, Zarbdor, Yangiobod, G'allaorol). 6 shahar, 3 shaharcha mavjud (Qo'ytosh, Marjonbuloq, Yangiqishloq). Jizzax viloyatida 80 millat vakillari yashaydi: o'zbeklar (60 %), ruslar (15 %), tatarlar (7 %), qozoqlar (6 %), koreyslar (4 %), tojiklar (3 %), ukrainlar (2 %) va boshqalar.

Jizzax viloyati respublikadagi taraqqiy etib kelayotgan istiqbolli viloyatlardan biridir. Qishloq xo'jaligida paxtachilik va chorvachilik, sanoatida paxta tozalash sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish salmoqli o'rin tutadi.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Jizzax viloyati qachon tashkil etilgan?
2. Viloyat nechta tumanga bo'linadi?
3. Viloyatda nechta millat vakillari yashaydi?
4. Viloyat ishlab chiqarishida nimalar salmoqli o'rin tutadi?
5. Qishloq xo'jaligida-chi?
6. Qo'shimcha adabiyotlar va Internet ma'lumotlaridan foydalanib, Jizzax viloyati haqida referat tayyorlang.

***Adabiy o‘qish***

## NOAHILLIK OQIBATI

*(Sharq ertagi)*

Bir ovchi o‘rmonga to‘r qo‘yib, qarg‘a, chug‘urchuq, kaptar va boshqa har xil qushlarni ilintirib oldi. To‘rga tushgan qushlar hadeb bir-birlariga:

— Sochilgan donga aldanib qo‘lga tushdik. Endi qanday qilib qutulish yo‘lini o‘ylaylik, — der edilar. Qushlar o‘zaro tillashib:

— Kelinglar, hammamiz baravar qanot qoqib uchib ko‘raylik. Ehtimol, to‘rni ko‘tarib ketarmiz, — deyishdi.

Darhaqiqat, qushlar baravariga qanot qoqib, to‘rni ko‘tarib uchib ketdilar. Ovchi qarasa, qushlar to‘rni ko‘tarib uchib ketish-yapti. U hayratda qolib, orqalaridan quvib ketibdi. Ovchi chopib ketayotib: «To‘rga tushgan qushlar har xil-ku! Ular, albatta, janjallashib qoladilar. Janjanlashdilarmi — tez ucha olmaydilar, to‘r ularni pastga tortadi» deb o‘ylabdi. Xuddi shunday bo‘libdi ham.

Qarg‘alar qag‘illashib:

— Hech kim bizdek harakat qilmayotir! Agar biz ham sizlar singari mug‘ambirlik qilsak, to‘r allaqachon hammamizni yerga olib tushgan bo‘lar edi, — deyishdi.

Qarg‘alarning so‘zini eshitgan kaptarlarning jahli chiqdi.

— Bas endi, qarg‘alar! Maqtanchoqlikni qo‘yinglar! Biz sizlardan ortiq harakat qilyapmiz! — debdilar.

Janjalga boshqa qushlar ham aralashibdilar. Do‘stlik buzilgach, ish yaxshi yurishmabdi. Qushlar janjallashganlari uchun arang qanot qoqardilar. Shunday qilib ular pastlay boshlabdilar va oxir-oqibatda to‘rga o‘ralib yerga qaytib tushibdirlar.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Ayting-chi, qushlar o‘rtasidagi janjalning oqibati nimaga olib keldi?
2. Insonlar hayotida ham ahillik va do‘stlikning qudratini nimalarda ko‘rish mumkin?
3. «Bir kun janjal bo‘lgan uydan qirq kun baraka ketadi» deyilgan maqolning ma’nosini misollar bilan tushuntirib bering.

## *VI bob.* **TA'RIF VA TAVSIF**
## *(BELGI-XUSUSIYATNI IFODALASH)*

### ***1-DARS:*** **BIZ — XXI ASR YOSHLARIMIZ**

**Bilib oling!**

O'zbek tilida shaxs, kasb, narsaning belgi-xususiyatini ifodalash uchun ulardan oldin «qanday?», «qanaqa?», «qaysi?» so'roqlariga javob beradigan so'zlar qo'llanadi. Ushbu so'zlar sifatlovchilar deb ataladi va hamisha otdan oldin keladi. Ular quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

| | | |
|---|---|---|
| sifat | shirin | olma |
| sifatdosh | pishgan | olma |
| son | bitta | olma |
| olmosh | mana bu | olma |
| ot (bosh kelishik shaklida) | oltin | olma |
| taqlid so'zlar | g'uj-g'uj | olma |

*Sifatlovchi + ot* konstruksiyasi sifatlovchili birikma deb ataladi. Bu konstruksiyada so'zlarning o'rni almashsa, so'z birikmasi gapga aylanadi. *Qiyoslang: shirin olma* (sifatlovchili birikma) — *Olma shirin* (gap, ega-kesim).

***67-mashq.*** Quyidagi so'zlarni o'zaro bog'lab, so'z birikmalari tuzing. Ushbu so'z birikmalarining qanday savolga javob berishiga e'tibor bering.

| *Qanday? (Qanaqa?)* | *Kim? (Nima?)* |
|---|---|
| ilg'or | o'qituvchi |
| sharafli | kasb |
| mohir | quruvchi |
| a'lochi | o'quvchi |
| katta | xonadon |
| baxtli | bolalik |

| | |
|---|---|
| mustaqil | hayot |
| tadbirkor | inson |
| tirishqoq | xodim |

***68-mashq.*** Quyidagi berilgan sifatlarga mos otlar topib, namunadagidek so‘z birikmasini tuzing.

*Namuna:* Fidoyi farzand.

Tarixiy ..., ijtimoiy ..., nufuzli ..., xalqaro ..., ilg‘or ..., umumiy ..., ko‘hna ..., ustuvor ..., oliyjanob ..., bag‘ri keng ..., muqaddas ..., ezgu ... .

***69-mashq.*** Jadvalda berilgan belgi-xususiyatlarning turlaridan foydalanib, berilgan paronimlarni belgi-xususiyat turiga ko‘ra ajratib yozing.

| | | |
|---|---|---|
| xarom — xaram | quruq — qo‘riq | yaroqsiz — yarog‘siz |
| ertangi — ertaki | chirik — churik | halol — xalal |
| sodda — soda | kuzgi — ko‘zgu | ijodiy — ijobiy |
| ziyrak — zirak | yorug‘ — yoriq | buyuk — bo‘yoq |
| anqov — anqo | oriq — ariq | azim — azm |

***70-mashq.*** Berilgan otlardan belgining borligi yoki yo‘qligini bildiradigan belgi-xususiyat bildiruvchi so‘zlar yasang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Namuna:* Aql — aqlli. Aqlli odam vaqtdan unumli foydalanadi. Aqlsiz odam vaqtni bekor ketkazadi.

Kuch, davlat, obro‘, ovoz, gul, bilim, pul, iqtidor, tadbir.

***71-mashq.*** Gaplarni o‘qing. Xususiyat bildiruvchi sifatlarni aniqlab, o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chirib yozing.

1. Mehnatsevar, hayratchan, tashabbuskor va tavakkal qilishni biladigan inson tadbirkor bo‘la oladi. 2. Iqtisod sohasida serharakat kishilar hamisha omadli bo‘ladilar. 3. Firmaning mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflagan xarajatlari umumiy xarajatlar deb yuritiladi. 4. Ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq bo‘lgan xarajatlar o‘zgarmas xarajatlar deyiladi. 5. Tabiatda tayyor yemak, kiyim-

kechak, uy-joy bo‘lmaydi, ularning barchasi mashaqqatli mehnat bilan yaratiladi. 6. Iqtisodiyot fani — odamlarning iqtisodiy ne’matlarni yaratish jarayonidagi faoliyatini o‘rganadigan fan.

***72-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## TADBIRKOR VA TADBIRKORLIK NIMA?

Tadbirkor so‘zining o‘z tarixi bor. Ilgari podshohlar saroyida «dabirkor» lavozimi bo‘lgan. Dabirkorlar yuksak izzat-ehtiromda bo‘lishgan. Ularning vazifasi davlat ishlariga doir hujjatlarni yozish, eng nozik va qaltis ishlarni hal qilishda shohlarga maslahat berish bo‘lgan. Shundan bo‘lsa kerak, har qanday vaziyatda to‘g‘ri, eng yaxshi yechim topadigan uddaburon odamlarni tadbirkor deyishadi.

«Kor» tojik tilida ish degan ma’noni bildiradi. Demak, tadbirkor ishning ko‘zini biladigan kishi. Qayerda katta-kichik muammo bo‘lsa, tez va soz yechim topish kerak bo‘lsa, o‘sha yerda tadbirkorlik kerak bo‘ladi. Tadbirkor kishilar qarovsiz joylarni obod qiladilar, o‘zlariga ham, xalqqa ham foyda keltiradilar. Shuning uchun respublikamizda tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Hukumatimiz tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha bir qator qonunlar, qarorlar qabul qilinmoqda.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Matndan foydalanib, tadbirkor so‘ziga ta’rif bering.
2. Tadbirkorlikka qaratilgan qanday qonun va qarorlarni bilasiz?
3. Qavsdagi so‘zlar o‘rniga tadbirkor va tadbirkorlik so‘zlaridan mosini qo‘yib ko‘chiring:

*(Предприниматель)* ishning ko‘zini biladigan kishidir. Qayerda muammo bo‘lsa, *(предпринимательство)* yordam beradi. *(Предприниматель)* qarovsiz joylarni obod qiladilar, o‘zlariga ham, xalqqa ham foyda keltiradilar. Shuning uchun respublikamizda *(предпринимательство)* rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Hukumatimiz tomonidan *(предпринимательство)* rivojlantirish bo‘yicha bir qator qonunlar, qarorlar qabul qilinmoqda.

4. O‘zingiz taniydigan tadbirkor kishilar va ularning kasblari haqida so‘zlab bering.

**Ushbu faol so‘zlar va so‘z birikmalarini eslab qoling!**

| | |
|---|---|
| izzat-ehtirom | davlat ishlari |
| hujjatlarni yozish | maslahat berish |
| nozik masalalar | qaltis ishlar |
| uddaburon kishilar | katta-kichik muammolar |
| tez va soz yechim | ishning ko‘zini biladigan |
| qarovsiz joylar | foyda keltirmoq |

## *2-DARS:* AJDODLARIMIZ IBRATI

**Belgi-xususiyat turlari**

| | |
|---|---|
| Xususiyat: *yaxshi, so‘zamol* | Hajm-o‘lchov: *chuqur, katta* |
| Rang-tus: *kulrang, sariq* | Shakl-ko‘rinish: *yapaloq, tekis* |
| O‘rin-payt: *uydagi, yozgi* | Maza-ta’m: *nordon, shirin* |
| Hid: *xushbo‘y, sassiq* | Vazn-og‘irlik: *yengil, vazmin* |

***73-mashq.*** Berilgan sifatlar ishtirokida so‘z birikmalari va yig‘iq gaplar tuzib, namunadagidek 2 ustunga bo‘lib yozing.

*Namuna:* murakkab topshiriq – topshiriq murakkab

Hosildor, sahiy, foydali, ulkan, serdaromad, manfaatli, tiniq, mashhur, ko‘rimsiz.

*26-topshiriq.* Atrofingizdan biror obyektni tanlang va ularni mos belgi-xususiyatlari asosida ta’riflang.

*74-mashq.* Berilgan so'z birikmalarini o'zbek tiliga tarjima qiling va avval sifatlovchi birikmalarni, so'ngra qaratqichli birikmalarni daftaringizga ko'chiring. Rus va o'zbek tillarida ularning ifodalanishini tushuntiring.

Национальное богатство, оплата аренды, важный проект, главный специалист, акционерное общество, выгодная сделка, качество товара, общество предпринимателей, крупный вклад, вопросы экономики, главный бухгалтер, свободная конкуренция, недвижимое имущество, наш вклад.

*27-topshiriq.* Ushbu suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing.

## KURSDOSHLAR SUHBATI

*Diyora:* — Salom, Aziz, qalaysan?

*Aziz:* — Yomon emas. O'zing yaxshimisan?

*Diyora:* — Rahmat. O'zbek tilidan berilgan vazifalarni bajardingmi?

*Aziz:* — Ibn Sino haqidagi matnni aytyapsanmi? Albatta, o'qidim. Menga Sharq allomalari juda yoqadi.

*Diyora:* — Men allomalar so'zining ma'nosiga unchalik tushunmadim. Kimlarni allomalar deb atash mumkin?

*Aziz:* — Allomalar har biri o'z maktabini yaratgan buyuk olimlardir. Masalan, Abu Ali ibn Sino tibbiyot fanining bilimdoni, Mirzo Ulug'bek yulduzlar ilmining asoschilaridan biri, Abu Nasr Forobiy mashhur mantiqshunos olim, Abu Rayhon Beruniy tarixchi olim, Muhammad Muso al-Xorazmiy matematik olim, Ahmad al-Farg'oniy matematik va tabiatshunos olim bo'lgan. Ular jahon ilm-fanini rivojlantirishga beqiyos hissa qo'shgan olimlardir.

*Diyora:* — Tushunarli.

*Aziz:* — Bilasanmi, qachonlardir raqamlar «algorism» deb yuritilgan va bu IX asrda yashagan al-Xorazmiy nomi bilan bog'liq ekan. Hozirgi o'nlik raqamlar olimning «Al-Jabr va fil-muqobala» kitobi orqali dastlab hindlarga, so'ng arablarga, ulardan esa g'arbliklarga o'tgan. Hozir bu raqamlar butun dunyoda ishlatiladi. Ibn Sinoning «Al-Qonun» asarida juda ko'p kasalliklarning paydo bo'lish sabablari, ularning alomatlari, shuningdek, 790 dan ziyod dori-darmonlar ro'yxati keltirilgan ekan.

*Diyora:* — Rostdanmi, to‘g‘risini aytsam, men bular haqida endi eshityapman.

*Aziz:* — Men o‘zbek tili darslari orqali Sharq ilm-fani va madaniyati haqida juda ko‘p ma’lumotlarni bilib olyapman.

*Diyora:* — Menga ham bularni bilish juda qiziq.

***75-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## QOMUSIY OLIMLAR

Ming yillar ilgari madaniyat-maorif markazi qadimgi Yunoniston bo‘lib, buyuk faylasuflar Aristotel, Ptolemey, Arximedlar olam haqidagi falsafiy asoslarni yaratganlar. Aristotelning «Metafizika», Gippokrat va Galenlarning tibbiyotga oid asarlari avloddan avlodga yetkazilgan. Ularning qarashlari sharq falsafasi bilan birlashgan va yanada yuqori ko‘tarilgan. Jumladan, rim raqamlari sharqda Abu Rayhon Beruniy va al-Xorazmiylar tomonidan takomillashtirilgan. 0 — nol belgisi va o‘nlik raqamlar buyuk Abu Rayhon Beruniy tomonidan kiritilgan, 1 raqami esa IX asrda yashagan al-Xorazmiy nomi bilan «algorism» deb yuritilgan. Demak, matematika fanining asosi — algebra al-Xorazmiy nomi bilan atalishi ham bejiz emas.

G‘arbda Avitsenna nomi bilan mashhur bo‘gan Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» asari butun dunyo meditsina fanining asosi sifatida butun dunyoda tan olinganligi ham barchaga ma’lum. Ushbu asarda ko‘p kasalliklarning paydo bo‘lish sabablari, alomatlari, shuningdek, 790 dan ziyod dori-darmonlar ro‘yxati keltirilgan. X asrda yashagan al-Ma’sudiy geografiya, biologiya va boshqa fanlar bo‘yicha buyuk asarlar yaratgan, Darvindan 900 yil avval evolutsiya nazariyasini ilgari surgan buyuk alloma edi.

**! Topshiriqlar:**

1. «Qomusiy olimlar» deganda nimani tushunasiz?
2. Matnda nomlari tilga olingan allomalar haqida so‘zlab bering.
3. Matnda berilgan ma’lumotlardan foydalanib, dunyo kashfiyotlarini «Kim, qachon, nimani yaratgan?» xronologik tartibida yozib chiqing.
4. O‘rta osiyolik buyuk olimlar haqida yana nimalarni bilasiz? Shu haqda so‘zlab bering.

Biz tanlab olgan taraqqiyot yo'li konstitutsion asosga ega. Bu yo'l O'zbekistondagi barcha aholi manfaatlariga har jihatdan mos tushadi. Bizning maqsadimiz ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir. Buning uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak:

Birinchidan, iqtisodiyotni mafkuradan batamom xoli qilish. Iqtisodiyot siyosatdan ustun turmog'i, uning ichki mazmunini tashkil qilmog'i lozim. Aynan iqtisodiyot, uni yanada rivojlantirish muammolari hozirgi siyosatimizning asosiy mazmunidir.

Ikkinchidan, murakkab o'tish davrida davlatning o'zi bosh islohotchi bo'lishi zarur. Davlat butun xalqning manfaatlarini ko'zlab, islohotlar jarayonining tashabbuskori bo'lishi, iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi yo'nalishlarini belgilashi, ijtimoiy sohada va suveren davlatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlarni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqarishi va izchil ro'yobga chiqarishi kerak.

Uchinchidan, butun yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanmog'i zarur. Iqtisodiy o'zgarishlar sinalgan, amaliy kuchga ega bo'lgan qonunlarga tayangandagina bu o'zgarishlar sezilarli natijalar berishi muqarrar bo'lishi mumkin.

To'rtinchidan, demografiya sohasida real ahvolni, aholining mavjud turmush darajasini hisobga olgan holda bozor munosabatlariga o'tish bilan bir qatorda, odamlarni ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni oldindan amalga oshirish kerak.

Nihoyat, beshinchidan, yangi iqtisodiy, bozor munosabatlarini puxta o'ylab, bosqichma-bosqich qaror toptirish lozim.

**!** **Topshiriqlar:**

1. Matndagi sanoq va tartib sonlarning vazifasini ko'rsating.
2. Har bir xatboshidagi asosiy fikrni qisqa ifodalangan holda matnni ixchamlashtirib yozing.
3. Har bir tamoyilni sharhlang va qisqa tezisini tuzing.
4. Matnga mos sarlavha qo'ying.
5. «Iqtisodiyotni siyosatdan ustun qo'yish» deganda nimani tushunasiz? O'z fikringizni bayon eting.

## *3-DARS:* O'ZBEKISTONNING MILLIY VALUTASI

**Bilib oling!**

Miqdorni ifodalashda ravishlardan ham foydalaniladi. Biroq ravishlar songa qaraganda umumiy, noaniq miqdorni bildiradi. Qiyoslang: *o'nta — ko'p, ikkita — kam, oz.* Miqdor bildiruvchi ravishlar ham daraja shakllariga ega bo'la oladi. Bunday ravishlar *«qancha?», «necha?», «qay darajada?»* so'roqlariga javob beradi va *marta, barobar* kabi so'zlar bilan ifodalanadi. Darajamiqdor ma'nosi qo'shma gaplar vositasida ifodalanishi ham mumkin. Daraja-miqdor ma'nosini ifodalovchi qo'shma gaplar fe'llarning **-sa** shart mayli qo'shimchasi bilan bog'lanib keladi. Bunday gaplarning birinchi qismida *qancha, qanchalik* so'zlari, ikkinchi qismida esa *shuncha, shunchalik* so'zlari qo'llanib keladi. Masalan: *Qancha ko'p o'qisang, shuncha ko'p bilasan.*

***98-mashq.*** Birikmalar o'rniga qo'yilishi mumkin bo'lgan so'zlarni bilib oling.

Bir talay pul, bir gala chumchuq, bir qancha odamlar — ko'p.
Bir chimdim choy, bir choy qoshiq tuz, bir og'iz so'z, bir daqiqa vaqt — oz.

***99-mashq.*** Berilgan miqdor bildiruvchi so'zlarni turli daraja shakllarida ifodalang va ulardan biri ishtirokida gaplar tuzing.

*Namuna:* oz — ozroq — ozgina — juda oz. Menga ozgina shakar bering.

Ko'p, kam, mo'l, serob, picha, jindek.

***100-mashq.*** Matnni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

### TURKISTONDA PULNING JORIY ETILISHI

Sharqda, xususan, Turkiston mintaqasida pul muomalasining joriy etilishi qadimiy tarixga ega. Qadimgi davrning mashhur tarixchisi Gerodot: «Bilishimcha, eng birinchi bo'lib lidiyaliklar tanga zarb etishgan hamda oltin va kumush tangalarni muomalaga

kiritishgan», degan bo'lsa-da, biroq Turkiston hududida miloddan ilgarigi bir minginchi yillaridayoq yombilar (oltin va kumush quymalar) muomala vositasida qo'llangani aniq. Ular tangalar kabi o'zlarining hajmi va turiga ko'ra farqlangani ma'lum. Demak, pul muomalasi ilk bor Turkiston mintaqasida paydo bo'lgan, so'ng boshqa o'lkalarga yoyilgan.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Pul muammosining kelib chiqishi haqida so'zlab bering.
2. Turkiston mintaqasida pullar qanday atalgan?
3. Matndagi sonlarning ma'nolarini izohlang.

***101-mashq.*** Gaplardagi miqdor ravishlarni shunga mos raqamlar va hisob bildiruvchi so'zlar bilan almashtiring.

1. Birozdan so'ng tomosha boshlanadi. 2. Ko'chaga ko'p odamlar yig'ilgan edi. 3. Choynakni qaynagan suv bilan chayib tashlab, ozroq choy soldi. 4. Sizda ozroq gapim bor edi. 5. Dadam oyimga ko'p pul berdilar. 6. Shirguruch pishishiga yaqin ozgina tuz solasiz. 7. Tomoshaga anchagina odam yig'ildi. 8. Oz-ozdan yig'ilib daryo bo'lur, qatra-qatra yig'ilib irmoq bo'lur.

***102-mashq.*** Matnni o'qing. Valutaga berilgan ta'rifga yana nimalarni qo'shish mumkin?

## MILLIY VALUTA

Barcha davrlarda, barcha jamiyatlarda va davlatlarda o'z ayirboshlash vositasi bo'ladi. Dastlab mol, tovar ayirboshlash vositasi bo'lgan, keyinchalik qimmatbaho toshlar, metallar shunday vosita sifatida xizmat qilgan. Bora-bora oltin qat'iy o'zaro ayirboshlash vositasiga aylangan. XIX asrga kelib, to'lov hujjati sifatida qog'oz valuta va qog'oz pul paydo bo'lgan.

Istiqloldan so'ng O'zbekiston Respublikasi ham o'z milliy valutasiga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining milliy valutasi so'mdir. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining nominali 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100, 200, 500, 1000 so'm bo'lgan qog'oz puli hamda nominali 1, 3, 5, 10, 20, 50 tiyin, 1, 5, 10, 25, 50, 100 so'm bo'lgan tangasi sifatida muomalada yuradi.

**Topshiriq:**

Xalqaro va milliy valutalar haqida bilganlaringizni so'zlab bering.

*32—33-topshiriqlar.* Suhbat matnini rollarga bo'linib o'qing. Miqdor bildiruvchi so'zlarning ma'nolari va qo'llanishiga e'tibor bering.

— Assalomu alaykum.
— Vaalaykum assalom.
— Kechirasiz, soat necha bo'lganini aytib bera olmaysizmi?
— Soat 8 dan 10 daqiqa o'tdi.
— Siz ham Markaziy bankda ishlaysizmi?
— Yo'q, men «Xalq banki»da ishlayman.
— Sizlarda ham ish soat 9 da boshlanadimi?
— Ha.
— Kech qolmasmikanmiz?
— Yo'q, vaqtida yetib boraman. Ozgina qoldi, yana 4 bekatdan keyin tushaman.
— Bizning bankimiz uzoqroq. Men biroz kechikaman, shekilli.

***103-mashq.*** Berilgan matnni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

## O'ZBEK SO'MI

1994-yil 1-iyuldan O'zbekiston Respublikasi hududida to'la qiymatli milliy valuta — yagona qonuniy to'lov vositasi bo'lgan so'mning muomalaga kiritilishi, haqiqatan ham, yangi iqtisodiy qadam bo'ldi. Bugungi eng muhim vazifa valutamizni baquvvat, dunyoda obro'li valutaga aylantirishdir. So'mning barqarorligini ta'minlash va qadrini oshirish — umummilliy vazifa bo'lib, bunga erishmoq uchun to'rtta alohida dastur to'plamini ishlab chiqdik va amalga oshirmoqdamiz.

Birinchidan, o'z valutamiz tovar bilan barqaror ta'minlangan taqdirdagina real kuch va obro'ga ega bo'ladi. So'mning xarid quvvatini oshirish uchun respublika bozorini mumkin qadar tezroq iste'mol mollari bilan to'ldirish zarur.

Ikkinchidan, valutaning barqaror amal qilishi uchun, uning muhimligi, erkin almashuvi yetarli valuta zahirasi bo'lishiga bog'liq. Bizning valutamiz har qanday barqaror valutaga erkin almashina oladigan bo'lsagina, u tan olingan va hurmat qozongan valutaga aylanadi.

Uchinchidan, har bir korxona, har bir kishi ishlab topgan so‘mini qadrlashni o‘rgangan taqdirdagina milliy valuta real to‘lov vositasiga aylanadi. Biz milliy valutani hurmat qilishni, u bilan faxrlanishni, uni ehtiyot qilishni o‘rganib olishimiz darkor. Valuta — har bir fuqaro mehnatining o‘lchovi va bahosidir.

To‘rtinchidan, milliy valutani mustahkamlashning eng muhim sharti inflatsiyaga qarshi baquvvat, puxta o‘ylangan siyosat o‘tkazishdir. Inflatsiya darajasini keskin kamaytirishgina milliy valutani barqaror valutaga aylantira olishi mumkin. Bu yosh valutamiz quvvati va yashovchan bo‘lishining garovidir.

**! Topshiriqlar:**

1. Matn ma’nosini qisqacha so‘zlab bering.
2. Matnda ajratib ko‘rsatilgan birikmalarni ko‘chirib yozing va ma’nolarini izohlang.
3. «1994-yil 1-iyul» birikmasining lotin va kirilldagi yozilishi qoidalaridagi farqlarni tushuntiring.
4. Matndagi asosiy axborotni va qo‘shimcha axborotni bildiruvchi abzaslarni aniqlang.
5. Matndagi *birinchidan, ikkinchidan* so‘zlari qanday ma’noni ifodalayapti?
6. O‘zbekistonda bozor iqtisodi qanday yo‘l bilan amalga oshirilmoqda?

**Ushbu iqtisodiy atamalarning ma’nosini bilib oling!**

ochiq hisob — открытый счёт
shaxsiy hisob — лицевой счёт
umumiy hisob — текущий счёт
hisobga olish — взять на учёт
hisobchi — счетовод
hisobchilik — счетоводство
hisobdorlik — подотчётность

## *4-DARS:* O‘ZBEKISTON MARKAZIY BANKI

**O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni moddalarini yodda tuting!**

**14-modda.** O‘zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta’minlanadi.

**15-modda.** O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o‘z millatidan qat’i nazar, o‘z ismini va ismi va familiyasini milliy-tarixiy an’analarga muvofiq yozish huquqiga egadir.

**Bilib oling!**

Vaqtni bildirishda miqdor bildiruvchi *soat, daqiqa* so‘zlari bilan birga ishlatiladi. Og‘zaki nutqda ko‘pincha daqiqa (minut) so‘zi tushib qolishi ham mumkin. Qiyoslang: *Soat 10 daqiqasi kam yetti — Soat 10 ta kam yetti. Soat 10 dan 15 daqiqa o‘tdi — Soat 10 dan 15 ta o‘tdi.*

*34-topshiriq.* Suhbat matnini o‘qing. Vaqt ma’nosini ifodalovchi so‘zlarning qo‘llanishiga e’tibor bering.

— Assalomu alaykum.
— Vaalaykum assalom.
— Kechirasiz, Toshkentga birinchi kelishim. Markaziy bank binosi qayerda joylashganligini aytib bera olmaysizmi?
— Markaziy bank binosi Alisher Navoiy nomidagi teatr yonida joylashgan.
— U yerga qanday borsa bo‘ladi?
— U yerga borish uchun ro‘paradagi bekatdan 1-, 24-, 51-avtobuslardan biriga o‘tirib, Alisher Navoiy nomidagi teatr bekatida tushasiz. Bank shu teatrning yonida.
— Rahmat. Soat necha bo‘lganini ham aytib bera olmaysizmi? Soat 10 ga yetib borishim kerak edi. Ulgura olarmikanman?
— Soat 9 dan 15 daqiqa o‘tdi. 10 gacha 45 daqiqa bor. Bemalol ulgurasiz.
— Sizga katta rahmat.
— Yaxshi boring.

***104-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## MARKAZIY BANK

O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki Toshkent shahrining markazida joylashgan. Markaziy bank davlat pul-kredit siyosatini amalga oshiradi; pul va qimmatli qog‘ozlar ishlab chiqarishni amalga oshiradi.

Markaziy bank — o‘z sarf-xarajatlarini o‘zining daromadlari hisobidan amalga oshiruvchi, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasadir.

Markaziy bankning mol-mulki uning pul va boshqa moddiy boyliklaridan iborat bo‘lib, ularning qiymati Markaziy bank balansida aks ettiriladi.



Mamlakat bank tizimi oldiga rivojlangan davlatlar banklarining boy tajribalaridan foydalanib, jahon banklari bilan aloqalar o‘rnatish va jahon bozoriga erkin chiqish vazifasi yuklatilgan.

Bu vazifani ikki tabaqa asosida amalga oshirish tadbiri belgilangan. Birinchi tabaqa Respublika Markaziy banki, ikkinchi tabaqa esa tijorat, aksiyadorlik, xususiy banklardan tashkil topadi.

? ***Savollarga javob bering:***

1. Bank qanday muassasa?
2. O‘zbekiston Markaziy banki qayerda joylashgan?
3. O‘zbekiston Markaziy banki qanday vazifani bajaradi?
4. Markaziy bank bilan tijorat, aksiyadorlik, xususiy banklar o‘rtasida qanday farq bor?
5. Siz qanday banklarni bilasiz? Ularning joylashgan joyi, bajaradigan vazifalari haqida so‘zlab bering.

**Ushbu so‘zlar va so‘z birikmalarini eslab qoling!**

qiymat — стоимость
haqiqiy qiymat — действительная стоимость
qo‘shimcha qiymat — прибавочная стоимость
iste’mol qiymati — потребительская стоимость
garov qiymati — залоговая стоимость
yalpi qiymat — валовая стоимость
almashuv qiymati — обменная стоимость

***105-mashq.*** Matnni o‘zbek tiliga o‘giring. Joy nomlarining rus va o‘zbek tillarida yozilishi va aytilishiga e’tibor bering.

Кашкадарьинский оазис расположен на юге Узбекистана. Здесь есть высокие горы и плодородные равнины, степи и пески. Главная река оазиса — Кашкадарья в древности была притоком Зарафшана. В древности долины Кашкадарьи и Зарафшана составляли единую историческую и культурную область — Согд. Здесь развивалось поливное и неполивное земледелие, виноградство и садоводство. Через долину проходило несколько торговых путей. Эти пути связывали Балх и Бухару, Термез и Самарканд. В вилояте было много селений. Это Несеф, Касба, Искифаган, Кеш. Главным – был Несеф. Река Кашкадарья делила его на две части. И было четверо ворот: Неджарийские, Самаркандские, Кешские и Губдинские.

***106-mashq.*** Quyidagi sinonimlar qatorini davom ettiring.

Ayyor, mug'ambir ...
Aniq, yaqqol ...
Balli, barakalla ...
Bitirmoq, tugatmoq ...
Darrov, darhol ...
Juda, g'oyat ...
Kabi, singari ...
Katta, ulug' ...
Mazali, lazzatli ...
Ozgina, oz-moz ...
Puxta, pishiq ...
To'satdan, qo'qqisdan ...

***107-mashq.*** Matnni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

## VALUTANING ALMASHUV KURSI

Milliy valuta almashuv kursining barqarorlashuvi makroiqtisodiy barqarorlik siyosatining muhim yo'nalishidir. Valuta kursi barqaror bo'lsa, import narxlari ham barqaror bo'ladi. Bu esa, birinchidan, ichki bozordagi narxlarning umumiy o'zgarishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi, ikkinchidan, inflatsiyani pasaytiruvchi qudratli omil bo'lib xizmat qiladi.

Milliy valutaning boshqa davlatlar valutalariga nisbatan almashuv kursini aniq belgilash maqsadida 1994-yil 15-oktabrdan boshlab O'zbekiston Respublikasi banklararo valuta birjasida muntazam ravishda valuta savdolari o'tkazilyapti. Unda valuta operatsiyalarining barcha turlari uchun yagona almashuv kursi belgilangan.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Ushbu savollarga javob berish orqali matnning asosiy mazmunini qisqacha ifodalang:
   — Inflatsiya nima?
   — Uning vaqtga aloqasi qanday?
   — Valutaning almashinuv kursi deganda nimani tushunasiz?
   — Valuta kursining barqarorlashuvi inflatsiyaga qanday ta'sir etadi?
2. Matndan foydalanib, quyidagi gaplarni tugallang:
   Milliy valuta almashinuv kursining barqarorlashuvi (nimaning qanday?) yo'nalishidir.
   Valuta kursi barqaror bo'lsa, narxlar (qanday?) bo'ladi.
   O'zbekiston Respublikasi banklararo valuta birjasida (qachondan boshlab?) valuta savdolari o'tkazilmoqda.

## *5-DARS:* O'TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

### Atamalar sharhini bilib oling!

### VALUTA NIMA?

Milliy doirada amal qiluvchi, qadr-qiymati shu mamlakat boyligi bilan ta'minlangan pul valuta deyiladi. Konvertirlangan valuta — boshqa valutalarga almasha oladigan pul. Konvertirlanmagan valuta — boshqa valutalarga almashtirish uchun qabul etilmaydigan pul.

Erkin konvertirlangan valuta — bu cheklanmagan miqdorda va hamma pul operatsiyalarini bajarish uchun barcha vositalarga erkin almashadigan pul. Odatdagi konvertirlangan valuta — bu faqat ma'lum pul operatsiyalarini o'tkazish uchun cheklangan miqdorda boshqa valutaga almashadigan pul.

***108-mashq.*** Iqtisodiy-geografik ma'lumotnomani o'qing va topshiriqlarni bajaring.

### QASHQADARYO VILOYATI

Qashqadaryo viloyati 1924-yil 1-noyabrda tashkil etilgan. 1927-yilda Buxoro viloyati tarkibiga qo'shilgan. 1943-yil 22-yanvarda qayta tashkil etilgan. 1960-yil 25-yanvarda Surxondaryo viloyatiga qo'shilgan.




1964-yil 7-fevralda esa qaytadan yana tashkil topdi. Maydoni 28,4 ming kv. km. Shaharlari: Qarshi, G‘uzor, Kitob, Koson, Muborak, Tallimarjon, Shahrisabz, Yakkabog‘, Qamashi, Chiroqchi, Beshkent.

Qashqadaryo viloyatida 14 tuman, 12 shahar, 4 shaharcha, 142 qishloq bor. Qashqadaryo viloyatining ma’muriy va iqtisodiy markazi Qarshi shahri hisoblanadi.

XX asr boshlarigacha hozirgi Qashqadaryo viloyati hududida yashagan aholining ko‘pchiligi orasida urug‘ va qabilalarga bo‘linish saqlanib qolgan. Masalan, Qarshi shahri va uning atroflarida mang‘it, saroy, qavchin, qatag‘on, qutchi, qipchoqlar, Xitoy, qirq, yuz urug‘lari, Shahrisabz va uning atroflarida kenagas, saroy, qutchi, turk, qatag‘on, qalmoq, qang‘li, chuyut, qiyot, qo‘ng‘irot, mojor, mang‘it, mitan, mo‘g‘ul, nayman, sayot urug‘lari, G‘uzor va uning atroflarida qo‘ng‘irot, mang‘it va boshqa urug‘lar yashagan. Ular dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanishgan.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillik o‘rtalaridayoq Qashqadaryo viloyatida sun’iy sug‘orish ishlari amalga oshirilgan. Yirik dehqonchilik vohalari, shuningdek, shaharlar mavjud bo‘lgan. Arxeologik qazishlar davrida xarobalardan so‘g‘d madaniyatiga oid sopol buyumlarning katta kolleksiyasi topilgan. Milodiy V asrdan boshlab Qashqadaryo viloyatining yuqori qismi Kesh, quyi qismi Naxshab nomlari bilan atalgan.

Qashqadaryo viloyati respublika xo‘jaligining paxtachilik, g‘allachilik, chorvachilik, bog‘dorchilik, qorako‘lchilikka ixtisoslashgan, qurilish materiallari, energetika resurslari ishlab chiqaradigan va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan ko‘p tarmoqli mintaqalardan biridir.

O‘zbekistonda yetishtirilgan yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 10,2 %, shu jumladan, paxtaning 10,6 %, pillaning 7 %, qorako‘l terining 19 %, junning 16 %, g‘allaning 11,1 % Qashqadaryoga to‘g‘ri keladi.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Qashqadaryo viloyati tashkil topishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Qashqadaryo tarixi haqida so‘zlab bering.
3. Qashqadaryo qayerda joylashgan?
4. Aholisining etnik tarkibi va hayot tarzi qanday?
5. Qashqadaryoliklar nima bilan shug‘ullanganlar?
6. Hozirgi kunda Qashqadaryo xo‘jaligi qay ahvolda?
7. Qarshi qadimda qanday atalgan?
8. Qashqadaryoning qanday shaharlari bor?
9. Qashqadaryoda qaysi buyuk inson tavallud topgan?
10. Internet va ommaviy axborot vositalaridan olingan ma’lumotlar asosida Qashqadaryo viloyati va Qarshi shahri haqida referat tayyorlang.

## *VIII bob.* **IQTISOD — TARAQQIYOT ASOSI** *(HARAKATNI IFODALASH)*

### *1-DARS:* **HARAKAT — TARAQQIYOT ASOSI**

**Bilib oling!**

Harakat-holat ma'nosi fe'l so'z turkumi bilan ifodalanadi. O'zbek tilida fe'llar sodda va murakkab tuzilishli bo'lib, sodda fe'llar bir so'zdan, murakkab tuzilishli fe'llar esa ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalaridan iborat bo'ladi. Bunday fe'llar yetakchi va ko'makchi qismlardan tuziladi. Yetakchi qism asosiy lug'aviy ma'noni bildiradi, ko'makchi qism esa harakat bajarilishining turli bosqichlari: harakatning boshlanishi, tugallanishi, davom etayotgani, bir marta yoki ko'p marta sodir bo'lishi kabi ma'nolarni ifodalaydi. Masalan:

*Dars boshlandi* (*boshlandi* — sodda mustaqil fe'l).

*O'qituvchi mavzuni tushuntira boshladi* (*tushuntira boshladi* — ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi: *tushuntira* — yetakchi, *boshladi* — ko'makchi qism).

Fe'lning ikkinchi qismidagi ko'makchi fe'llar boshqa bir fe'l tarkibida yetakchi fe'l sifatida yoki sodda mustaqil fe'l bo'lib kelishi ham mumkin.

***109-mashq.*** Namunadan foydalanib, ko'makchi fe'llar yordamida murakkab fe'llar hosil qiling va ma'nosidagi farqlarni tushuntiring.

Namuna: *Ko'rmoq: ko'rib chiqdi, ko'ra boshladi, ko'rib turdi, ko'rib o'tirdi, ko'rib oldi, ko'rib bo'ldi, ko'rib berdi, ko'rib qoldi, ko'rib qo'ydi, ko'rib ketdi, ko'rib o'tdi, ko'ra boshladi, ko'ra boshlagan edi.*

| | | | |
|---|---|---|---|
| yozmoq ... | aytmoq ... | o'qimoq ... | ko'rsatmoq ... |
| bermoq ... | ochmoq ... | tashlamoq ... | turmoq ... |
| yurmoq ... | olmoq ... | qo'ymoq ... | o'tirmoq ... |
| qurmoq ... | gapirmoq ... | yemoq ... | ishlamoq ... |

***110-mashq.*** Nuqtalar o‘rniga ma’lumot uchun berilgan fe’llardan mosini qo‘yib, matnni ko‘chiring. Murakkab fe’llarning yetakchi va ko‘makchi qismini ko‘rsating.

Kuz ... . Dalalarda paxta terimi ... . Dehqonlar yil bo‘yi yetishtirgan mo‘l hosilni ... . Paxta dalalarida ish ... . Terilgan paxtalar xirmonga to‘planib, so‘ng mashinalarda paxta zavodlariga ... . U yerda paxta tolasi chigitidan ... . Ajratilgan tolalardan to‘qimachilik kombinatida to‘quvchilar ip ... . Yigirilgan iplardan tikuvchilar turli kiyim-kechaklar ... . Paxta chigiti esa yog‘ zavodlariga ... . Ulardan paxta yog‘i ... .

**Ma’lumot uchun:** *keldi, boshlandi, yig‘ishtira boshladilar, qizib ketdi, yuboriladi, ajratib olinadi, yigiradilar, tikadilar, olinadi.*

***111-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## BOZOR IQTISODIYOTI

Bozor iqtisodiyoti deganda iqtisodiy yechimlar markazlashmagan tarzda qabul qilinadigan iqtisodiy tushuncha tushuniladi. Bozor iqtisodiyotining faoliyat ko‘rsatishi, asosan, bozor mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Bozor mustaqil ravishda qarorlar qabul qiluvchi alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, aloqalar shakli hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har doim ham erkin bozor bo‘lmaydi, raqobat bozori faoliyat ko‘rsatadi. Bu esa xususiy, kooperativ, davlat aksiyadorlik kabi xilma-xil shakldagi bozor infrastrukturasini vujudga keltirishni talab etadi.

**Topshiriqlar:**

1. Matnda qo‘llanilgan fe’l shakllarini tuzilishi va ifodalanishiga ko‘ra guruhlab yozing.
2. Nuqtalar o‘rniga fe’llar bog‘lanadigan birikmalarni yozing va qanday vositalar bilan bog‘lanishini tushuntiring.

... →<br>
... → talab etadi<br>
... →

... → amalga oshiriladi
... → amalga oshiriladi
... → amalga oshiriladi

... → hisoblanadi
... → hisoblanadi
... → hisoblanadi

... → ko‘rsatadi
... → ko‘rsatadi
... → ko‘rsatadi

... → ro‘yobga chiqaradi
... → ro‘yobga chiqaradi
... → ro‘yobga chiqaradi

3. Mulkchilikning qanday shakllari bor? Ularni yozib chiqing.
4. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti qanday rivojlanayotgani haqida gapirib bering.

**Ushbu so‘zlar va birikmalarni esda tuting!**

iqtisodiyot — экономика
iqtisodiy taraqqiyot — экономическое развитие
iqtisodiy ahvol — экономическое положение
iqtisodiy tanglik — экономический кризис
iqtisodiy masalalar — экономические задачи
iqtisodiy sharoit — экономические условия
iqtisodiy soha — экономическая область
iqtisodchi — экономист

***112-mashq.*** Atama sharhini bilib oling va topshiriqlarni bajaring.

## AKSIYADORLIK KOMPANIYALARI

Aksiyador kompaniyalar biznesni tashkil etishning to‘liq va mukammal usuli hisoblanadi. Yevropada XVII asrda aksiyadorlik savdo uyushmalari, xususan, 1600-yilda tashkil etilgan Ost-Ind kompaniyasi o‘z aksiyadorlariga katta daromad keltirgani uchun o‘sha davrdagi xalqaro savdo biznesi shaklida bo‘lgan. Aksiyadorlik kompaniyasi faoliyati mohiyati turli kapitallarni to‘plab, yirik operatsiyalarni amalga oshirishdan iborat.

**Topshiriqlar:**

1. Matndagi sifatlovchilarni o'zi bog'langan so'z bilan yozib oling va ifodalanishini tushuntiring.
2. Matndagi joy nomlarini yozib oling va ular haqida ma'lumot bering.
3. Ushbu atamalar ishtirokida gaplar tuzing:
   *Aksiyadorlik, daromad, savdo uyushmasi, kapital, biznes.*
4. Matndagi fe'llar va fe'l shakllarini bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarga ajrating.
5. Nuqtalar o'rniga zarur qo'shimchalar qo'yib yozing va ushbu so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

   Jamiyat... iqtisodiy ahvoli, qonunlar... bajarmoq, iqtisodiy taraqqiyot... erishmoq, iqtisodiy tanglik... bartaraf qilmoq, iqtisodiy sharoit... yaxshilamoq.

**Bilib oling!**

Murakkab fe'llarning yetakchi qismi fe'ldan boshqa so'zlar bilan ifodalanishi ham mumkin. Bunday fe'llar qo'shma fe'llar deb atalib, asosan, ot+fe'l, sifat+fe'l tuzilishida bo'ladi. Masalan: *barpo etmoq, xursand bo'lmoq* kabi. Sodda yasama fe'llar esa ot, sifat, taqlid so'z, ravish va sonlarga quyidagi qo'shimchalarni qo'shish orqali yasaladi:

| | | |
|---|---|---|
| Ot + | - la: | ishla, gulla |
| | - a: | qona, sana |
| | - i: | bo'yi, changi |
| Sifat + | - la: | yaxshila |
| | - ar: | qisqar |
| | - ay: | kengay |
| Taqlid so'z + | - irla: | shivirla |
| | - illa: | taqilla |
| | - ulla: | vovulla |

***113-mashq.*** Quyidagi so'zlardan sodda yasama fe'llar yasang. Qanday qo'shimchalar qo'shilayotganiga e'tibor bering.

rivoj..., rag'bat..., himoya..., yangi..., baho..., shakl..., qadr..., ta'minot..., tabaqa..., harakat... .

***114-mashq.*** Ko‘makchi fe’llar yordamida berilgan fe’llarning o‘zbek tilidagi muqobil variantlarini hosil qiling.

muhofaza ... *(защищать),* tadqiqot ... *(исследовать),* da’vat ... *(призывать)*, himoya ... *(защищать),* zarar ... *(вредить),* iflos ... *(загрязнять),* savdo ... *(торговать),* nazorat ... *(контролировать),* kashf ... *(изобретать).*

***115-mashq.*** Berilgan fe’llar yordamida so‘z birikmalarini tuzishni davom ettiring, ularning o‘zaro bog‘lanish vositalariga e’tibor bering.

| | | | |
|---|---|---|---|
| ilm (-ga)<br>joy (-ga)<br>............<br>............ | ega bo‘lmoq | fikr (-ni)<br>kasb (-ni)<br>............<br>............ | e’tirof etmoq |
| o‘qishga kirish (-ni)<br>safarga borish (-ni)<br>............<br>............ | reja qilmoq | davlat (-ni)<br>ish joyi (-ni)<br>............<br>............ | barpo qilmoq |
| qurilish (-ga)<br>ifodalash (-ga)<br>............<br>............ | xizmat qilmoq | bajarish (-ga)<br>ko‘rish (-ga)<br>............<br>............ | imkon bermoq |

***116-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

Faqat uyushgan bozorgina bugungi kunda xalqning ijodiy va samarali mehnat imkoniyatlarini ochib bera oladi, boqimandalikka chek qo‘yadi, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni rivojlantira oladi.

Faqat bozorgina ishlab chiqarishni iste’molchining manfaatlariga bo‘ysundirish, mahsulotga bo‘lgan talab va taklifni aniq hisobga olish, konyunktura o‘zgarishlariga qarab tezlikda ish tutish imkonini beradi.

Faqat bozorgina tejamli xo‘jalik yuritishni amalga oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi, talon-tarojga qarshi kurashadi.

Faqat bozorgina yangiliklarga sezgirlik bilan qarashga, fan va texnikaning eng so‘nggi yutuqlarini dadil va g‘ayrat bilan joriy etishga o‘rgatadi, o‘z ishining ustasiga, kasb mahoratiga munosib baho beradi.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Matndan murakkab fe'llarni aniqlab, tuzilishi va qaysi so'zlar bilan qanday vositalar yordamida bog'lanayotganini izohlang.
2. Matndan foydalanib, ushbu gaplarni davom ettiring.

   *Faqat ...... boqimandalikka chek qo'yadi.*
   *Faqat bozorgina ......*

3. *-gina* yuklamasi ifodalayotgan ma'noni izohlang.
4. Matnga sarlavha qo'ying.

## *2-DARS:* FAOLIYAT YO'NALISHINI TANLASH

### O'zbekiston Respublikasi «Davlat tili haqida»gi Qonuni moddalarini yodda tuting!

**16-modda.** Televideniye, radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.

**17-modda.** Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

**18-modda.** Pochta-telegraf jo'natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra boshqa tilda amalga oshiriladi.

**Bilib oling!**

Fe'llar bajariladigan va bajarilmaydigan harakatni ifodalaydi. Bajarilmaydigan harakatni ifodalovchi fe'llar quyidagi grammatik shakllar bilan hosil qilinadi:

**-ma** affiksi: *hisobla — hisoblama, imzo qo'y — imzo qo'yma.*
**emas** to'liqsiz fe'li: *borgan emas, aytib bermoqchi emas.*
**yo'q** so'zi: *kelgani yo'q, foydalangani yo'q.*
**na** bog'lovchisi: *na o'qidi, na yozdi.*

*Eslatma:* **-ma** affiksi qo'shma fe'l tarkibining har ikkala qismiga qo'shilsa, tasdiq ifodalanadi. Masalan: *olmay qo'ymaydi — oladi; o'qimay kelmaydi — o'qib keladi. Emas* to'liqsiz fe'li fe'ldan boshqa so'zlarga qo'shilib kelganda ham inkor ma'nosini bildiradi. Masalan: *ochiq emas, hamkor emas* kabi.

***117-mashq.*** Fe'llarni namunadagi kabi uchta inkor shakliga qo'yib, har biri ishtirokida gaplar tuzing.

*Namuna:* Ko‘rmoq: ko‘rma, ko‘rgan emas, ko‘rgani yo‘q.
Men ko‘chada hech kimni ko‘rmadim.
Ko‘chada hech kimni ko‘rganim yo‘q.
Bu odamni avval hech ko‘rgan emasman.

Suyanmoq, ma’qullamoq, tinchlanmoq, yashnamoq, ardoqlamoq. Bel bog‘lamoq, yetkazib bermoq, tajriba orttirmoq, hozirlab turmoq, rozi bo‘lmoq.

***118-mashq.*** Qavs ichida berilgan fe’llarni buyruq-istak maylining bo‘lishli shaklida yozing.

1. Darsdan keyin kutubxonaga ... *(bormoq)*.
2. Biz bilan birga teatrga ... *(bormoq)*.
3. Kitob — bizning do‘stimiz. Uni barcha ... *(avaylab asramoq)*.
4. Sen xalqimizning urf-odatlarini ... *(hurmat qilmoq)*.

***119-mashq.*** Matnda berilgan yo‘l harakati qoidalarini diqqat bilan o‘qing. So‘ngra bir ustunga bajariladigan harakatlarni, 2-ustunga bajarilmaydigan harakatlarni ifodalovchi fe’llarni ko‘chirib yozing.

Katta ko‘chada mashinalar yurishini yoddan chiqarmang. Piyodalar uchun ajratilgan yo‘lakdan yurish kerakligini unutmang. Katta ko‘chani kesib o‘tishda yerosti yo‘llaridan foydalaning. Avtobus, trolleybuslarning orqasidan, tramvayning esa oldi tomonidan o‘tish kerakligini esdan chiqarmang. Jamoat transportlarida yoshi kattalarga joy bering, baland ovoz bilan gaplashmang, xaxolab kulmang, magnitofon kabi ovoz chiqaruvchi vositalardan foydalanmang. Atrofingizdagi odamlar bilan xushmuomalada bo‘ling. Yuki og‘ir yo‘lovchilarga chiqish va tushishda yordamingizni ayamang. Ko‘chada yurish qoidalariga rioya qiling.

***120-mashq.*** Qavs ichida berilgan fe’llarni bo‘lishli yoki bo‘lishsiz shaklda qo‘yib, maqollarni davom ettiring.

1. Ko‘kka ..., ko‘pga ... (boqmoq).

2. Sog‘liq tilasang, ko‘p ... ,
Izzat tilasang, ko‘p ... (yemoq, demoq).

3. Befoyda so‘zni ko‘p ... ,
Foydali so‘zni ko‘p eshitishdan ... (aytmoq, qaytmoq).

4. Kimki senga do‘stlik qilsa,
Do‘stlik qadrini ... (unutmoq).

5. Yangi do‘st orttirganda,
Eskisidan ... (yuz o‘girmoq).

**_121-mashq._** Matnni o‘qing. Fe’llarning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllarini izohlang. Matnni bir shaxs nomidan qayta hikoya qiling.

## BIZNESNI QANDAY TANLAYDILAR?

Hayotimizda faoliyat yo‘nalishini tanlashda yo‘l qo‘yilgan xato har bir insonga moddiy jihatdan ham, ma’naviy jihatdan ham ancha qimmatga tushadi. Omadsizlik ishi yurishgan va yurishmay qoladigan kishilar o‘rtasidagi farqni juda yiriklashtirib yuboradi. Shu sababli, tadbirkor kishilar, avvalo, kasbi nuqtayi nazaridan o‘z kuchi, bilimi, jismoniy yoki intellektual qobiliyatini anglab, puxta tayyorlanib, so‘ng bir ishga qo‘l urishini tushunish mumkin. Bunday insonlar biznesni tanlashda o‘zlariga quyidagi savollarni beradilar:

— Men nimani ma’qul ko‘raman: narsa va buyumlar bilan shug‘ullanishnimi yoki insonlar va g‘oya, fikrlar bilan bog‘liq ishlarnimi?

— Yakka tartibda ishlashni afzal ko‘ramanmi yoki jamoa tartibidami?

— Jismoniy kuch talab etiladigan ishni uddalay olamanmi?

— Tashkilotchilik, rahbarlik qobiliyatiga egamanmi?

— O‘z mehnatimning moddiy natijasini ko‘ramanmi?

Bu savollarga siz qanday javob bergan bo‘lar edingiz? O‘z fikringizni yozing.

**_Savol va topshiriqlar:_**

1. Oxirgi fikr asosida matnni davom ettiring.
2. O‘zingiz bilgan kasblar nomini va ushbu kasb egalarining nima bilan shug‘ullanishini yozing.
3. Tanlangan kasbingiz sizni qoniqtiradimi? Nima uchun shu kasbni tanladingiz? Fikringizni asoslang.
4. Xatboshidagi savollarni do‘stingizga bering va uning javoblarini yozib chiqing.

## *3-DARS:* BANK VA MOLIYA BOZORI

***122-mashq.*** Matnni o'qing. Savol va topshiriqlarni bajaring.

### O'ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKI



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning Farmoni bilan 1991-yil 7-sentabrda Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil etildi. Milliy bank Markaziy Osiyodagi eng yirik, universal tijorat banki hisoblanadi. O'zbekiston Milliy bankining egallab turgan mavqeyi faqat Markaziy Osiyo miqyosidagina emas, balki butun MDH davlatlari miqyosida ham yuqoridir. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki eksport, import, tijorat hamda tiklanish va taraqqiyot banki sifatida yetakchi xorijiy banklar va eng yirik xalqaro moliya tashkilotlari bilan uzoq vaqt samarali hamkorlik qilmoqda. Milliy bank mamlakatimizga xorijiy investitsiyalar kirib kelishini ta'minlovchi va xalqaro valutalarni muomalaga kirituvchi asosiy vositadir.

***Savol va topshiriqlar:***

1. Milliy bank qachon tashkil topgan?
2. Bankning qisqa va to'liq nomini ayting va izohlang.
3. Matndagi fe'llarning bo'lishli va bo'lishsiz shakllarini izohlang.
4. Nima uchun Milliy bank faqat Markaziy Osiyo miqyosidagina emas, balki butun MDH davlatlari miqyosida ham yuqori mavqega ega?
5. Bank qaysi xorijiy banklar bilan hamkorlik qiladi?
6. Milliy bankning asosiy faoliyati nimadan iborat?

***123-mashq.*** Berilgan savollarga mos so'zlar qo'yib, so'z birikmalari tuzing. Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlarini tushuntiring.

(nima?)
(qanday?) — ochildi
...
...

(nima bilan?)
(nimaga?) — mos tushadi
...

(nimani?)
(qanday?) — barpo etildi
...

(nimaga?)
(nima uchun?) — tayanadi
...

(qanday?)
(nimani?) — ro‘yobga chiqarish kerak
...

(nimani?)
(nima bilan?) — ta’minlash kerak
(qanday?)

(nimani?)
(qanday?) — belgilab beradi
(kim?)

*35-topshiriq.* Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing. Muomala odobiga oid so‘zlarga e’tibor bering.

— Assalomu alaykum.
— Vaalaykum assalom.
— Men «Asaka» bankidan kredit orqali avtomobil sotib olmoqchiman.
— Yaxshi, mana bu hujjatlarni to‘ldirib, pasportingiz bilan bering.
— Mana, marhamat.

— Iltimos, bank xizmati uchun 7500 so‘m to‘lang. So‘ngra zarur bo‘ladigan barcha hujjatlarni topshiring.

— Xo‘p.

— To‘lov so‘rovnomasini oling, so‘rovnomada pul qabul qiluvchidan so‘raladigan maxsus kod raqami ko‘rsatilgan.

— Rahmat.

— Xayr.

***124-mashq.*** Qavs ichida berilgan fe’l kesimlarini kerakli zamon ko‘rinishida yozing.

2000-yilda «Asaka» banki Toshkent shahrida uchta yangi filialini ... *(ochmoq)*. Faoliyat olib borayotgan bo‘linmalarning umumiy soni 25 taga ... *(yetkazmoq)*. Bugungi kunda «Asaka» bankining filiallari barcha viloyat va qator tumanlar markazida, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ... *(ishlamoq, turmoq)* va jismoniy hamda yuridik shaxslarga ... *(faoliyat ko‘rsatmoq)*. Bankning hududiy siyosatiga muvofiq filiallarda menejer-marketologlar lavozimi *(joriy qilmoq)*. Bank kredit amaliyotlarini ham milliy, ham xorijiy valutalarda faol ... *(amalga oshirmoq)*.

***125-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.



## «ASAKA» BANKI

1996-yilda avtomobilsozlik sohasida faoliyat yurituvchi «Asaka» banki tashkil etildi. Bank avtomobil ishlab chiqaruvchilar va xaridorlar bilan hamkorlik qiladi.

«Asaka» banki bugungi kunda O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan yengil avtomobillarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

«Asaka» banki qisqa vaqt ichida moliya bozorida yuksak samarali operatsiyalarni amalga oshiruvchi kredit muassasasiga aylandi. Bankning xalqaro reytingi oshdi.

Bank tomonidan «Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki», «Xalqaro moliyaviy korporatsiya», «Osiyo rivojlanish banki» va boshqa yirik moliyaviy tashkilotlarning uzoq muddatli kredit yo‘nalishlari jalb qilindi. Jahondagi yirik tijorat banklari bilan o‘zaro hamkorlik borasida bitimlar imzolandi.

«Asaka» bankiga nisbatan ishonch ortib borishining asosiy omili taqdim etilayotgan moliyaviy ko‘rsatkichlarning oshkoraligi va sifatligidir.

Jahonning yirik auditorlik kompaniyalari tomonidan har yili buxgalterlik hisob-kitoblarining xalqaro standartlar bo‘yicha auditorlik tekshiruvlari o‘tkazilib kelinmoqda. «Tomson Financial Bank Watch-FITCH» arenalarining baho natijalariga ko‘ra, 2000-yilda «Asaka» bankiga xalqaro bank reytingi taqdim etildi.

«Asaka» banki O‘zbekiston Respublikasida rivojlanayotgan moliya bozoridagi talablarni to‘la qondirish, bank xizmati ko‘lamini kengaytirish, O‘zbekiston hududidagi xalqaro loyihalarda ishtirok etish uchun xorijiy sarmoyalarni faol jalb qilish, barcha mijozlarning ishonchini qozonish kabi vazifalarni o‘z oldiga qo‘ygan.

? ***Savol va topshiriqlar:***

1. «Asaka» banki qachon tashkil topgan?
2. Bank qaysi soha bo‘yicha xizmat ko‘rsatadi?
3. Nima sababdan ushbu bankning xalqaro reytingi oshib bormoqda?
4. Siz «Asaka» banki bilan hamkorlik qilganmisiz?
5. «Asaka» banki va uning filiallari haqida bilganlaringizni so‘zlab bering.
6. Matndan foydalanib, maqsadni va holatni ifodalovchi nutqiy konstruksiyalar tuzing.

7. Qavs ichidagi so‘roqlar o‘rniga zarur so‘zlar qo‘yib, gaplarni davom ettiring.

- *Bank o‘z oldiga (qanday?) vazifalar qo‘ygan.*
- *Ushbu vazifalarni bajarish uchun «Asaka» banki (kimlar bilan?) hamkorlik qiladi.*
- *Qisqa vaqt ichida bank tomonidan o‘zaro hamkorlik borasida (kimlar bilan va qanday?) bitimlar imzolandi.*
- *«Asaka» bankiga nisbatan ishonch ortib borishining asosiy omili (nimada?).*
- *(Qachon va kim tomonidan?) «Asaka» bankiga xalqaro bank reytingi taqdim etildi.*

## *4-DARS:* O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

### O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni moddalarini yodda tuting!

**19-modda.** Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg‘alari ish qog‘ozlarining matnlari davlat tilida yoziladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo‘shma korxonalarning, shuningdek, milliy madaniyat jamiyatlari va markazlarining muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.

**20-modda.** Lavhalar, e’lonlar, narxnomalar va boshqa ko‘rgazmali hamda og‘zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e’lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin.

**21-modda.** Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo‘riqnomalar, etiketkalar bilan ta’minlanadi.

### ATAMALAR SHARHINI BILIB OLING!

*Deflatsiya* muomaladagi pul miqdorini ortiqcha pul belgilarini iste’moldan chiqarish yo‘li orqali kamaytirishdir.

*Nullifikatsiya* — eski pul belgilarni muomaladan olish va ozroq miqdorda yangilarini chiqarish.

***126-mashq.*** Iqtisodiy-geografik ma’lumotnomani o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## ANDIJON VILOYATI




Andijon viloyati Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan. 1941-yilning 6-martida tashkil etilgan. Maydoni 4,2 ming kv. km. Aholisi 1993,1 ming kishi. Andijon viloyatida 11 shahar, 5 shaharcha, 14 tuman va 95 qishloq bor.

Andijon viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazidir. Respublikaning yirik sanoat shaharlaridan. Asakadagi yengil avtomobil ishlab chiqaruvchi qo'shma korxona nafaqat respublikamizga, balki xorijiy davlatlarga ham avtomobillar yetkazib beradi. Sanoatining rivojlanishida, ayniqsa, energetika resurslarining ahamiyati katta. 164 dan ortiq yirik sanoat korxonalari bor. Viloyat respublika bo'yicha neft va gaz qazib chiqarishda salmoqli o'rin tutadi. 10 dan ziyod neft va gaz konlari ishlab turibdi.

Andijon viloyati qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xususan, paxta yetishtirish bo'yicha ham yetakchi o'rinda. Andijonda respublikaning yirik ta'lim muassasalari mavjud. Andijon davlat tillar instituti, Andijon tibbiyot instituti, Andijon mashinasozlik instituti malakali kadrlarni yetkazib berish uchun faoliyat ko'rsatmoqda.

**?** ***Savollarga javob bering:***

1. Andijon viloyati qachon tashkil etilgan?
2. Viloyatda nechta shahar, nechta tuman bor?
3. Viloyatda qanday sanoat korxonalari mavjud, ular qachon (taxminan) tashkil topgan?
4. Viloyat aholisining soni qancha?
5. Viloyatning markazi qaysi shahar?
6. Andijonda qanday sanoat korxonalari bor?
7. Andijon yana qaysi jihatlari bilan respublikamizda dovrug' taratgan?

# *IX bob.* MODDIY VA MA’NAVIY YUKSALISH *(HARAKATNING VOQELIKKA MUNOSABATINI IFODALASH)*

## *1-DARS:* YAXSHI ODATLAR

**Bilib oling!**

Harakat bildiruvchi so‘zlar ma’lum bir xabarni, maqsadni, buyruq yoki istakni, shuningdek, harakatning bajarilish shartini ifodalashga xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, fe’llarda mayl kategoriyasi ajratiladi. Xabar ma’nosini bildiruvchi fe’llar ish-harakatning ma’lum bir zamonda aniq bajarilganini bildiradi, shuning uchun aniqlik maylidagi fe’llar hisoblanadi. **-moqchi, -gani** qo‘shimchalari bilan qo‘llanadigan fe’llar maqsadni ifodalaydi. Buyruq va istak ma’nosini ifodalovchi fe’llar esa buyruq-istak maylida qo‘llanadi. Bunday fe’llar uch tuslanishda tuslanadi.

**Buyruq-istak maylidagi fe’llarning tuslanishini bilib oling!**

| | *Birlik* | *Ko‘plik* |
|---|---|---|
| 1. | o‘qi+**y,** bor+**ay** | o‘qi+**ylik**, bor+**aylik** |
| 2. | o‘qi, bor **(+gin)** | o‘qi+**ng**, bor+**ing** |
| 3. | o‘qi+**sin**, bor+**sin** | o‘qi+**sinlar**, bor+**sinlar** |



***127-mashq.*** Qavs ichida berilgan fe’llarni zarur shaklga qo‘yib, maqollarni ko‘chiring. Har bir maqolning mazmunini izohlang.

1. O‘zingga ehtiyot *(bo‘lmoq)*, qo‘shningni o‘g‘ri *(tutmoq)*.
2. Egri *(ozmoq)*, to‘g‘ri *(o‘zmoq)*.
3. El og‘ziga elak *(tutib bo‘lmoq)*.
4. Shamol *(bo‘lmoq)* daraxtning uchi *(qimirlamoq)*.
5. Uzumini *(yemoq)*, bog‘ini *(surishtirmoq)*.
6. Achchiq savol *(bermoq)*, shirin javob *(kutmoq)*.
7. Oyni etak bilan *(yopib bo‘lmoq)*.
8. Odamning husniga *(boqmoq)*, aqliga *(boqmoq)*.
9. Ko‘za kunda *(emoq)*, kunida *(sinmoq)*.
10. Yomon urug‘dan yaxshi meva *(kutmoq)*.

***128-mashq.*** Berilgan harakat bildiruvchi so‘zlarni o‘zbek tiliga o‘giring. Rus tilidagi vid ma’nosining o‘zbek tilida qanday vositalar bilan berilishiga diqqat qiling.

учить, проучить, научить, заучивать; читать, прочитать, вычитывать, читал; говорить, заговорить, проговорить, сговариваться, договорится; ходить, заходить, проходить, сходить, выходить, выхаживать, ухаживать; сесть, сидеть, просидеть.

***129-mashq.*** Qavs ichidagi fe’llarning noaniq shakllarini matn mazmuniga mos tarzda qo‘yib, matnni davom ettiring.

O‘z vaqtini to‘g‘ri taqsimlashni *(bilmoq)*. Men buni universitetda o‘qib yurganimda *(tushunmoq)*. Avval menga ancha qiyin *(bo‘lmoq)*. Ba’zan darslarga *(kech qolmoq)*, uy vazifalarini bajarishga *(ulgurmoq)*. Keyin vaqtni to‘g‘ri taqsimlashni *(o‘rganmoq)*.

Sen har kuni soat 7 da *(uyg‘onmoq)*, badantarbiya bilan *(shug‘ullanmoq)*, keyin *(yuvinmoq)* va *(ovqatlanmoq)*. Ertalab vaqtli *(turmoq)*, shunda barcha ishlaring unumli *(bo‘lmoq)*.

***130-mashq.*** Quyidagi matnni davom ettiring. Fe’l shakllarini aniqlab, qanday savolga javob berayotganini va qanday vazifa bajarayotganini tushuntiring.

Men kirim va chiqimlarni hisoblayapman. Direktor debitor qarzlarni hisoblayotgan xodimlarni chaqirdi. Biz barcha raqamlarni hisoblab, balans chiqardik. So‘ngra uni hisoblash mashinasida tekshirib oldik....

## *2-DARS:* XALQARO HAMKORLIK

### Bilib oling!

Harakatni ifodalovchi so‘zlar nutqda turli shakllarda uchraydi. Ushbu so‘zlarning qaysi so‘zlarga bog‘lanishi va qanday so‘roqqa javob bo‘lishi uning vazifasini belgilab beradi. Shunga ko‘ra sof fe’llar va fe’llarning vazifaviy shakllari ajratiladi. Sof fe’llar odatda gapning oxirida kelib, kesim vazifasini bajaradi. Fe’llarning vazifaviy shakllari esa ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi deb atalib, hol, sifatlovchi, ega yoki to‘ldiruvchi vazifalarini bajaradi. Masalan: *Ukam uyga kechroq keldi (nima qildi? keldi). U shoshib kelib (qay tarzda? hol), yonimizga o‘tirdi. Kelayotgan (qaysi? sifatlovchi) sayyohlar ko‘payib bormoqda. Kelish — (nima? ega) mehmondan, javob berish — (nima? ega) mezbondan.*

### Berilgan fe’llarning so‘roqlari va qo‘shimchalariga e’tibor bering!

| *Nima qildi?* | *Qay tarzda?* | *Qaysi?* | *Nima qilish?* |
|---|---|---|---|
| keldi | kelib | kelgan | kelish |
| kelyapti | kelgach | kelayotgan | kelmoq |
| kelmoqchi | kelgani | keladigan | borish-kelish |
| keladi | kela-kelguncha | kelar-kelmas | boruv-keluv |

***131-mashq.*** Namunadan foydalanib, berilgan so‘zlardan fe’llar yasang, so‘ngra fe’llarning barcha shakllarini hosil qiling. Keyin ular ishtirokida so‘z birikmalari va gaplar tuzing.

*Namuna:* hisob: hisoblamoq, hisoblayapman, hisoblayotgan, hisoblab, hisoblash.

***132-mashq.*** Nuqtalar o‘rniga zarur kelishik qo‘shimchalari va ko‘makchilarni qo‘yib, matnni ko‘chiring.

### OLTIN HAMKORLIK

O‘zbekiston... oltin zarb qilish... milliy rejasi tuzilgan. Ushbu reja... amalga oshirishda O‘zbekiston iqtisodiyoti... neft va gaz sektorlari... hamda oltin va boshqa mineral resurslarni qazib olish va qayta ishlab chiqarish uchun ko‘plab xorijiy investitsiyalar kiritilgan.

O‘zbekiston bozori... eng faol bo‘lgan kompaniyalar «Yunikan», «Erkon», «Teksako» va boshqalardir. Navoiy shahri... uchinchi tog‘-kon metallurgiya zavod... qurilishi ham xorijiy kompaniyalar hisobida bo‘lib, ushbu mashhur oltin qazib olish kompleksida yana bitta yangilik kiritilmoqda, ya’ni mobil tog‘-kon komplekslari ishga tushirilmoqda.

**!** **Topshiriqlar:**

1. Matnga reja tuzing va tuzgan rejangiz asosida matnni so‘zlab bering.
2. O‘zbekistonda qanday xalqaro kompaniyalar mavjudligi haqida ma’lumot bering.
3. Quyidagi birikmalarni qo‘shma va ko‘makchi fe’lli soz qurilmalariga ajratib yozing, so‘ng rus tiliga tarjima qiling:
   *zarb qilish, amalga oshirish, qazib olish, ishlab chiqarish, faol bo‘lmoq, hisobida bo‘lmoq.*
4. «Oltin hamkorlik» deganda nimani tushunasiz? Qaysi korxonalarni ushbu hamkorliklar qatoriga kiritish mumkinligi haqida ma’lumot bering.

***133-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## O‘ZPRIVATBANK

«O‘zprivatbank» xalqaro banki 1994-yil 3-mayda yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati shaklida ta’sis etilgan. O‘zbekistonda birinchi bo‘lib xorijiy kapital ishtirokida ochilgan banklardandir.

Yevropadagi eng yirik banklardan biri «ForAiz bank» (Niderlandiya), «Inter Republic Holdings» Moliya kompaniyasi (Luksemburg), «ComplecA Europe B» (Niderlandiya), O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo‘mitasi, Markaziy Osiyoda eng yirik Olmaliq va Navoiy tog‘-kon metallurgiya kombinatlari, «Fonon» ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi, O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik-ijorat sanoat-qurilish banki, «UN GROUP» O‘zbek-Niderlandiya qo‘shma korxonasi «O‘zprivatbank» ta’sischilaridir.

«O‘zprivatbank» jahon banklararo moliyaviy telekommunikatsiyalar tashkiloti SWIFTga a’zodir. Shuningdek, bank O‘zbekiston Respublikasi valuta birjasi va «Toshkent» Respublika fond birjasi a’zosi va aksiyadori hamda obligatsiyalar bozorining dileri hamdir.

«O‘zprivatbank» xalqaro pul o‘tkazishlarini amalga oshirish bo‘yicha «Anelikbank» (Moskva) bilan shartnoma imzolagani uchun «Anelik» xalqaro pul o‘tkazishlari tizimining O‘zbekistondagi rasmiy vakili bo‘ldi.

Universal bank sifatida «O‘zprivatbank» keng doiradagi mijozlar bilan hamkorlik qiladi. Ularning tarkibida yirik korxonalar kabi, o‘rta va mayda korxonalar, xususiy tadbirkorlar va, shubhasiz, jismoniy shaxslar ham bor. Bank boshqaruvi, har bir mijoz talabidan kelib chiqqan holda, bank mahsulotlari va xizmatlari doirasini kengaytirish hamda sifatini oshirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanadi.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Matndan foydalanib, «O‘zprivatbank» haqida so‘zlab bering.
2. Nima sababdan «O‘zprivatbank» universal bank hisoblanadi?
3. Matndagi fe’l shakllarini tahlil qiling.
4. Matndagi atoqli otlarni va qisqartma otlarni daftaringizga ko‘chiring va imlosiga e’tibor bering.

## *3-DARS:* O‘ZBEK OSHXONASIDA

**Bilib oling!**

Harakatning bajaruvchisi bilan obyekti o‘rtasidagi munosabatni bildiruvchi grammatik kategoriya fe’l nisbatlari deb ataladi. O‘zbek tilida fe’llarning 5 xil nisbat shakli mavjud. Ular quyidagilar:

1. Aniq nisbatda harakatning bajaruvchisi ham, obyekti ham aniq bo‘ladi. Bu nisbat shakli alohida ko‘rsatkichlarga ega emas. Masalan: *Aziz maktub* ***yozdi.***

2. O‘zlik nisbat bajaruvchining o‘ziga qaytgan harakat-holatni bildiradi, ya’ni bunda harakatning obyekti ham, subyekti ham bitta bo‘ladi. Bu fe’l o‘zak-negiziga ***-n (-in)*** va ***-l (-il)*** qo‘shimchalari bilan hosil qilinadi. Masalan: *Aziz* ***yuvindi.***

3. Majhul nisbat bajaruvchisi noma’lum bo‘lgan harakatni bildiradi. Bu nisbat ham fe’l negiziga ***-l (-il),*** ba’zan ***-n (-in)*** affiksini qo‘shish orqali hosil qilinadi. Masalan: *Maktub* ***yozildi.*** *Topshiriq* ***bajarildi.***

4. Birgalik nisbati birgalikda bajarilgan harakatni bildiradi va fe'l asosiga ***-sh (-ish)*** qo'shimchasini qo'shib hosil qilinadi. Masalan: *Aziz va Botir* ***ishlashdi.***

5. Orttirma nisbat harakatning boshqa bir bajaruvchi ta'sirida bajarilganini bildiradi. Masalan: *Buvisi Azizga xat* ***yozdirdi.***

**Ushbu fe'l shakllarini bir-biriga qiyoslang va ma'nosini tushunib oling!**

| | | | |
|---|---|---|---|
| kiymoq | aytmoq | kiydi | aytdi |
| kiyildi | aytildi | kiyishdi | aytishdi |
| kiydirdi | ayttirdi | kiyintirdi | ayttirildi |

***134-mashq.*** Turli nisbat shakllaridagi fe'llarning mazmunidagi farqlarga e'tibor bering. Har bir fe'lga savol bering va o'ziga mos so'z bilan bog'lab, so'z birikmasi yoki gaplar tuzing.

*Namuna:* Kiydi — **kim?** — Aziz
Kiyintirdi — **kimni?** — Azizni
Kiyildi — **nima?** — kiyim
Kiyishdi — **kimlar?** — ular

***135-mashq.*** Berilgan fe'llardan turli nisbat shakllarini hosil qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Bermoq, bajarmoq, kurashmoq, sug'ormoq, kulmoq, jo'namoq, shakllanmoq, yaratmoq, ishonmoq, suyanmoq, hayratlanmoq, kechmoq, bunyod etmoq, rioya etmoq, qaror qilmoq, ahd qilmoq, jalb etmoq, ont ichmoq.

***136-mashq.*** Nuqtalar o'rniga nisbat qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring, imlosiga e'tibor bering.

1. Dunyoda oqilona so'z va yaxshi nomdan boshqasi unut...di.
2. Bilim bilan saodat yo'li och...di.
3. Topshiriqlarni o'z vaqtida bajar...di.
4. Ko'kda miltillagan yulduzlar ko'r...di.
5. Qandaydir ovoz eshit...di.
6. Bilimdon talabalar kuch sina...di.
7. Dugonalar uzoq suhbatla...di.

*36-topshiriq*. Suhbat matnini o‘qing va rollarga bo‘linib ijro eting.

## OSHXONADAGI SUHBAT

*Sotuvchi:* — Kelinglar, qizlar. Nima beray?

*Shahnoza:* — Nimalaringiz bor? Narxi qancha?

*Sotuvchi:* — Mastava, chuchvara va osh bor. Mastava 400 so‘m, chuchvara bilan osh esa 600 so‘mdan.

*Sevara:* — Choy uchun nimalaringiz bor?

*Sotuvchi:* — Choy uchun go‘shtli somsa, shirin kulcha va pishloq bor.

*Sevara:* — Menga 1 dona shirin kulcha va choy bering. Necha so‘m bo‘ladi?

*Sotuvchi:* — 250 so‘m bo‘ladi.

*Shahnoza:* — Menga esa mastava, non va choy bering. Hammasi qancha bo‘ladi?

*Sotuvchi:* — 450 so‘m bo‘ladi.

*Qizlar:* — Mana, marhamat.

*Sotuvchi:* — Osh bo‘lsin!

***137-mashq.*** Matnni o‘zbek tiliga o‘giring. O‘zbekcha taomlar nomlarini to‘g‘ri shaklda yozib chiqing.

## ЗНАЕТЕ ЛИ ВЫ?

Нет в мире ничего интернациональней, чем кухня. На столе мы часто встречаем плов и борщ, лагман и блины, цыплята-табака и бешбармак, мастава и суп-харчо. Когда разговор идет об узбекской кухне, встречаются такие названия блюд, как лагман, манпар, хотя это уйгурские блюда. Бешбармак — казахское блюдо, кайла — киргизский лагман и т.д.

Узбекское блюдо — плов также является неотъемлемой частью и туркменской, и азербайджанской, и турецкой, и киргизской кухни. Мастава, мошхурда, мошкичири, димлама, шурпа также являются блюдами узбекской кухни. Есть сезонные блюда — сумалак, халим, кук сомса, кук патир, урама, бугирсок, ковок оши и т.д. Эти блюда употребляются в зависимости от времени года.

**?** ***Savollarga javob bering:***

1. Siz qaysi taomni ko‘proq yoqtirasiz?
2. Siz shahar oshxonalarida ovqatlanasizmi?
3. Siz uchun qaysi ovqatni pishirish oson?
4. «O‘zbek milliy taomlari» kitobini o‘qiganmisiz?

## *4-DARS:* O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

### Atamalar sharhini bilib oling!

*Denominatsiya* — pul belgilari qiymatining o‘zgarishi va ma’lum nisbatda yangi yirik pul birligiga almashtirilishi.

*Revalvatsiya* — milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda chet el valutasi yoki qimmatbaho metallga nisbatan ko‘tarilishi.

*Devalvatsiya* — mamlakat savdo va to‘lov balansining keskin yomonlashuvi, valuta rezervining holdan toyishi, xalqaro valuta bozorlarida milliy valuta kursining pasayishi bilan bog‘liq holda pul birligi qiymatining rasmiy tartibda chet el valutasi yoki qimmatbaho metallga nisbatan pasaytirilishidir.

*37-topshiriq.* Palov tayyorlash retsepti asosida o‘zingiz mustaqil ravishda palov pishiring.

### PALOV TAYYORLASH

Palov tayyorlash uchun avval qozonga yog‘ solish va uni yaxshilab dog‘lash kerak. Qizigan yog‘ga o‘rtacha to‘g‘ralgan piyoz va mol yoki qo‘y go‘shtini solish kerak. Ularni qizarguncha qovurish, so‘ngra somon shaklida to‘g‘ralgan sariq sabzi va tuz solish kerak bo‘ladi. Barchasi yaxshilab qovurilgach, sabzi botar darajasida suv solish kerak. Suv qaynab chiqishi bilan olovni pastlatish va past olovda 30—40 daqiqa miltiratib qaynatish kerak.

Osh zirvagiga ivitilgan no‘xat, osh mayiz, osh murch, behi, sarimsoq kabi qo‘shimcha mahsulotlarni solish ham mumkin. Biroq palov bu mahsulotlarsiz ham juda mazali va quvvat beruvchi taomdir. So‘ngra yaxshilab yuvilgan va biroz ivitilgan guruchni zirvakning ustiga bir tekis solish va baland olovda qattiq qaynatish kerak bo‘ladi. Qozonda suv qolmaganda, olovni tezlik bilan pasaytirish hamda faqat guruchni biroz aralashtirib, qozonning qopqog‘ini zich yopish va sust olovda yarim soatcha oshni damlab qo‘yish zarur. Damlash oldidan osh xushbo‘y hid berishi uchun zira solishni unutmang.

## *X bob.* **BOZOR IQTISODIYOTI VA JAMIYAT RIVOJI**
## (*O‘ZGA SUBYEKT TA’SIRIDA BAJARILGAN HARAKATNI IFODALASH)*

### *1-DARS:* BIRJA SAVDOSI

**Bilib oling!**

O‘zbek tilida harakat boshqa bir bajaruvchining ta’siri orqali bajarilganini bildiradigan qo‘shimchalar ham mavjud bo‘lib, bu orttirma nisbat deb ataladi. Ushbu nisbatda harakatning haqiqiy bajaruvchisi gapda obyekt bo‘lib, yordamchi subyekt esa ega vazifasida keladi. Masalan: *O‘qituvchi talabalarga topshiriqni tushuntirdi.* Orttirma nisbat fe’llarning o‘zak-negiziga **-dir (-tir), -giz (-kiz, -qiz, -g‘iz), -gaz (-kaz, -qaz, -g‘az), -ir (-iz), -sat, -t** qo‘shimchalarini qo‘shish orqali hosil qilinadi. Masalan: *kestirmoq, turg‘izmoq, kirgizmoq, tutqizmoq, ketkizmoq, ko‘rgazmoq, o‘tqazmoq, yurg‘azmoq, ichirmoq, ko‘rsatmoq, uxlatmoq* kabilar.

*Eslatma:* **-giz, -gaz, -g‘az** qo‘shimchalari jarangli tovushlardan keyin, **-tir, -kiz, -qiz, -kaz, -qaz** qo‘shimchalari esa jarangsiz tovushlardan keyin qo‘shilib keladi.

***138-mashq.*** Quyidagi o‘zakdosh fe’llarning shakllari orasidagi farqni tushuntiring va yozilishiga e’tibor bering.

Yasadi, yasandi, yasaldi, yasashdi, yasatdi, yasattirdi;
Yutdi, yutishdi, yutqizishdi, yuttirdi, yutildi;
Ko‘rildi, ko‘rishdi, ko‘rsatdi, ko‘rindi, ko‘rdi, ko‘rgazdi;
Kiydi, kiygizdi, kiyindi, kiyildi, kiyishdi, kiydirdi;
So‘radi, so‘ratdi, so‘rashdi, so‘raldi, so‘rattirdi.

***139-mashq.*** Maqollarni o‘qing. Orttirma nisbatdagi fe’llarni toping, yasalishini tushuntiring. Maqollarning ma’nosini izohlang.

1. Aql va mehnat insonni o‘stirib, balog‘atga yetkazadi.
2. Mehnat — tanga quvvat, nomga shuhrat keltiradi.

3. Tirishqoqlik mehnatni yengillashtiradi.
4. Yaxshi so‘z temir darvozalarni ochtirar.
5. Farovonlik istasang, baxtli bo‘lganingda ham yor-do‘stlar orttir.

***140-mashq.*** Matnni o‘qing va unda qo‘llangan fe’l shakllarini o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chirib yozing. So‘ngra har biriga savol berib, gapdagi vazifasini ko‘rsating.

## BIRJA SAVDOSI

Hozir banklararo valuta birjasidagi oborot miqdorini har qanday korxona yoki fuqaro xohlagan vaqtida, xohlagan miqdorda o‘z pulini erkin almashtiriladigan valutaga ayirboshlash yoki erkin almashtiriladigan valutani so‘mga ayirboshlash imkoniyatini beradigan darajaga yetkazish vazifasi qo‘yilyapti. Shu maqsadda mahsulotimizni eksport qilishni kengaytirish yuzasidan qabul qilingan qarorlar bilan bir qatorda Xalqaro valuta fondi va Jahon banki bilan O‘zbekistonga institutsional va reabilitatsiya qarzlari berish haqida bitimlar imzolandi. Bu tadbirlar 1995-yildayoq O‘zbekiston Respublika valuta birjasining umumiy oborotini 1,5 milliard AQSH dollarigacha yetkazish imkonini berdi.

1995-yil aprelidan valuta savdosini haftasiga kamida ikki marta, keyinchalik esa, bundan ham ko‘proq marta o‘tkazishga qaror qilindi. Belgilangan tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi valutamizning almashuv kursi barqarorlashuviga, uning quvvati va obro‘si oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Milliy valuta kuchli bo‘lgan taqdirdagina iqtisodiyot ham baquvvat bo‘ladi.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Matndagi asosiy axborotni ajrating.
2. Birja savdosining oddiy savdo-sotiqdan farqi qanday?
3. Qaysi sonlar paytni bildirishga, qaysi sonlar miqdorni bildirishga xizmat qilmoqda? Matndan payt ma’nosini ifodalovchi ravishlar va sonlarni ajratib yozing va ma’nolaridagi farqlarni tushuntiring.
4. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini sharhlang.
5. Oxirgi gapning mazmunini tushuntiring.

***141-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## «AGROBANK»

Iqtisodiyotning agrar sektorini yanada barqaror rivojlantirish, qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan chuqurlashtirib borish, fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash, uning moddiy va ma'naviy bazasini mustahkamlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlovchi zamonaviy korxonalarni jadal barpo etish, yuqori sifatli raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy texnologiyalar va uskunalarni tatbiq qilish hamda ichki bozorni mahalliy oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirishga yo'naltirilgan keng turdagi bank xizmatlarini ko'rsatish maqsadida 2009-yil 30-martdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaroriga asosan, «Paxtabank» aksiyadorlik tijorat banki «Agrobank» aksiyadorlik tijorat bankiga aylantirildi.

«Agrobank» OATB ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil qilinib, mulkiy, moliyaviy va boshqa majburiyatlar bo'yicha, shuningdek, yuridik va jismoniy pul mablag'lari saqlanishi va o'z vaqtida qaytarilishini kafolatlovchi talablar bo'yicha «Paxtabank»ning huquqiy vorisi deb topildi. «Agrobank» universal bank hisoblanib, xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga xizmat ko'rsatmoqda. Qishloq xo'jaligida hisobga olishning yaxshilanishi, xarajatlar me'yoriga rioya qilinishiga ko'maklashish, fermer xo'jaliklari va korxonalarni yaqindan qo'llab-quvvatlash maqsadida 277 ta minibank namunali xizmat ko'rsatmoqda.

«Agrobank» faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri qishloq xo'jaligida paxta va g'alla yetishtirish, yig'ib olish qayta ishlash bilan bog'liq xarajatlarni o'z vaqtida moliyalashtirishdan iboratdir. Shu sababli «Agrobank» davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini imtiyozli kreditlash maqsadida tashkil etilgan Jamg'armaning moliyaviy agentidir.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Nima uchun «Agrobank» ixtisoslashtirilgan tijorat banki deb ataladi?
2. Minibanklar qanday faoliyat bilan shug'ullanadi?
3. Matnga reja tuzing va reja asosida «Agrobank» haqida qisqacha ma'lumot bering
4. Matndan asosiy va qo'shimcha axborotlarni aniqlang.

*38-topshiriq.* Vaziyatli topshiriq. Matnni o'qing va «Agrobank» 2010-yilda qancha miqdorda, 2011-yilda jami qancha xayriya va homiylik qilgan? Hisoblab chiqing.

«Agrobank» baholi qudrat xayriya va homiylik yordami ko‘rsatib kelmoqda. 2010-yilda ko‘rsatilgan yordam miqdori 2011-yilga nisbatan ikki marta ko‘p. Bu mablag‘larning 17,3 mln so‘mi — qobiliyatli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash fondini tashkil qilishga ajratilgan. 10,5 mln so‘mi — sportni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashga, 9,3 mln so‘mi — shaharlarni ko‘rkamlashtirish va tabiiy ofatlarni bartaraf etishga, 7,9 mln so‘mi — bolalar fondi va nogironlarga yordam sifatida hamda qolgan qismi madaniy dasturlarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan.

Yana qaysi banklar homiylik bilan shug‘ullanadilar? Ma’lumot bering.

## *2-DARS:* IQTISODIYOT NIMA UCHUN O‘RGANILADI?

***142-mashq.*** O‘zaro sinonim bo‘lib kela oladigan ushbu kelishikli va ko‘makchi nutqiy tizimlarni eslab qoling va rus tilidagi shakldoshiga qiyoslang.

| | |
|---|---|
| kimni? / nimani? > so‘radik | kim haqida? / nima haqida? > gaplashdik |
| kimga? — sotib oldi | kim uchun? — sotib oldi |
| kimdan? / nimadan? > ma’lumot yig‘di | kim haqida? / nima haqida? > ma’lumot yig‘di |
| kimdan? — berib yubordi | kim orqali? — berib yubordi |
| nimada? — yozdi | nima bilan? / nima vositasida? > yozdi |

***143-mashq.*** Savollar o‘rniga ma’lumot uchun berilgan so‘zlar, qo‘shimchalar va ko‘makchilardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Odamning yuzi *(nimadan?)* issiq. 2. Fakultetimiz dekani *(kimlarni?)* tabrikladi. 3. *(Kim bilan?)* *(nima to‘g‘risida)* so‘zlashdik. 4. Men kecha ko‘chada *(kimni?)* ko‘rdim, u *(kimga?)* salom

aytib yubordi. 5. O'qituvchimiz *(kimdan?)* kelishiklarning *(nimalarini?)* so'radi. 6. Qushlar juda foydali, chunki ular zararli *(nimalarni?)* yeydilar. 7. Biz *(nimaga?)* tayyorlanish uchun *(kimnikiga?)* yig'ildik.

***144-mashq.*** Harakat bildiruvchi so'zlarni asosiga ko'ra 2 guruhga bo'lib ko'chiring va yasalishi hamda ma'nosini izohlang.

Baho bermoq, aytib bermoq; ko'rib qo'ymoq, baho qo'ymoq; harakat qilmoq; yoza boshlamoq, gullay boshlamoq; yaxshi ko'rmoq, o'qib ko'rmoq; sotib olmoq, sotib bermoq; dod solmoq, artib bermoq, joriy etmoq.

***145-mashq.*** Fe'llarni mos shaklda ishlatib qo'llang va gaplarni tugallang.

1. Milliy o'zlikni anglash ... *(talab etilmoq)*.
2. ... milliy iftixorimiz *(hisoblanmoq)*.
3. Xalq ruhi qudratining birinchi belgisi ... *(sanalmoq)*.
4. Keng miqyosdagi xalqaro aloqalar ... qulay zamin *(yaratmoq)*.

***146-mashq.*** Matnni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

## IQTISODIYOT NIMA UCHUN O'RGANILADI?

Zamonaviy odamning iqtisodiy bilimlarsiz yashashi qiyin. Ovqat, shart-sharoit, kiyim, bo'sh vaqtni o'tkazish — bularning hammasi iqtisodiy imkoniyat bilan aniqlanadi. Iqtisodni o'rganish hayotni yaxshiroq tushunishga va to'laqonli hayot kechirishga imkon beradi. Iqtisodiyotning eng asosiy vazifasi — odamlarning turmush ehtiyojlarini o'rganish va ularni qondirishdan iborat.

Zamonaviy iqtisodiyot faniga XVII asrda asos solingan. O'sha davrdan buyon iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy resurslardan to'g'ri foydalanish, ularni o'rganish va tushuntirish usullari ishlab chiqilmoqda.

Iqtisodchilar uchun ikki dunyo mavjud: hozirgi kun va kelajak hayot. Haqiqiy iqtisodchi hozirgi kunda kelajak uchun zamin yaratib yashaydi. Biz ham hozirgi kunda yashab, O'zbekistonning kelajagi uchun, respublikamizni ilg'or mamlakatlar qatoriga olib chiqish uchun harakat qilishimiz kerak.

? ***Savollarga javob bering:***

1. «Iqtisodiy imkoniyat», «iqtisodiy resurslar» deganda nimani tushunasiz?
2. Sizningcha, iqtisodiy resurslardan to‘g‘ri foydalanish uchun nimalarga e’tibor berish kerak?
3. «Iqtisodchilar uchun ikki dunyo mavjud» tushunchasini o‘z so‘zlaringiz bilan izohlab bering.

! **Topshiriqlarni bajaring:**

1. O‘rin kelishiklarida qo‘llangan so‘zlarni aniqlab, o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan birga ko‘chiring, so‘roqlari va gapdagi o‘rnini tushuntiring.
2. Ko‘makchili konstruksiyalarni ko‘chirib yozing va qo‘llanishini izohlang.
3. Matndagi kelishikli va ko‘makchili konstruksiyalarni ajratib yozing va ularga sinonim bo‘lib qo‘llana oladigan birikmalarni yozib chiqing.
4. Iqtisod, iqtisodchi, iqtisodiyot so‘zlarining ma’nolarini izohlang.

**Faol so‘zlar va so‘z birikmalarini eslab qoling!**

iqtisodiy bilim
iqtisodiy imkoniyat
iqtisodni o‘rganish
iqtisodning asosiy vazifasi

ehtiyojlarni o‘rganish
ehtiyoj hosil qilish
ehtiyojlarni aniqlash
ehtiyojni qondirish

## *3-DARS:* SUG‘URTA VA KREDIT

***147-mashq.*** Matnni o‘qing. Matndagi payt ma’nosini ifodalovchi so‘zlar va birikmalarni aniqlab, guruhlarga bo‘lib yozing.

### SUG‘URTA TARIXIDAN

Sug‘urta tushunchasi pul va kredit tushunchalaridan ancha oldin shakllana boshlagan. Sug‘urta tartibi quyidagi tarzda vujudga kelgan. Dastlabki ibtidoiy jamoa tuzumi davrida har bir oila hayot uchun eng zarur oziq-ovqat zaxiralarini jamlash zaruriyatini tushuna boshlaganda, zaxiralar yetarli bo‘lmasa yoki biror hodisa tufayli qo‘shimcha moddiy ne’matlarga ehtiyoj sezilsa,

qo‘shnilardan qarz olingan, buzilgan imoratlar hashar yo‘li bilan tiklangan. Asrlar davomida qo‘ni-qo‘shnilar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar qishloq va mahalla miqyosida kengaygan.

Ayrim hollarda zarar ko‘lami xo‘jalik uchun katta bo‘lganda, jabrlangan oilalarni og‘ir ahvoldan qutqarish uchun birgalashib mablag‘ to‘plash orqali moddiy yordam uyushtirilgan. Shuningdek, savdo karvonlari uzoq safarda qaroqchilar tomonidan talansa, ko‘rilgan zarar karvon ishtirokchilari o‘rtasida barobar taqsimlangan. Lekin keyinchalik maxsus fond tuzilib, bu fond hisobidan faqat ko‘rilgan zarar emas, balki savdogarning oila a’zolari ham bahramand etilgan.

Ayrim olimlar sug‘urta atamasi dastlab Yevropada qo‘llanilgan degan fikrdalar. Aslida esa miloddan oldin Bobil davlatining yurtboshisi Hammurapi qonunlarida savdo karvonlariga yetkazilgan zarar o‘zaro taqsimlanib, yordam uyushtirilgani ko‘rsatilgan. Bu qonun xalqaro savdo yo‘li bilan boshqa mamlakatlar savdogarlari karvonlariga ham tarqalgan. Hatto Buyuk ipak yo‘li orqali safarda bo‘lgan savdogarlar ham bu usuldan foydalanganlar.

**Topshiriqlar:**

1. Matndagi iqtisodiy atamalarga qisqacha ta’rif bering.
2. Sug‘urta tushunchasi dastavval qayerda va qay tarzda vujudga kelgan? Shu haqida ma’lumot bering.
3. Sug‘urtaning avvalgi shakli va hozirgi shakli o‘rtasida qanday farq bor? Tushuntirib bering.
4. Matndan holat bildiruvchi so‘zlarni topib, bog‘lanishi va qo‘llanilishini tushuntiring.

***148-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## BANK UYLARI

Poytaxtimizning markaziy ko‘chalarida baland va hashamatli ko‘p qavatli uylarga ko‘zingiz tushadi. Barcha havas bilan qaraydigan bu uylarni bank uylari deb ataydilar. Bank uylari «Ipoteka» banki tomonidan aholi bilan kelishilgan holda qurilayotgan uylar bo‘lib, ular har tomonlama qulay va shinam.

Uy olmoqchi bo‘lgan fuqarolar «Ipoteka» banki bilan bitim tuzadilar va ko‘rsatilgan miqdordagi badal pulini to‘laydilar. Qolgan pullar shartnomada ko‘rsatilgan muddatga bo‘lib chiqiladi va

har oy uchun foiz stavkasi belgilanadi. Bu bitimning aholi uchun foydali tomoni uzoq muddatli kredit bo‘lsa, bank uchun foydali tomoni foiz stavkalaridir. Har ikki tomon uchun ham katta naf keltirayotgan ushbu shartnomalar aholini uy-joy bilan ta’minlashga, shahrimizni obodonlashtirishga ham katta hissa qo‘shmoqda.

? ***Savol va topshiriqlar:***

1. Matn asosida quyidagi savollarga javob bering:
a) Siz qanday uyda yashaysiz? (Ko‘p qavatli, davlat uylari, bank uylari, xususiy uylar.)
b) Uyingiz necha xonali?
d) O‘zingiz yashaydigan uyni bank uylariga qiyoslab ta’riflang.
e) Bank uylarini kredit yordamida olishda qanday foiz stavkalaridan foydalaniladi?
f) «Ipoteka» banki haqida kengroq ma’lumot bering.
g) Yana qanday banklarni bilasiz?
h) Ulardan qaysilari uy olishga kredit berish bilan shug‘ullanadi?
2. Matndan belgi bildiruvchi so‘zlarni toping va o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan birgalikda ko‘chirib yozing.
3. Belgi bildiruvchi so‘zlarni qo‘llagan holda bank uylariga ta’rif bering.

***149-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## QOG‘OZ ISHLAB CHIQARISH

O‘zbekiston paxta ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda eng yuqori o‘rinlardan birida turadi. Hozirgi kunda paxta qoldiqlaridan qog‘oz ishlab chiqarish juda katta ahamiyatga ega. Germaniyaning «ESO SX» va O‘zbekiston Respublikasining Mehnat vazirligi bilan hamkorlikda o‘zbek-nemis «Hambum DTM» qo‘shma korxonasi Namanganda tashkil etildi. Yaqin orada yiliga besh ming tonna qog‘oz ishlab chiqaradigan korxona ishga tushirilishi mo‘ljallanmoqda.

Loyihaning narxi 8 mln. dollar bo‘lib, ustav kapitalining 62 foizi O‘zbekistonga, 28 foizi Germaniyaga va 14 foizi Rossiyaning «Reform-express» aksiyadorlik jamiyatiga tegishli. Hozirgi kunda korxona ishga tushirilgan bo‘lib, unda makulatura qaytadan ishlab chiqarilmoqda. Shu bilan birga, paxtani (paxta tolasini) qayta ishlashga kerak bo‘lgan asboblar ham ishga tushirildi. Paxtaning qoldiqlaridan qog‘oz ishlab chiqariladigan asboblar Hindistondan sotib olib kelindi.

**Topshiriqlar:**

1. Matnni o‘qing, unda bir necha savollardan iborat reja tuzing. Matnda qo‘llangan gaplarning tuzilishiga ko‘ra turlarini aniqlang.
2. Quyidagi so‘zlar va so‘z birikmalarini rus tiliga tarjima qiling: *Kichik korxona, aksiyalashtirish, xususiylashtirish, iqtisodiy sharoit, iste’molchi ehtiyoji, ijtimoiy muhit, to‘lov shartlari, ishlab chiqarish.*

***150-mashq.*** Matnni o‘qing. Savollarga javob bering va topshiriqlarni bajaring.

## KREDIT NIMA?

*Kredit* (lot. *creditum* — qarz) — pul mablag‘lari, tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama (foiz) to‘lab qaytarib berish sharti bilan ma’lum muddatga qarz berishdir. Kredit tijorat krediti va bank kreditiga bo‘linadi. Qarzga mablag‘ beruvchi tomon kreditor, ssuda oluvchi tomon esa debitor deyiladi. Qarzdan foydalanish shartlari bilan rasmiylashtiriladi.

Kreditlar ikki xil: qisqa muddatli va uzoq muddatli bo‘ladi. Qisqa muddatli kredit korxona va tashkilotlar aylanma fondlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uzoq muddatli kredit esa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga kapital mablag‘lar ajratish manbayi hisoblanadi.

***Savol va topshiriqlar:***

1. Kreditga o‘z so‘zlaringiz bilan qisqacha ta’rif bering.
2. Kreditning turlari haqida gapirib bering.
3. Kreditor va debitor atamalariga izoh bering.
4. Nuqtalar o‘rniga qo‘shimchalar qo‘yib matnni ko‘chiring. So‘zlarga qaysi kelishik qo‘shimchasini va nima uchun qo‘yganingizni izohlang.

   *Kredit pul mablag‘lar, tovar-xizmatlar... kelishilgan foiz ... to‘lab qaytarib berish. Kredit shartnoma... rasmiylashtiriladi. Qisqa muddatli kreditlar aylanma fondlar... shakllantirishga xizmat qiladi. Uzoq muddatli kredit kapital mablag‘lar... ajratadi.*

5. Nimalarni kredit yo‘li bilan olish mumkin?
6. Imtiyozli kredit deganda nima tushuniladi?

## *4-DARS:* O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

### Atamalar sharhini bilib oling!

### TOVAR

Tovar so‘zi jonli va jonsiz mol ma’nosida o‘zbek va boshqa turkiy tillarda qadimdan ishlatilgan. Mahmud Qoshg‘ariyning «Devoni lug‘atit-turk» (XI) asarida xabar berilishicha, tovar o‘g‘uz lahjasida ishlatilgan va tovar shaklida bo‘lgan. Turk va ozarbayjon tillarida «dovar» shaklida yuritilgan bu so‘z rus tiliga XII—XIII asrlarda «tovar» shaklida o‘zlashgan.

Rus tilidagi bu so‘z asli turkiy «tovar» (mol-mulk va ish, turkiycha «o‘rtoq», «yaqin», «hamkor») so‘zidan tashkil topgan va dastlab «savdo qiluvchi o‘rtoq, savdodagi hamkor» ma’nolarini bildirgan, keyinchalik ma’nosi kengaygan va «tovarish» so‘zi hamkor, hamdam ma’nolarida ham ishlatila boshlangan.

***151-mashq.*** Iqtisodiy-geografik ma’lumotnomani o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

### SAMARQAND VILOYATI




Samarqand viloyati 1938-yilning 15-yanvarida tashkil etilgan. Respublikaning markaziy qismida, Zarafshon daryosining havzasida joylashgan. Maydoni 16,4 ming kv. km. Aholisi 2431,3 ming kishi. Samarqand viloyatida 16 tuman, 11 shahar, 12 shaharcha va 125 qishloq bor.

Samarqand jahonning eng ko‘hna shaharlaridan biri bo‘lib, 2700 yildan ziyod tarixga ega. Samarqand shahrining tarixi uning qadimiy xarobasi Afrosiyobdan boshlanadi.

Viloyat respublikada sanoati va ishlab chiqarishida salmoqli o‘rin tutadi. Qishloq xo‘jaligida, asosan, paxtachilik, ipakchilik, tokchilik, bog‘dorchilik va to‘qimachilik bilan shug‘ullaniladi. Tekislik va tog‘ etaklarida sut va go‘sht olishga ixtisoslashgan qoramol, qo‘y va echki hamda qorako‘l qo‘ylari boqiladi.

Samarqand Osiyo va Afrika mamlakatlari vakillarining uchrashuv va simpoziumlari o'tkaziladigan markazlardan. Samarqandga 1965-yili 60 mamlakatdan 3500, 1966-yili 75 mamlakatdan 7250 sayyoh kelgani qayd qilingan. 1969-yil sentabrda Samarqandda UNESCO tashabbusi bilan O'rta Osiyo xalqlarining temuriy davri san'atiga bag'ishlangan Xalqaro simpozium bo'lib o'tdi. 1970-yil oktabrda Samarqandning 2500 yilligi tantana qilindi. 2001-yildan boshlab har ikki yilda «Sharq taronalari» xalqaro anjumani o'tkazilmoqda.

Hozirgi kunda Samarqand respublikaning yirik sanoat markaziga aylandi. Qishloq xo'jaligi xomashyolarini ishlab beruvchi sanoat hissasi barcha sanoat mahsulotining 4/5 qismini tashkil etadi. Samarqand respublikada tayyorlanadigan uy konditsioneri, kinoapparati, lift, choy, tamaki va mayizning hammasini, ipak gazlama, mineral o'g'itning 19 % ini, uzum vinosining 14 %, konservaning 24 %, paxta tolasining 3,4 % ini beradi.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Samarqand viloyati qachon tashkil etilgan? Uning hududi, aholisi qancha?
2. Viloyatda nechta tuman va nechta shaharlar bor?
3. Viloyatda qanday sanoat korxonalari mavjud, ular qachon (taxminan) tashkil topgan?
4. Samarqand shahriga har yili qancha sayyohlar kelib ketadi?
5. Nima uchun Samarqand «Sharq durdonasi» deb ataladi?
6. Nechanchi yilda Samarqandning 2500 yilligi nishonlangan?
7. Samarqanddagi tarixiy obidalar haqida so'zlab bering.
8. Hozirgi kunda Samarqandda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va mavjud sanoat korxonalari haqida ma'lumot bering.

## *XI bob.* ALLOMALARNING IQTISODIY QARASHLARI
*(HOLATNI IFODALASH)*

## *1-DARS:* BERUNIYNING IQTISODIY KASHFIYOTI

**Bilib oling!**

Holatni ifodalovchi so‘zlar fe’lga bog‘lanib kelib, ish-harakatning qay tarzda bajarilishini bildiradi va ***qay tarzda? qanday? qay holda?*** so‘roqlariga javob beradi. Holatni ifodalashda ravish, fe’lning ravishdosh shakli, iboralar va ko‘makchili birikmalar ko‘p qo‘llanadi. Masalan: *Dars tugashi bilan barcha darhol (qay tarzda? — ravish) tarqaldi. Mashina sekinlashib (qay tarzda? — ravishdosh) to‘xtadi.*

**Holatni ifodalash**

**Vaziyat**

**qanday? qay holda?**
*diqqat bilan, telbalarcha*

**O‘rin**

**qayer? qayerda? qayerga?**
*universitetda, kutubxonaga*

**Payt**

**qachon? qachondan?**
*ertalab, yozib bo‘lgach*

**Sabab**

**nega? nima uchun?**
*uyalganidan, boqish uchun*

**Maqsad**

**nega? nima maqsadda?**
*o‘qishga, topshirish uchun*

**Miqdor-daraja**

**qancha? qay darajada?**
*bir qultum, besh taboq*

**Shart**

**nima qilsa?**
*kelsa, ishlasang*

**To‘siqsizlik**

**nima qilsa-da? (-sa ham)**
*shoshganiga qaramay, bilsa-da (ham)*

***152-mashq.*** Qavs ichidagi so‘roqlarga ma’lumot uchun berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Daraxtda o‘tirgan mayna (qay tarzda?) sayramoqda edi. 2. Bolalar Yo‘ldosh otaga (qay tarzda?) qarab o‘tirishardi. 3. Nazokat dugonasidan (qanday?) hafa bo‘ldi. 4. Qor parchalari (qay tarzda?) yog‘ar edi. 5. Hamma yig‘ilganlar qo‘shiqni (qay tarzda?) tingladilar. 6. Qobil boboning tizzalari (qanday?) titrar edi. 7. Bolalar pastlikka (qay tarzda?) tusha boshladilar. 8. Do‘st (qanday?) gapirar, dushman esa (qanday?).

**Ma’lumot uchun:** *to‘lib-toshib, ko‘zlarini uzmay, astoydil, o‘ynab-o‘ynab, dag‘-dag‘, kuldirib, sekin-asta, kuydirib, berilib.*

***153-mashq.*** Ushbu iboralarda ifodalangan holatni o‘z so‘zlaringiz va boshqa fe’llar bilan tushuntirib bering. So‘ngra ular ishtirokida gaplar tuzib, daftaringizga yozing.

*Namuna: nafasi ichiga tushib ketdi — jim bo‘lib qoldi: Aziz yolg‘oni oshkor bo‘lib qolganini bilib, nafasi ichiga tushib ketdi.*

Nafasi ichiga tushib ketdi, to‘nini teskari kiydi, jahli chiqdi, ko‘zlari chaqchaydi, oyog‘ini qo‘liga olib yugurdi, gapni gapga qovushtirmadi, qo‘li-qo‘liga tegmadi, og‘zidan bodi kirib, shodi chiqdi, labi labiga tegmaydi, bosh egdi, qo‘lni qo‘lga berdi, boshi ko‘kka yetdi, tegirmonga tushsa, butun chiqadi.

***154-mashq.*** Quyidagi so‘zlar va so‘z birikmalarini rus tiliga tarjima qiling.

Arenda jamoasi, majburiy to‘lovlar, jismoniy shaxs, yuridik shaxs, korxona egasi, ishlab chiqarishdagi chiqimlar, sifat nazorati, ichki tekshiruv, jamoalarning taklifi, pul qo‘yuvchi, jarima undirish, xizmat ko‘rsatish.

***155-mashq.*** Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

## BERUNIYNING IQTISODIY KASHFIYOTI

Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy mineralogiya va metallshunoslik bo‘yicha yirik olim edi. U juda katta tadqiqotlar, izlanishlar, amaliy tajribalar o‘tkazib, minerallar tarkibidagi qimmat-

baho metallar hissasini aniqlovchi maxsus o'lchov asbobini yaratdi. Bu asbob pul munosabatlari tarixida, uning rivojlanishida bebaho ahamiyatga ega bo'ldi, chunki uning yordamida turli metallardan yasalgan tangalar tarkibidagi qimmatbaho metallarning haqiqiy miqdorini o'lchash mumkin bo'ldi. Bunday asbobning yaratilishi pullar o'rtasidagi haqiqiy nisbatlarni aniqlash, ularni o'zaro almashtirishning adolatli asoslariga ega bo'lish imkoniyatini berdi.

Beruniy o'zi yasagan asbobning tuzilishini, uning qanday mexanizmlardan va qay usulda yasalganini «Mineralogiya» asarida bayon qilgan.

**?** ***Savollar:***

1. Abu Rayhon Beruniy qaysi soha bo'yicha amaliy tajribalar o'tkazgan?
2. U iqtisod sohasida qanday asbob kashf etgan?
3. Ushbu asbobning tuzilishi va qanday ishlatilishi qaysi asarda bayon etilgan?
4. Beruniy yana qanday asarlar yozgan?

***156-mashq.*** Matnni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

## ABU RAYHON BERUNIY

Bu voqeaning bo'lganiga ming yildan oshdi. Sakkiz-o'n yoshli do'mboqqina bola har kuni ertalab Amu sohili bo'ylab aylanib yurar, har xil o't, giyoh va gullarni, shuningdek, meva, don, mayda toshlarni yig'ishga oshiqardi. Kunlarning birida yiqqan giyohlarni ko'tarib, mahallalaridagi hamma taniydigan tabibga keltirdi-da: «Bobo, bu o'tlarning oti nedur?» deb so'radi. Tabib bobo jilmaydi, bolaning qiziqishidan xursand bo'lib: «Barakalla, bo'tam, qanday yaxshi ish qilibsan. Qara-ya, bular dorivor o'tlar — giyohlar-ku», dedi. Shu tariqa tabib bobo har xil giyohlar va donlarning nomini aytib berar va bolaning tabiatga qiziqishini yanada oshirar ekan.

Bu bolakay bo'lajak ulug' olim Abu Rayhon Beruniy edi.

U 973-yil 4-sentabrda Xorazmda tug'ilgan. Erta yetim qolgan bo'lsa ham, yaxshi odamlarning qo'lida tarbiyalandi. Yoshligidanoq ilm-fanga juda qiziqdi. Ayniqsa, matematika, astronomiya, geografiya va tarix fanlariga doir ko'p kitoblarni o'qib chiqdi. Keyinchalik o'zi ana shu fanlardan kitoblar yoza boshladi.

Yulduzlarni kuzatdi, daryo oqimini o'lchadi, ko'l ostida qolgan baliq suyaklarini topib o'rgandi. Tabiat sirlari bilan qiziqdi. Turli fanlar sohasida kuzatishlar olib borish maqsadida o'zi ko'pgina tajriba asboblarini ixtiro qildi. Beruniy qadimgi Xorazm tilini, turkiy, forsiy va arab tillarini yaxshi bilar edi. Uning «Geodeziya», «O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mineralogiya» kabi o'nlab asarlari dunyoga mashhurdir. U 152 kitobdan iborat ulkan ilmiy meros qoldirgan. Uning bilimdonligi va kashfiyotlari, jahon fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasi tengsizdir. Beruniy 1048-yil 11-dekabrda G'azna shahrida vafot etgan.

**! Topshiriq:**

1. Matndan payt-miqdor ma'nosini ifodalovchi so'zlarni aniqlab, ma'nolarini izohlang.
2. Matndan *qay tarzda?* so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni toping va o'zi bog'langan so'z bilan ko'chirib yozing.
3. Matndan olgan xulosangizni yozing.

## *2-DARS:* ARISTOTEL VA IQTISODIYOT

***157-mashq.*** Quyidagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing va ularni rus tiliga tarjima qiling.

Oldi-sotdi, xalqaro fond, teng huquqni ta'minlash, tarkib, tartibga solish, ta'sir, kengash, darhaqiqat, shuningdek, albatta, so'zsiz, bizningcha.

***158-mashq.*** Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. Matnda keltirilgan joy nomlarining ruscha va o'zbekcha talaffuzi va yozilishiga e'tibor bering.

### КАК ПРОИЗОШЛИ ШАХМАТЫ?

Шахматы называют «королевской игрой» и считают королем среди игр. Шахматам примерно 5000 лет. Мы знаем, что слово «шахматы» произошло от персидских слов «шах мат», что означает «король мертв». Но персы ли создали шахматы? По одной из версий, шахматы зародились среди буддистов в Индии, после распространились в Персию, Аравию, а затем и в Западную Европу. По буддийским

обычаям война и убийство другого человека независимо от целей, преступны. Поэтому, чтобы заменить войну, они и изобрели шахматы.

Сегодня в шахматы играют во всем мире, и миллионы людей следят за международными турнирами, которые проводятся регулярно. Также надо отметить, что сейчас очень популярна игра в шахматы с компьютером.

***159-mashq.*** Berilgan gaplardan holatni ifodalovchi so'zlarni aniqlang va ularning ma'nolarini izohlang.

## ARISTOTEL VA IQTISODIYOT

Aristotel uchun ideal — bekam-u ko'st uncha katta bo'lmagan dehqonchilik xo'jaligi bo'lib, u deyarli kerak bo'lgan barcha mahsulotni yaratuvchi natural xo'jalik bo'lishi shart edi. Uning fikricha, ayrim yetishmagan narsalarni qo'shnilardan «odil almashuv» asosida olish kerak.

Aristotel iqtisodiyotning ayrim toifalari o'zaro bog'lanishini aniqlagan. Aristotelning iqtisodiy tizimi bilan A. Smitning «Xalqlar boyligi» asaridagi fikrlarning hamohangligini ko'rish, qiymat qonunining hosil bo'lish mexanizmini tushunish mumkin.

Siz bu fikrga qanday qaraysiz?

**Topshiriq:**

1. Berilgan savol asosida matnni davom ettiring.
2. Aristotel haqida yana nimalarni bilasiz? Shu haqida so'zlab bering.

## *3-DARS.* AMIR TEMURNING IQTISODIY SIYOSATI

***160-mashq.*** Matnni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

## AMIR TEMURNING IQTISODIY SIYOSATI

Sharq iqtisodiy tafakkurining rivojlanishida ulug' bobokalonimiz, buyuk sohibqiron Amir Temurning iqtisodiy g'oyalari, uning iqtisodiy siyosati mislsiz ahamiyatga ega. «Temur tuzuklari» asarida Amir Temur odamlarga kasb-hunar o'rgatish, ularni ish bilan ta'minlash, tadbirkorlik faoliyati va tijorat ishlari bilan mashg'ul bo'lish uchun yetarli sarmoya berish, yetarli uy-joylar

qurib berish haqida bayon etilgan. U hunarmand, bilimli kishilarni ehtiyot qilish kerakligini ko‘p uqtirar edi.

Sohibqironning yangicha iqtisodiy tarbiyani yo‘lga qo‘yish bo‘yicha amalga oshirgan ishlari biz uchun muhim dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi. «Temur tuzuklari»dagi iqtisodiy qoidalar sharqda g‘arbdan 500—600 yil ilgari hayotiy tajribadan o‘tgan edi.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Quyidagi so‘z birikmalari va so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing: *tafakkur, sarkarda, hayot tashvishlari, tadbirkorlik faoliyati, manfaat, sarmoya berish, iqtisodiy qoida, iqtisodiy g‘oya, mislsiz, dasturulamal.*
2. Nuqtalar o‘rniga matndan mos keladigan so‘zlarni topib qo‘ying va ularning bog‘lanish vositalarini ko‘rsating.

..........
.......... — ta’minlash
..........

..........
.......... — mashg‘ul bo‘lish
..........

..........
.......... — o‘rganish
..........

*39-topshiriq.* Mustaqil o‘qish qismidan «Temur tuzuklari» asarlaridan berilgan parchani o‘qing va Amir Temur davlatining iqtisod va siyosiy tuzilishi haqida so‘zlab bering.

### Ushbu faol so‘zlar va so‘z birikmalarini eslab qoling!

| | |
|---|---|
| iqtisodiy tafakkur | ish bilan ta’minlash |
| iqtisodiy siyosat | korxona ochish |
| iqtisodiy qoidalar | kasb-hunar o‘rgatish |
| iqtisodiy g‘oyalar | sarmoya ajratish |
| iqtisodiy bilim | qarz berish |
| iqtisodiy malaka | homiylik qilish |

## *4-DARS:* ALISHER NAVOIYNING IQTISODIY QARASHLARI

**Bilib oling!**

Ravishdosh harakatning holatini ifodalovchi fe'l shakli bo'lib, **-b (-ib), -a (-y), -gach, -guncha, -gani** qo'shimchalari bilan hosil qilinadi. **-b, -ib, -may, -masdan** qo'shimchali ravishdoshlar o'ziga kengaytiruvchi bo'laklar olib, yoyiq holda qo'llanishi mumkin. Bunday birikmalar ravishdosh oborotlar deb ataladi. Masalan: *U kasalxonada kir yuvuvchi bo'lib ishlar edi. Hamma yoqni yog' tushsa yalaguday qilib tozaladi.*
Bunday birikmalar hech qanday tinish belgisi bilan ajratilmaydi.

**Ushbu misollarni qiyoslang!**

astoydil / tez / sekin → o'qimoq

shoshilib / baqirib / yaxshilab / pichirlab → o'qimoq

*Bular holat ravishlari* — *Bular ravishdoshlar*

***161-mashq.*** Quyidagi so'zlardan harakatni ifodalovchi so'zlar yasang. Ular ishtirokida gaplar tuzing va ona tilingizga o'giring.

Masalan: rivoj — rivojlanmoq.

ong-... , isloh-... , yangi-... , belgi-... , egalik-... , qadam-... .

***162-mashq.*** Nuqtalar o'rniga ma'lumot uchun berilgan so'zlar va birikmalarni qo'yib gaplarni ko'chiring.

1. Nigoraxon ularning hazillariga ... . javob qaytarardi. 2. Oftob yerdagi qorlarni ... . 3. Biz bobom to'g'risidagi hikoyalarni ... tingladik. 4. Ishchilardan biri shoshilmasdan ... javob berdi. 5. Rais cho'ponning ... aytayotgan qo'shig'ini ... tinglab borardi. 6. Sultonmurod do'stini ... kutib oldi. 7. Tevarak-atrofni salobatli tog'lar ... o'rab olgan. 8. Kechasi tiniq osmonda yulduzlar chamani ... porlaydi. 9. Maktabning katta zalida o'quvchilar ... turishibdi.

**Ma'lumot uchun:** *istar-istamas, hazil bilan, tabassum bilan, qiziqish bilan, zavq-shavq bilan, saf tortishib, qanddek, halqa kabi, charaqlab, berilib.*

**163-mashq.** Gaplarni o‘qing. Namunadan foydalanib, holatni ifodalovchi so‘zlarni unga sinonim ko‘makchili birikmalar bilan almashtiring.

*Namuna:* qiziqish bilan — qiziqib, ... .

1. Biz bobomning hayoti to‘g‘risidagi hikoyalarni zo‘r qiziqish bilan tingladik. 2. Sayohatchilar osmono‘par minoralarning salobati va betakror naqshlariga hayrat bilan qarar, ularning tarixi haqidagi gaplarni maroq bilan tinglar edilar. 3. Biz hayajon bilan bitta-bitta qadam tashlab, bemorning oldiga kirdik. 4. Bolalar, odatda, har bir narsaga qiziqish bilan qaraydilar. 5. Dilorom singlisiga taajjub bilan qaradi, u esa hech narsa bo‘lmagandek jilmayib turardi.

**164-mashq.** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## NAVOIYNING IQTISODIY QARASHLARI



Alisher Navoiy buyuk insonparvar, mutafakkir va ulug‘ shoir bo‘lib, uning butun ijodi insonning barkamollikka yetishuviga halaqit beruvchi salbiy illatlarni bartaraf qilishga qaratilgan edi. Alisher Navoiy yashagan davrda markazlashgan davlat yanada mustahkamlandi, tashqi savdo ham, mamlakat iqtisodi ham birmuncha rivojlangan. Qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik sohasida muayyan yutuqlarga erishildi. U shoh Husayn Bayqaroning ham do‘sti, ham bosh vaziri sifatida mamlakatning rivojiga katta hissa qo‘shdi: ko‘plab ariqlar qazdirdi, rabotlar qurdirdi, qiynalgan, muhtoj odamlarga yordam berdi, o‘zaro nizolarni tinch yo‘l bilan bartaraf etishga erishdi. Alisher Navoiy mahalliy va ajnabiy savdogarlar faoliyatini kuzatar ekan, ular haqida quyidagi fikrni bayon qiladi:

«Savdogar dastlab halol rizq topishi, jamiyatga xizmat qilishi kerak. U tog‘-toshlarda, dasht-biyobonlarda yuradi, dengiz va suv toshqinlarida foyda va zarar ko‘radi. Halol rizq topaman deb

uzoq mashaqqatli yo‘llarni bosadi. Ammo ayrim insofsiz savdogarlar esa xaridorlarni, ayniqsa, faqirlarni aldab, ularning hisobiga yashaydilar. Shu sababli ularning bo‘yinlarida faqirlarning haqlari bor».

**!** **Topshiriqlar:**

1. Alisher Navoiy davlat tizimida qanday lavozimda bo‘lgan? Matndagi sifatlarni aniqlang.
2. U mamlakat rivojiga qanday hissa qo‘shgan?
3. Shoirning ibratli hikmatlari va ruboiylaridan yod oling.

## *5-DARS:* ABDURAUF FITRATNING IQTISODIY G‘OYALARI

### O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni moddalarini yodda tuting!

**22-modda.** Respublikaning ma’muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko‘chalari va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

**23-modda.** O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnoma matnlari, agar shartnomaning o‘zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonlarning tilida yoziladi.

**24-modda.** O‘zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o‘zaro muomala, tarbiya va ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

***165-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

### ABDURAUF FITRATNING IQTISODIY G‘OYALARI

Abdurauf Fitrat o‘z vatani — Turkistonning mustaqillikka ikki yo‘l bilan erishish mumkinligini chuqur his qildi va bu yo‘lda qat’iy va shijoat bilan kurash olib bordi. Mustaqillikka erishishning birinchi yo‘li — xalqni ma’rifatli qilish, ziyo tarqatish, dunyo xalqlari erishgan ma’rifat va madaniyatdan bahramand etish, odamlarda iqtisodiy fikrlash tuyg‘usini uyg‘otish, vatan taqdiri va kelajagi uchun mas’ullik ruhida tarbiyalashdir.

Ikkinchi yo‘l — Turkistonning o‘z milliy iqtisodiyotini yaratish, mustaqil iqtisodiyot asoslarini qurish g‘oyasidir. Buning uchun Turkiston zaminida foydalanilmay yotgan tabiiy yerosti boyliklarini o‘zlashtirish, milliy hunarmandchilikni jahonning ilg‘or mamlakatlari erishgan yutuqlar asosida rivojlantirish, zamonaviy sanoat korxonalarini qurish, xorijiy texnika, sarmoya va ilm-fan yutuqlarini milliy iqtisodiyot manfaatlariga jalb etish lozim deb bildi.

Abdurauf Fitrat o‘z g‘oyalarini amalga oshirish uchun asarlar yozdi, maktablar tashkil etdi, ma’rifat ishlari bilan shug‘ullandi. Buyuk ma’rifatparvar Fitratning iqtisodiy dunyoqarashi bayon etilgan asarlaridan biri «Hind sayyohining qissasi» nomli asardir. Bu asarda milliy iqtisodiyotni barpo etish g‘oyasi, Turkistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to‘g‘risidagi muallifning taklif va mulohazalari bayon etilgan.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Abdurauf Fitrat kim bo‘lgan?
2. U mustaqillikka qanday yo‘llar bilan erishish mumkin deb hisoblagan?
3. Fitratning iqtisodiy dunyoqarashi bayon etilgan qaysi asarlarni bilasiz?
4. Matndagi gaplardan foydalanib, holat ma’nosini ifodalovchi gaplar tuzing.
5. Hozirgi kunda o‘zbek iqtisodiyotini rivojlantirishda qaysi yo‘nalishlar qo‘llanayotgani haqida so‘zlab bering.

***166-mashq.*** Lug‘at yordamida ushbu atamalar ma’nolarini izohlang.

Valuta, inflatsiya, investitsiya, raqobat, import, eksport, narx, pul, mulk.

***167-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## SAVDO TURLARI

Firma rahbarlari xaridorlarni o‘z mahsulotlariga qiziqtirish uchun har doim savdoning yangi usullarini tashkil etadilar.

XX asrning 80-yillarida AQSHda ishlab chiqarish kompaniyalari do‘kondan tashqari bo‘lgan savdo tizimini tashkil etdi. Bu tizim xaridorlarga qulay imkoniyat berdi, chunonchi, ular uydan chiqmasdan mahsulotlarni sotib olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Bunday tizimning tashkil etilishi vositachi firmalarning ishlab chiqarish kompaniyalari mahsulotini ko‘p miqdorda sotib olib, so‘ng bozorda baland narxda sotib foyda ko‘radiganlardan qutulish uchun mo‘ljallangan. Savdoning bu turi ishlab chiqarish kompaniyalari va xaridorlar uchun juda qulay, chunki ular bir-birlari bilan video va kompyuterlar orqali muloqot qilishadi.

**!** **Topshiriqlar:**

1. Matnga reja tuzing va reja asosida so‘zlab bering.
2. Quyidagi so‘zlarni rus tiliga tarjima qiling:
   *Xo‘jalik faoliyati, moliyaviy barqarorlik, xarajatlar, sof daromad, iqtisodiy xarajatning natijasi, foyda, olibsotar, tejash imkonini yaratish.*
3. Matndan payt ma’nosini ifodalagan so‘zlarni aniqlab, guruhlab ko‘chiring.
4. Matndagi miqdor bildiruvchi so‘zlarni aniqlab, o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chirib yozing.
5. Fe’llarning shaxs-son qo‘shimchalariga e’tibor bering.

## *6-DARS:* O‘TILGANLARNI TAKRORLASH

***168-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

### MOLIYA TARIXIDAN

«Moliya» fani G‘arbda XV—XVI asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan. O‘rta Osiyoda moliya haqida tushuncha berilgan asarni ilk marotaba yaratgan davlat arbobi va shoir Zahiriddin Boburdir (1483—1530-y.). U yozgan iqtisodga oid «Mubayyin» asari soliqqa tortishning asosiy xususiyatlariga bag‘ishlangan.

Moliya atamasi dastlab «Temur tuzuklari»da qo‘llanilgan. Ushbu kitobda Movarounnahr davlatida ish yuritish, g‘azna, maosh to‘lash masalalari, soliq, soliqqa tortish, yer solig‘i va boshqa masalalar aks ettirilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy ham iqtisod masalalari bilan shug‘ullangan.

**!** **Topshiriqlar:**

1. Berilgan savollar asosida matnni qayta so‘zlab bering.
   a) iqtisod va moliya munosabatlari haqida so‘zlab bering.
   b) moliya va soliq tizimining munosabatlari qanday?
   d) moliya bo‘yicha nimalar faoliyat olib boradi?

2. Matnni quyidagi yo‘nalishda davom ettiring:
a) qanday banklar bor? ...
b) ular nimalar bilan shug‘ullanadi? ...

*169-mashq.* Iqtisodiy-geografik ma’lumotnomani o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## BUXORO VILOYATI




Buxoro viloyati 1938-yilning 15-yanvarida tashkil etilgan. Maydoni 39,4 ming kv. km. Aholisi 1315,2 ming kishi.

Buxoro viloyati respublikaning janubi-g‘arbida, Zarafshon daryosi bo‘yida joylashgan. Buxoro viloyatida 11 tuman, 10 shahar, 3 shaharcha va 107 qishloq bor.

Buxoro shahri viloyatning ma’muriy, iqtisodiy va madaniy markazidir. Viloyatda paxtachilik, mevachilik, qorako‘lchilik, shuningdek, parrandachilik rivojlangan. Sanoati, asosan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlab berish, shuningdek, yerosti boyliklari — gaz, neft, qimmatbaho metallar qazib chiqarishga asoslangan.

Buxoro dunyodagi eng qadimiy va mashhur shaharlardan biridir. Buxoro islom olamida «Ikkinchi Madina» nomi bilan shuhrat qozongan. O‘rta asrlarda Buxoroda juda ko‘p madrasalar qurilgan. Sharq uyg‘onish davrining barcha mashhur namoyandalari Buxoroda tahsil olganlar. Tabobat ilmining asoschisi Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy kabi buyuk insonlar Buxoroda yashab ijod etishgan. Hozirgi kunda ham Buxoro o‘zining Minorayi Kalon, O‘rda, Sitorayi Mohi Xosa kabi madrasa va minoralari, zardo‘zlik sanoati va qadimgi tangalari bilan butun dunyo sayyohlarini jalb qiladi. Har yili Buxoroga ko‘plab sayyohlar kelib ketishadi.

**?** ***Savollarga javob bering:***

1. Buxoro amirligi va uning Buxoro viloyati sifatida qayta tashkil etilishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Viloyatda nechta tuman, nechta shahar va shaharcha bor?

3. Viloyatda qanday sanoat korxonalari mavjud, ular qachon (taxminan) tashkil topgan?
4. Viloyatda qanday qishloq xo‘jaligi sohalari rivojlangan?
5. Nima uchun Buxoro «Ikkinchi Madina» deb atalgan? Buxoroda qanday mashhur kishilar tahsil olgan?
6. Nima uchun Buxoroga sayyohlar ko‘p keladi?
7. Siz Buxoroda bo‘lganmisiz? Taassurotlaringizni so‘zlab bering.

**!** **Topshiriqlar:**

1. Matndagi belgi-xususiyat bildiruvchi so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ikki ustunga ajratib ko‘chirib yozing.
2. Matndagi kasb-hunar otlaridan shaxs otlari hosil qiling va ularni juftlab yozing.
3. O‘zbekiston xaritasidan foydalanib, Buxoroning joylashgan o‘rni, relyefi haqida so‘zlab bering.
4. Rasmda tasvirlangan minora yoki madrasaga ta’rif bering. O‘z ta’rifingizda shakl-hajm, rang-tus bildiruvchi so‘zlardan foydalaning.
5. Tuzgan gaplaringizdagi sifatlovchilarni darajalab qo‘llang.
6. Internetdan foydalanib, Buxoro haqidagi ma’lumotlarni to‘ldiring va ijodiy insho yozing.

## *XII bob.* **VAQT — OLTINDAN QIMMAT**
## *(PAYT MA'NOSINI IFODALASH)*

### ***1-DARS:*** **TARIX, BUGUN, KELAJAK**

***170-mashq.*** Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar va qo'shimchalarga diqqat qiling.

Men <u>bugun</u> seminar darsida faol qatnash<u>dim</u> va yaxshi baho oldim, chunki kecha uyga berilgan barcha topshiriqlarni puxta <u>bajargan edim</u>. Ertaga amaliyot o'tish uchun korxonaga <u>boramiz.</u> <u>Bu yil</u> o'qishlarim ancha yaxshi. <u>Avvallari</u> o'z fikrimni dadil aytishga tortin<u>ar edim.</u> <u>O'tgan yili</u> biror marta ham doska oldida javob berma<u>gan</u>man. <u>Hozir</u> hayotda erkin va mustaqil bo'lish kerakligini bilaman. Kelgusida o'z hayotimda katta yutuqlarga erish<u>moqchi</u>man, shuning uchun <u>hozirdan</u> faol harakat <u>qilyapman.</u>

**Bilib oling!**

Payt ma'nosi payt ravishlari, vaqt bildiruvchi so'zlar o'rin-payt, jo'nalish, chiqish kelishigidagi so'zlar, ko'makchilar vositasida ifodalanadi va **qachon? qachongacha? qachonga qadar? qachondan? qachondan boshlab? (beri, buyon)** kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan: *Bu yil dalalarda hosil mo'l. Kechqurun soat 5 da uchrashamiz.* Payt ma'nosini bildiruvchi so'zlar ko'pincha gapning boshida keladi.

**Payt ravishlari va payt ma'nosini bildiruvchi otlar va sonlarning ma'nolaridagi farqlarni bilib oling!**

| **Ravishlar** | **Otlar va sonlar** |
|---|---|
| ertalab | soat 6 da |
| kechqurun | soat 18 da |
| bu yil | 2005-yil |
| keyin, so'ng | 2 soat o'tgach |
| Bular noaniq paytni bildiradi | Bular aniq vaqtni bildiradi |

***171-mashq.*** Nuqtalar o‘rniga ma’lumot uchun berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni namunadagi kabi bir necha shaklda yozib chiqing, ma’nosidagi farqlarni ko‘rsating.

*Namuna:* Biz siz bilan ertaga uchrashamiz.
Biz siz bilan tushdan keyin uchrashamiz.
Biz siz bilan soat 15.30 (uch yarim)da uchrashamiz.

1. Biz ... badantarbiya bilan shug‘ullanamiz. 2. Onam bilan xolam ... sanatoriyga ketishdi. 3. ... yig‘sang, ... yeysan. 4. ... o‘tgan yomg‘irning salqini sezilib turibdi. 5. Ular ... gaplashib o‘tirishdi. 6. ... eshik ochilib, Akbarali ko‘rindi. 7. Bog‘lardagi ko‘chatlar ... hosilga kirdi. 8. ... osmonni qora bulut bosdi. 9. Hammamiz ... qilinadigan ishni ... belgilab oldik. 10. Qish g‘amini ... ye. 11. ... qattiq shamol boshlandi.

**Ma’lumot uchun:** *kechga yaqin, har kuni, ertalab, har kuni, kunda, erta, yaqinda, har yili, ancha paytgacha, yozda, kechqurun, ertasiga.*

***172-mashq.*** 169-mashqda berilgan matn asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Har bir gapdagi payt ma’nosini ifodalovchi so‘zlarni fe’lning zamon shakli bilan qay darajada mosligini izohlang.
2. Matndagi holatni ifodalovchi so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan ko‘chirib yozing va ma’nosini tushuntiring.
3. Har bir gapni boshqa shaxs nomidan ayting hamda fe’llarda yuz beradigan o‘zgarishlarini ko‘rsating.
4. Qaysi gaplarni bo‘lishsiz shaklda aytish mumkin?

### «Kun» so‘zining ma’nolarini bilib oling!

| | |
|---|---|
| kun — день | kun — житье, существование |
| kun ora — через день | kun ko‘rmoq — жить, существовать |
| kun bo‘yi — весь день | o‘tgan kuni — позавчера |
| kundan kunga — изо дня в день | kuni bitdi — наступают последние дни жизни |
| kundagidek — как всегда | kun bermaslik — не давать жить |

***173-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## OSIYONING BESHINCHI AJDARI

Shenchjen Xitoyning janubida joylashgan ochiq iqtisodiy zona bo‘lib, Xitoy sarmoyadorlarining kapitalistik amaliyotni o‘rganishlari uchun tajriba vazifasini o‘tamoqda. Qisqa vaqtda «madaniy revolutsiya» davrida «qotib qolgan baliq ovchilari qishlog‘i» Shenchjen 2 mln aholi yashaydigan shaharga aylandi.

Bu yerda birinchi marta chet elliklarga ochiq savdo — yer sotish auksioni o‘tkazilib, Xitoyda birinchi fond birjasining ochilishiga sabab bo‘ldi.

Osiyoning beshinchi iqtisodiy ajdariga aylanmoqchi bo‘lgan Xitoyning janubida joylashgan Shenchjen shahri — mashhur Koreya, Singapur davlatlari qatoriga kirmoqchi. Iqtisodiy o‘sishning o‘rtacha tezligi 30 % (mamlakat bo‘yicha o‘rtacha 6—7 %). Bu holat rejaga jiddiy rioya qilishni taqozo etadi.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Matndagi mamlakatlar nomlarini yozib oling, har birining geografik joylashish o‘rni va xalqaro mavqeyi haqida ma’lumot bering.
2. Matndagi o‘rin va makon ma’nosini ifodalagan gaplarni ko‘chirib yozing va o‘rin ma’nosining qanday vositalar bilan ifodalanganini izohlang.
3. Matndagi fe’llar va fe’l shakllarini ko‘chirib yozing, har birining zamonini tushuntiring.
4. Ushbu fe’llar bilan bog‘lanishi mumkin bo‘lgan so‘zlar va birikmalarni yozib chiqing.

Qayerga? / Qay tarzda? → kirib bormoqda

Nimaga? / Qayerda? → sabab bo‘ldi

Qayerga? / Qachon? → kirmoqchi

5. Matndagi belgi-xususiyatni ifodalovchi so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan yozing va ifodalanishini tushuntiring.

6. Matndagi qo'shtirnoqqa olib yozilgan so'zlarning ma'nolarini izohlang.
7. Miqdor bildiruvchi so'zlarning va miqdorning ifodalanishiga ko'ra turlarini yozing.
8. Osiyoning qolgan 4 ajdari qaysi mamlakatlar? Ular haqida so'zlab bering.

## *2-DARS:* VAQTING KETDI — BAXTING KETDI

**Bilib oling!**

Son so'z turkumi aniq va noaniq vaqtni bildirishga xizmat qiladi. Sonlar *chamasi, taxminan* so'zlari bilan yoki **-tacha, -larcha, -lab, -larda** qo'shimchalari qo'shilganda, shuningdek, ikki son juftlab qo'llanganda taxminiy vaqtni bildiradi. Masalan:

| **Aniq vaqt** ↑↓ | **Noaniq vaqt** ↑↓ |
|---|---|
| Soat 12 da uchrashamiz. | Soat taxminan 12 larda uchrashamiz. |
| 200 odam yig'ildi. | 200 tacha odam yig'ildi. |
| Bolaning yoshi 14 da. | Bola 14—15 yoshlarda. |

***174-mashq.*** Gaplarni o'qing. Sonlarning ma'nolarini izohlang, har bir gapni aniq va noaniq vaqtni ifodalovchi shaklda yozib chiqing.

1. Nodirabegim XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon shahrida yashagan. O'g'li Madalixon hukmronlik qilgan yillarda (1822—1842) davlatni boshqarish ishlari asosan malika Nodirabegimning qo'lida bo'lgan. 2. Dilshod Barno bir asr umr ko'rgan shoiradir (1800—1905). 1800-yilda O'ratepada (qadimgi Istravshan shahri) tug'ilib, keyinchalik Qo'qonda yashab ijod qilgan. XIX asrning mashhur shoiralaridan biri Anbar otin (1870—1915) Dilshod Barnoning iste'dodli shogirdi edi.

3. Bobur avlodidan bo'lgan shoira va olima Zebunniso (1639—1706) Hindistonning Dehli shahrida tug'ilgan. U o'z she'rlarini fors-tojik tilida yozgan.

*40-topshiriq.* Suhbatni rolli o'qing. O'zbek tilida aniq vaqtning bildirilishiga e'tibor bering.

— Kechirasiz, soatingiz bormi?
— Ha.
— Menga soat necha bo‘lganini aytib bera olmaysizmi?
— Soat 11 dan 30 daqiqa o‘tdi, ya’ni 11 yarim bo‘ldi.
— Mening soatim to‘xtab qolibdi. 15 daqiqasi kam 11 ni ko‘rsatyapti, ya’ni endi 11 bo‘libdi.
— Yo‘q, mening soatim to‘g‘ri. Ishonsangiz bo‘ladi.
— Rahmat.

***175-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## TAYVANNING MADANIY YUKSALISH YO‘LI

Tayvan Xitoyning sharqida joylashgan kichik oroldir. 1949-yilgacha u Xitoy tarkibiga kirar edi. Keyinchalik Tayvan mustaqil deb e’lon qilinib, g‘arb dunyosining tarkibiy qismiga aylandi. Tayvan ikki tilli mamlakatdir, aholi xitoy va ingliz tillarida erkin so‘zlashadi.

Mustaqillikning birinchi yillarida mamlakatda maktablar yetishmasdi, ko‘pchilik ota-onalarning bolalari uchun daftar va portfellar sotib olish imkoniyatlari yo‘q edi, butun sinf bitta darslik bilan o‘qir edi.

Hukumat savodsizlikni tugatish yo‘lida chora-tadbirlar olib borardi. Ko‘p maktablar qurildi, oldin majburiy olti yillik, yillar o‘tib to‘qqiz yillik majburiy ta’lim kiritildi. Hozirgi vaqtda Tayvanning aholisi 20 milliondan iborat bo‘lib, mamlakatda 120 ta universitet va kollejlar faoliyat ko‘rsatmoqda.

1976-yili butun dunyo Tayvanning iqtisodiy jihatdan tez sur’atlar bilan yuksalayotgani to‘g‘risida gapira boshladi. Mamlakat Prezidenti «milliy madaniyatning saviyasini ko‘tarish, ichki siyosatning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi», deb ta’kidlaydi.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Matndan payt ma’nosini ifodalovchi so‘zlar va birikmalarni quyidagi guruhlarga ajratib ko‘chiring:
— aniq vaqtni ifodalovchi so‘zlar;
— umumiy vaqtni ifodalovchi so‘zlar.
2. Tayvandagi ta’lim bosqichlari haqida ma’lumot berilgan gaplarni topib ko‘chiring va bizdagi ta’lim tizimi bilan qiyoslang.

3. Respublikamizdagi ta'lim bosqichlari va kelajak rejalaringiz haqida so'zlab bering.
4. Savollarga javob yozing.

Qanday? → ta'lim
Necha yillik? → ta'lim

***176-mashq.*** Matnni o'qing va o'zbek tiliga o'giring. Fe'llarning nisbat shakllarining rus va o'zbek tillarida berilishini qiyoslang.

## ВРЕМЯ ДОРОЖЕ ДЕНЕГ

Потерянный гривенник можно заработать снова, а вот упущенная минута исчезнет навсегда. И нет на свете ни силы, ни средства, способных вернуть самое крошечное мгновение.

Минута? Чего стоит эта шестидесятая доля часа. Двадцать вздохов? Семьдесят два удара сердца?

Сколько тебе надо времени, чтобы прочесть две страницы? Две-две с половиной минуты. Значит, за пять минут ты можешь прочесть две страницы. А трудно ли сберечь пять, всего пять минут в день? Совсем не трудно. Но если это время выразить в страницах, которые можно прочесть за год, то выйдеть семьсот тридцать страниц! Иными словами — три книги.

Подумай, пожалуйста, насколько же можно стать образованнее, прочитав сто пятьдесят-двести «лишних» книжек в жизни. И только за счёт такой пустяковой экономии времени — пять минут в день.

## *3-DARS:* YANGI DAVR YANGILIKLARI

**Bilib oling!**

Payt ma'nosi qo'shma gaplar vositasida ham ifodalanishi mumkin. Bunday gaplar fe'lning **-gach (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, -quncha), -gacha** shakllari hamda **-gandan so'ng (keyin)** qo'shimchasi va ko'makchilar yordamida bog'lanadi. Ushbu qo'shimchalar asosan birinchi gap tarkibida bo'ladi. Payt ma'nosini ifodalovchi qo'shma gaplar tarkibida **qachon? qay vaqt?** so'roq olmoshlari hamda **o'shanda, o'sha paytda, o'sha vaqtda** kabi ko'rsatish olmoshlari ishtirok etadi.

***177-mashq.*** Badiiy asarlardan olingan gaplarni o'qing. Payt ma'nosini ifodalovchi qo'shma gaplarning bog'lanish vositalarini ko'rsating.

1. Gulga to'lib bahor kelganda, yuragimda havas uyg'ondi. *(H. O.)* 2. Ko'kda yulduz uchsa nogahon, ketdi deyman qaysi bir taqdir. 3. Tong otgach, Yo'lchi tog'asinikiga ravona bo'ldi. *(O.)* 4. Men kelgunimcha, oshxona, uylarni tozalab qo'y. 5. Bog', qo'rg'onlar orqada qolgach, Oqsoy bo'yicha chiqiladi. *(S. A.)* 6. Kema sohildan uzoqlashgach, kutilmaganda qattiq shamol boshlandi. 7. Tog'ni oqshom qorong'isi chulg'ab ola boshlagan paytda, gulxan yoqishni boshladik. 8. O'qishimiz tamom bo'ldi deguncha, biz chumchuq qidirib shu yerga kelardik.

***178-mashq.*** Nuqtalar o'rniga ma'lumot uchun berilgan so'zlardan mosini qo'yib, matnni ko'chiring. Payt ma'nosining sodda va qo'shma gaplar bilan ifodalanishiga e'tibor bering.

... havo bulut bo'lib, ... yomg'ir yog'di. ... o'qishdan qaytib kelayotganimizdagina tindi. Yomg'ir tingach, ufq qip-qizil bo'lib ketdi. Dadamlar: «Ufq qizarsa, ... havo yaxshi bo'ladi», deydilar. Mana, ... havo ochiq. Ertalabki sof havoda rohat qilib nafas oldim. Kuzda ... ancha salqin bo'ladi. ... quyosh ko'tarilgach, kun juda qattiq isib ketadi. Ayniqsa, ... sayr qilish kishiga rohat baxsh etadi.

**Ma'lumot uchun:** *endi, ertasiga, bugun, kun bo'yi, ertaga, kechqurun, kecha, peshinda, tongda, ertalablari.*

**Topshiriq:**

Siz tabiat hodisalarini kuzatganmisiz? O'zingiz ko'rgan g'aroyib hodisalar haqida so'zlab bering.

***179-mashq.*** Matnni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

## PLASTIK KARTOCHKALAR

Davr talabiga mos ravishda O'zbekiston Respublikasidagi banklar boshqa rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar kabi xalqaro plastik kartochkalar dasturini faol rivojlantirmoqda. Plastik kartochkalarning ma'nosi naqd pulsiz hisob-kitobdir. Plastik kartochkalarning imtiyozli xususiyati shundan iboratki, u mijozlarga yiliga 14 % pul ajratadi.

Yurtimizda xalqaro standartlar bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi mehmonxonalar, restoranlar, sug‘urta kompaniyalari, tayyor chiptalarni sotish joylari, yirik supermarketlarda tovarlar sotib olish va xizmatlar ko‘rsatish uchun pul to‘lashda plastik kartochkalardan foydalanish mumkin.

Plastik kartochkalar operatsiyalari kompyuterda bajariladi. Kompyuter mijozning plastik kartochkasiga kirim yoki chiqim qilinganligi haqida kvitansiya chiqarib beradi. Plastik kartochka egalariga bank xodimlari tomonidan alohida «parol» o‘rnatiladi.

? ***Savol va topshiriqlar:***

1. Plastik kartochkalardan qanday foydalaniladi?
2. Nima uchun plastik kartochkalar pulsiz muomala usuli hisoblanadi?
3. Plastik kartochkalardan qachon va qay tarzda foydalanish mumkin?
4. Siz plastik kartochka ishlatasizmi? Plastik kartochkaning afzallik tomonlari haqida so‘zlab bering.

*39-topshiriq.* Suhbat matnini o‘qing. Banklarda, kassalarda ko‘p ishlatiladigan so‘zlar va muomala odobiga oid birikmalarni ko‘rsating.

— Assalomu alaykum.
— Vaalaykum assalom.
— Xizmat?
— Sizning kassangizga 50 ming so‘m pul chiqim qilmoqchiman.
— Pasportingizni va plastik kartochkangizni bering.
— Marhamat, oling.
— Iltimos, terminalga plastik kartochkangizni kiriting va o‘z parolingizni ham yozib, chiqim qilinayotgan summangizni ham yozing.
— Yozdim.
— Marhamat, pulingizni oling.
— Rahmat, xayr.

***180-mashq.*** Matnni o‘qing, savol va topshiriqlarni bajaring.

## «IPOTEKA» BANKI

Aksiyadorlik tijorat «Ipoteka» banki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 16-fevraldagi «Uy-joy qurilish va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori asosida «O‘zuyjoyjamg‘armabank» va «Zamin» banklari negizida tashkil etilgan.

Har qanday yirik kompaniyaning olg'a siljishida, ko'rsatkichlarning yuqori bo'lishida filiallarning barqaror faoliyat ko'rsatishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu holatni inobatga olib, «Ipoteka» bankining 39 ta filiali ochilgan. Bu filiallar Markaziy bankda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan. Mijozlarning keng doiradagi talablarini qondirish, qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida, minibanklar tarmog'i vujudga keltirildi.

Hozirgi kunda mavjud 130 ta minibanklar tarmog'iga qo'shimcha ravishda 600 ta ixtisoslashgan kassa faoliyat ko'rsatmoqda. Aholidan to'lovlarni qabul qiluvchi bu kassalarning 310 tasi Toshkent shahrida joylashgan bo'lsa, 290 tasi respublikamizning barcha viloyat va tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

«Ipoteka» banki nafaqat filial va minibanklar, balki valuta ayirboshlash va pul o'tkazish «Western Union» shoxobchalari sonini ham oshirdi. Bank tizimida 141 ta valuta ayirboshlash va 65 ta «Western Union» shoxobchalari aholiga xizmat qilib kelmoqda. Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati, «O'zmetkombinat», Toshkent lok-bo'yoq zavodi, «Ohangaronshifer», «Ohangaronsement», «O'zbekkimyolash», «O'zbekrezinotexnika», «Sanoatqalin-qog'ozsavdo», Toshkent metropoliteni, Toshkent shahar bozorlari, «O'zkommunxizmat» agentligi hamda hududiy gaz boshqarmasi, qurilish korxonalari hamda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar, shuningdek, vazirlik va idoralar, viloyat munitsipal tashkilotlari kabi qator yirik korporativ mijozlar bankka o'zlarining hamkorlari sifatida qaraydilar va ular, o'z navbatida, bankning asosiy qarz oluvchi mijozlari hisoblanadilar.

**?** ***Savollarga javob bering:***

1. «Ipoteka» banki qachon va qaysi qaror asosida tashkil etilgan?
2. «Ipoteka» bankining asosiy faoliyat yo'nalishi nimalardan iborat?
3. Bank qoshida tashkil etilgan minibanklar qanday maqsadni amalga oshirmoqda?
4. Hozirgi kunda ushbu bank kreditlaridan foydalanish ko'lamining ortib borayotgani sabablari nimada?
5. «Ipoteka» banki xizmatidan foydalanish uchun qanday hujjatlar zarur bo'ladi?

**! Topshiriqlarni bajaring:**

1. Bank xizmatidan foydalanish foizlari va shartlari haqida ma’lumot bering.
2. «Ipoteka» bankining imtiyozli kreditlari, ularning foizlari haqida ma’lumot bering.
3. «Obod turmush yili»da respublikamizda yosh oilalarga berilgan imtiyozlar va bunda «Ipoteka» bankining roli haqida ma’lumot bering.

## *4-DARS:* O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

**Bilasizmi?**

### MAVOZA NIMA?

Ko‘p asrlardan buyon mavoza tovarlar va xizmatlarni boshqa tovarlarga va xizmatlarga pulsiz ayirboshlash usuli bo‘lib kelgan.

O‘rta asrlarda tovar ayirboshlash juda ommabop bo‘lgan. Bu o‘rinda Yevropani eslash yoki Buyuk ipak yo‘li orqali Osiyo karvonlarining g‘arbda Xitoy chinnilari, yapon ipagi va boshqa mahsulotlarni olib borib, bu yoqqa esa metall, yog‘ochdan yasalgan buyumlarni olib qaytishgan.

Oradan bir necha yuz yillar o‘tsa-da, mavoza usuli hamon dolzarbligicha qolmoqda, biroq uning shakli o‘zgardi. Mavoza ham savdoning muqobil shakliga aylandi.

Endilikda mavoza tizimi kompyuterlar bilan boshqariladigan elektron bozorni ifodalaydi.

Ushbu bozor tovarlar va xizmatlarni ayirboshlash ishlarini amalga oshiradi, moliyaviy tushumni muqobillashtiradi, samarali reklama va kompaniyalar taqsimotini ta’minlaydi.

**! Topshiriqlar:**

1. Matndan zamon ma’nosini ifodalovchi so‘zlarni va birikmalarni ajrating.
2. Fe’llarning zamon shakllarini aniqlang va ifodalanishini tushuntiring.

181-mashq. Iqtisodiy-geografik ma'lumotnomani o'qing va topshiriqlarni bajaring.

## SIRDARYO VILOYATI




Sirdaryo viloyati O'zbekiston Respublikasining sharqiy qismida, Sirdaryo vohasi bo'yida joylashgan bo'lib, 1963-yil 16-fevralda tashkil etilgan. Umumiy hududi — 5,3 ming kv. km, aholisi — 775,2 ming kishi. Viloyat tarkibida 8 tuman, 5 shahar va 75 qishloq bor. Ma'muriy markazi — Guliston shahri. Eng katta shaharlari — Yangiyer, Sirdaryo, Shirin.

Viloyat hududining yarmi Mirzacho'l sahrosidan iborat bo'lib, suv tanqisligi va yerlarning sho'rlanishi natijasida bu yerlar uzoq vaqt bo'sh yotgan. O'tgan asrning 60-yillarida qo'riq yerlarni ko'plab o'zlashtirish natijasida Sirdaryo viloyatida paxta yetishtirish qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'iga aylandi. Hozirgi kunda viloyatda paxtachilik bilan bir qatorda bog'dorchilik, mashhur Mirzacho'l qovun-tarvuzlari, pomidor, bodring, sabzi, kartoshka, piyoz kabi poliz mahsulotlarini yetishtirish, shuningdek, chorvachilik sohalari rivojlangan.

Viloyatda yer ostidan qurilish materiallari uchun xomashyolar qazib olinadi. Sanoat xo'jaligida ushbu materiallardan qurilish mollari tayyorlash, mashinasozlik detallarini ishlab chiqarish, paxtani qayta ishlash va ayniqsa, yog' ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Eng katta korxonalar — Sirdaryo GRES, paxta tozalash va yog' ishlab chiqarish zavodlari hamda qurilish mollari kombinatidir. Hozirgi kunda viloyatda 80 ta sanoat korxonasi mavjud. Bundan tashqari, 9 ta qo'shma, 821 ta kichik va 132 ta shirkat korxonasi faoliyat yuritmoqda. «Nafosat» qo'shma korxonasi, O'zbek-Italyan qo'shma korxonasining Oqoltin filiali, «Chevar» aksiyadorlik jamiyati, «Toshgul» xususiy korxonasi, «Magella» shirkati shular jumlasidandir.

Guliston shahri 1963-yilda tashkil etilgan bo'lib, ma'muriy markazlar orasida eng yosh zamonaviy shaharlardan biridir. Shaharda ko'plab zamonaviy binolar, ta'lim muassasalari, Guliston davlat universiteti, gimnaziya va litseylar bor.

### ? *Savol va topshiriqlar:*

1. Sirdaryo viloyati qayerda va qachon tashkil topgan? Uning tarkibida qanday tumanlar bor?
2. Sirdaryo viloyati maydoni va aholisining soni qancha?
3. «Sirdaryo» so‘zining etimologiyasini izohlang.
4. Sirdaryo viloyati haqida qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plang va matnni davom ettiring.

## *XIII bob.* SOG‘LIQ — TUMAN BOYLIK
## *(O‘RIN VA MAKON MA’NOSINI IFODALASH)*

### *1-DARS:* SPORT — SALOMATLIK GAROVI

**Bilib oling!**

Gapda o‘rin ma’nosi geografik joy nomlari, o‘rin ravishlari, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishigidagi so‘zlar va ko‘makchilar vositasida ifodalanadi. O‘rin ma’nosini ifodalovchi so‘zlar ish-harakatning yo‘nalishi, sodir bo‘lish o‘rni yoki harakatning chiqish nuqtasini ko‘rsatadi va *qayerga? qayerda? qaysi tomonga? qayerdan?* kabi so‘roqlarga javob beradi. Masalan:

*Aziz uyiga* (qayerga? — harakat yo‘nalishini ko‘rsatuvchi obyekt) *ketdi.*

*Biz qishloqda* (qayerda? — harakatning sodir bo‘lish joyi) *yashaymiz.*

*Bu kitoblarni kutubxonadan* (qayerdan? — harakatning chiqish nuqtasini ifodalovchi obyekt) *oldik.*

**O‘rin holining so‘roqlari va ifodalanishini bilib oling!**

| | | |
|---|---|---|
| **Qayer?** *Toshkent* | **Qayerga?** *Toshkentga* | **Qayerdan?** *Toshkentdan* |
| **Qaysi tomonga?** *Toshkent tomonga* | **Qayer orqali?** *Toshkent orqali* | |

***182-mashq.*** Qavs ichidagi so‘roqlar o‘rniga ma’lumot uchun berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

1. (Qayerdan?) kelgan har xil mutaxassislar ertasigayoq cho‘lga ketishdi. 2. Qishloqning (qayerigacha?) hech kim ko‘rinmadi. 3. Ular (qayerga?) kirganda, Yayra bilan Sevara (qayerda?) ovqat pishirishayotgan ekan. 4. Ta’til paytida biz (qayerga?) ketamiz. 5. Qushlar kuzda (qaysi tomonga?) uchib ketishadi, bahorda esa (qayerdan?) qaytib kelishadi. 6. Tezyurar poyezd (qayerdan qayergacha?) boradi. 7. Shahrimizning (qayerlarida?) yangi ko‘priklar qurildi. 8. Bizning universitetimiz (qayerda?) joylashgan.

**Ma’lumot uchun:** *oshxonada, u boshidan bu boshiga yetgungacha, Toshkentdan, uyga, qishloqqa, Toshkentda, janub tomonga, janub tomondan, Toshkentdan Urganchgacha, Shayxontohur, Yunusobod, Sergeli tumanlariga.*

***183-mashq.*** Gaplarni ko‘chiring. O‘rin ma’nosidagi so‘zlarni aniqlab, ifodalanishi va bog‘lanishini tushuntiring.

1. Talabalarning yangi yil bazmi shu yerda o‘tadi. 2. Ro‘paramdan menga tanish bo‘lgan odam chiqib qoldi. 3. Uyimizning ro‘parasiga do‘kon qurildi. 4. Allaqayerdan sho‘x musiqa eshitildi. 5. Guruhimizda o‘lkamizning har yeridan kelib o‘qiyotgan talabalar ko‘p. 6. Har yerni qilma orzu, har yerda bor tosh-tarozu. 7. Kollejning kompyuter xonasi binoning yuqori qavatida joylashgan.

***184-mashq.*** Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Payt ma’nosidagi so‘zlarning o‘zbek va rus tillarida ifodalanishini qiyoslang.

## КОННЫЕ СПОРТИВНЫЕ ИГРЫ

Конный спорт пришёл к нам из глубокой древности. С незапамятных времён лихие всадники участвовали в скачках, состязались в быстроте, ловкости, смелости. Вполне закономерно было появление конных игр и соревнований, которые выявляли лучших наездников. Особо популярным видом конных состязаний является «джигитовка». Это слово произошло от тюркского «джигит» — отважный наездник — и означает умение во время скачки выполнять сложные упражнения. Это — соревнование в ловкости. Нужно на полном скаку подобрать с земли платок, монету или кольцо. Особенно славятся джигитовкой народы Средней Азии, Кавказа и казаки Дона.

***185-mashq.*** Matnni ifodali o‘qing. O‘rin ma’nosini ifodalovchi so‘zlarni aniqlab, o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chirib yozing.

## TERMIZDAN BOSHLANGAN PARVOZ

O‘zbek xonadonida o‘g‘il tug‘ilsa, polvonim, deydi. Urug‘-aymog‘imdan polvon chiqmasa armondaman, deydi. Milliy qadriyatlarimizning teran tomirlaridan biri — kurash tarixi uch ming yildan nariga borib taqalishi haqida tegishli ma’lumotlar bor.

Biroq, ming afsuski, erksizlik va istibdod yillarida xalqimizning qon-qoniga singib ketgan milliy kurashimizga kam e'tibor berildi. Uning o'rniga asl ildizi bizning kurashimizga borib taqaladigan sambo, dzyudo va boshqacha kurash usullari keng e'tibor topdi. Bamisli kiyimlarimiz sahnada qolgani kabi milliy kurashimiz ham to'y-tomoshalar va sayillarda noo'rin, asossiz tarzda o'tkazilmay qoldi. Ammo hozirgi kunga kelib, kurash butun dunyo sporti turlaridan biri sifatida maydonga chiqdi.

Ildiz baquvvat bo'lsa, uni hech qachon yo'qotib bo'lmaydi.

? ***Savol va topshiriqlar:***

1. Matndan sportga aloqador atamalarni topib yozing va ma'nolarini izohlang.
2. Ushbu sport turlari qachon va qayerda paydo bo'lgan, shu haqida ma'lumot bering.
3. Matndagi oxirgi gapni sharhlab bering.

## *2-DARS:* O'ZBEKISTON — ALPOMISHLAR YURTI

***186-mashq.*** Matnni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

### OT SPORTI BELLASHUVI

Dunyo yaralibdiki, insonni otsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Qadimgi vaqtlardan beri otlar, tulporlar ishtirokida turli tadbirlar o'tkazilib turilgan. Ularning soni XX asrga kelib 100 dan oshib ketdi. Bular orasidagi eng nufuzli musobaqa ot sporti bo'yicha har yili o'tkaziladigan Jahon kubogi musobaqalaridir. Ushbu musobaqada har yili 200 ga yaqin davlatlarning eng chapdast chavandozlari ishtirok etishadi.

2000- yili Amerikaning Las-Vegas shahrida ot sporti bo'yicha jahon kubogi uchun navbatdagi bahslar bo'lib o'tgan. Ayni paytda, ko'pgina davlatlarda ushbu saralash musobaqalari bo'lib o'tmoqda.

Yurtimizning o'tgan ikki yili mobaynida ot sporti bo'yicha 10 dan ortiq turli rasmiy musobaqalar tashkil etildi. O'tkazilgan turnirlarda yurtimiz chavandozlari bilan birgalikda, qo'shni davlatlar — Qozog'iston, Turkmaniston sportchilari ham o'z tulporlari bilan g'oliblik uchun kurash olib borishdi. Bunday musobaqalar esa so'zsiz yurtimiz chavandozlarining tajribasini oshirdi.

**Topshiriqlar:**

1. Berilgan sonlardan avval dona sonlar, so'ng tartib sonlar hosil qiling.
2. Matnda yana qanday belgi bildiruvchi so'zlar bor? Ularni o'zi bog'langan so'zlar bilan ko'chirib yozing.
3. Taxminiy sanoqni bildirgan sonlarni ko'rsating. Ularni yana qanday ifodalash mumkin? Atoqli otlarning yasalishini izohlang.
4. Matndagi o'rin ma'nosini ifodalovchi so'zlarni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chirib yozing.

***187-mashq.*** Matnni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

## ALPOMISH YURTIDA ALP YIGITLAR BELLASHUVI

1999-yilning 1-mayi nafaqat o'zbek polvonlari, balki butun O'zbekiston xalqi hayotida unutilmas kun bo'lib qoladi. Shu kuni o'zbek kurashini dunyo e'tirof etdi. Toshkentda kurash bo'yicha birinchi jahon chempionati boshlandi.

Yaqin-yaqingacha kurash musobaqalari faqat to'y-u tomoshalarda, hosil bayramlarida o'tkazilardi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha milliy qadriyatlarimiz kabi kurashga ham e'tibor kuchaydi. Milliy kurash bo'yicha musobaqalar o'tkazila boshlandi.

1992-yilda Kanadada o'tkazilgan dzyudo bo'yicha jahon chempionati hamda Jahon dzyudo federatsiyasining kongressida ilk bor o'zbek kurashi targ'ib etildi. Keyinchalik Yaponiya, Hindiston, Buyuk Britaniya, Monako davlatlarida bo'lib o'tgan xalqaro sport anjumanlarida ham o'zbek kurashi haqida atroflicha ma'lumot berildi. Milliy kurashimiz chet ellik mutaxassislarda katta qiziqish uyg'otdi.

Kurash bo'yicha birinchi jahon chempionatida ellikka yaqin mamlakat sportchilari qatnashdi. Shu paytgacha sport turi bo'yicha o'tkazilgan birinchi jahon chempionatlarida hech qachon bunchalik ko'p mamlakat vakillari ishtirok etmagan. Kurash bo'yicha birinchi jahon chempionatining Toshkentda o'tkazilishi nafaqat sportimizning, balki mamlakatimizning ham jahonda obro'-e'tibori kundan kunga ortib borayotganining yorqin isboti bo'ldi.

**! Topshiriqlar:**

1. Matnni diqqat bilan o‘qing. Har bir xatboshidan asosiy fikrni ifodalagan gapni aniqlab, qisqa matn tuzing. Tuzgan matningizga o‘zingiz sarlavha qo‘ying.
2. Matndagi miqdor bildiruvchi so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan ko‘chirib yozing va ma’nolarini izohlang.
3. Quyidagi qo‘shma fe’llar ishtirokida so‘z birikmalari tuzing.

e’tirof etmoq — nimani? / qachon?

e’tibor bermoq — nimaga? / qachon?

ma’lumot bermoq — nima haqida? / qayerda?

targ‘ib qilmoq — nimani? / qayerda?

4. Matndagi o‘rin-joy nomlarini yozib oling va ifodalanishini tushuntiring.
5. Matnda nomlari qayd etilgan mamlakatlar haqida bilganingizni so‘zlab bering.

## *3-DARS:* O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

### ATAMALAR SHARHINI BILIB OLING!

*Investitsiya* (nem. *investition*, lot. *investere* — o‘tish) — iqtisodni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda turli tarmoqlarga uzoq muddatli kapital kiritishdir. Investitsiya moliyaviy va real investitsiya turlariga bo‘linadi.

*Moliyaviy investitsiya* — aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlarni sotib olish; *real investitsiya* — mamlakat ichkarisida chet ellarda ishlab chiqarishga kapital qo‘yish, shuningdek, yosh suveren davlatlarga qarz va subsidiya berish shakllarida amalga

oshiriladi. Investitsiyalarni davlat, banklar yoki xususiy sohibkorlar berishi mumkin.

*Internet* — info doira bo‘lib, kompyuter turidan qat’i nazar, u IBM yoki Makintosh kompyuterimi, ishchi stansiyasi Sun yoki Spark bo‘ladimi, butun jahon bo‘yicha kompyuterlararo ma’lumotlar almashishni va muloqot o‘rnatishni ta’minlovchi tarmoqdir.

***188-mashq.*** Iqtisodiy-geografik ma’lumotnomani o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## NAVOIY VILOYATI




Navoiy viloyati respublikaning markaziy qismida joylashgan. 1982-yil aprelda Buxoro viloyati va qisman Samarqand viloyati yerlaridan tashkil etilgan.

1988-yilda viloyat ma’muriy birlik sifatida tugatildi.

1992-yil boshida yana qayta tiklandi. Maydoni 110,99 ming kv. km. Aholisi 863,7 ming kishi. Buxoro viloyatidan tashkil topgan bu viloyatda 8 tuman, 6 shahar, 8 shaharcha va 53 shaharcha tipidagi qishloq bor. Navoiy viloyatining ma’muriy markazi Navoiy shahridir. Viloyatda 60 dan ortiq davlat sanoat korxonasi, 10 ta qo‘shma korxona, 728 ta kichik korxona, 30 ta shirkat mavjud.

Qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari: paxtachilik, g‘allachilik, sabzavotchilik, bog‘dorchilik, pillachilikdir. Viloyatda chorvachilik ham sertarmoq: 196 ming qoramol, 88,2 ming sigir, 632,7 ming parranda bor. Viloyatda yiliga 500 mingdan ortiq qorako‘l terisi tayyorlanadi. Navoiy viloyatida yerosti oltin konlari mavjud.

Eng katta shaharlaridan biri Zarafshon shahri bo‘lib, u yerda «Zarafshon — Nyumont» qo‘shma korxonasi mavjud. Ushbu qo‘shma korxona oltin qazib chiqaradi.

O‘zbekiston oltin qazib chiqarish bo‘yicha jahonda yetakchi o‘rinlarni egallaydi.

? ***Savol va topshiriqlar:***

1. Navoiy viloyati qachon tashkil topgan? Uning tarkibida nechta shahar va tuman bor?
2. Navoiy viloyati maydoni va aholisining soni qancha?
3. Navoiy viloyati avval qaysi viloyat tarkibida edi?
4. Hozirgi kunda Navoiy viloyatida qanday qo‘shma korxonalar faoliyat yurityapti?
5. Navoiy viloyati haqida qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plang va referat yozing.

*XIV bob.* **ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI**
*(O'RIN MA'NOSINI QO'SHMA GAPLAR VOSITASIDA IFODALASH)*

## *1-DARS:* KOMPYUTER VA TA'LIM

**Bilib oling!**

O'rin ma'nosi o'rin ravishlari va orin-payt, jo'nalish, chiqish kelishiklari hamda ko'makchilar bilan kelgan otlar orqali ifodalanadi. Bunda ravishlar noaniq joyni ko'rsatadi, kelishik shaklida o'rin ma'nosini ifodalab kelayotgan otli birikmalar esa aniq joyni ifodalaydi. Misollarni qiyoslang:

| **noaniq joyni ifodalash** | | **aniq joyni ifodalash** |
|---|---|---|
| *Qayerga?* | *pastga* | *soy bo'yiga* |
| *Qayerda?* | *yuqorida* | *to'rtinchi qavatda* |
| *Qayerdan?* | *ichkaridan* | *qishloqdan* |

***189-mashq.*** Matnni o'qing. Ot va ravish bilan ifodalangan o'rin-joyni bildiruvchi so'zlarni qiyoslab, ma'nolaridagi farqlarni tushuntiring.

Yozda do'stim Karimjon bilan tog'amning dala hovlisiga bordik. U yerda mehmonlar ko'p ekan. Karimjon bilan ikkalamizga ayvonga joy qilib berishdi. Uzoqdan soy shivirlaydi. Qo'rg'onning orqasida bulbul xonish qiladi. Gullar va rayhonlarning yoqimli hidi dimoqqa uradi. Yuqorida to'lin oy suzib yuribdi. Atrofida yulduzlar g'ujg'on. Uyqum qo'chib, notanish yerlarning sehrli tun manzarasini tomosha qilib yotdim.

***190-mashq.*** Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. O'rin ma'nosini ifodalovchi so'zlarning har ikki tilda ifodalanishi va gapdagi o'rnini qiyoslang.

Современное общество все более и более волнует решение экономических проблем, от чего в значительной мере зависит благосостояние нынешнего и будущего поколений, существование самой цивилизации. В этих условиях образуется

цепочка: жизнь — экономика — экология, т.е. уровень жизни ставится в зависимость от двух важных, но противостоящих друг другу факторов.

В республике остро стоят проблемы оздоровления окружающей среды чирчикско-ангренской, ферганско-маргиланской, навоийской и других промышленных зон.

***191-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## ELEKTRON POCHTA

Elektron pochta maxsus dasturiy vosita bo‘lib, uning yordamida yer yuzining ixtiyoriy nuqtasidagi mavjud elektron manzilga xat yoki xabar (matnli, tasvirli va h.k.) yuborishingiz hamda qabul qilishingiz mumkin. Xat qisqa vaqt ichida o‘z egasiga yetib boradi. Elektron pochtadan foydalanish uchun, albatta, kompyuteringiz Internet tarmog‘iga ulangan bo‘lishi va sizning elektron manzilingiz bo‘lishi zarur. Kompyuteringiz Internetga ulangan bo‘lsa, elektron manzilni provayder yordamida o‘zingiz ochishingiz mumkin. Odatda, elektron manzil *E-mail* deb yuritiladi.

Siz biror tanishingizga, qarindoshingiz yoki o‘rtog‘ingizga pochta orqali xat yuborgan bo‘lishingiz tabiiy hol. Elektron pochta yordamida xat yuborishda ham oddiy xat yuborish kabi, xatni qayerga, kimga, qaysi manzilga va kimdanligi yoziladi. Xat yuborilgach, u elektron «quti»ga va zudlik bilan shaxsiy manzil «quti»siga tushadi.

**!** **Topshiriq:**

1. Elektron pochta orqali biror tanishingizga xat yozing.
2. Matndan elektron pochtaga aloqador atamalarni ajrating va ularni izohlang.
3. Siz o‘qiydigan muassasa *E-maili* haqida ma’lumot bering.
4. Matndan o‘rin ma’nosini bildiruvchi sodda va qo‘shma gaplarni topib, ifodalanishini tushuntiring.

### Ushbu so‘zlarning sinonimlarini bilib oling!

Xat, noma, maktub; chidam, bardosh, toqat, to‘zim; shubha, gumon, ishonchsizlik; ega, xo‘ja, sohib; iltimos, iltijo, o‘tinch, zor, tavallo; urush; foyda, naf, manfaat, hayvon; xalq, xaloyiq, el, ulus, mardum.

***192-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## KOMPYUTER VA TA’LIM

Hozirgi kunda ta’lim muassasalarida fanlar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun kompyuter sinflari barpo etilmoqda. Zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan test markazi faoliyat ko‘rsatyapti. Bu markazda har bir yo‘nalish bo‘yicha maxsus fanlardan talabalarning bilimini reyting tizimi yordamida aniqlash kompyuterlar yordamida amalga oshiriladi. Shuningdek, barcha kafedralar, o‘quv zallari ham zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan.

O‘qituvchilar va talabalar «Elektron pochta» va «Internet» global informatsion tizimlari yordamida xalqaro informatsion resurslardan foydalanadilar. Hozirgi kunda kompyuterlar vositasida amalga oshiriladigan masofaviy o‘qitish shakli ham yo‘lga qo‘yilyapti.

***Savol va topshiriqlar:***

1. Kompyuterlarning ta’lim tizimidagi ahamiyati haqida so‘zlab bering.
2. Qanday kompyuter dasturlarini bilasiz? Shu haqda so‘zlab bering.
3. «Elektron pochta» nima?
4. Internetning foydali tomonlari haqida so‘zlab bering.

*40-topshiriq.* Suhbat matnini o‘qing va muomala odobiga oid iboralarning talaffuziga e’tibor bering.

— Assalomu alaykum. Men telefon xizmatiga pul to‘lamoqchiman.
— Yaxshi. Telefon raqamingizni ayting.
— Telefon raqamim — 244-22-11.
— 3000 so‘m to‘lang.
— Mana, 3000 so‘mni oling.
— Marhamat. To‘lov varaqasini oling.
— Rahmat, xayr.

***193-mashq.*** Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

## «ALOQABANK»

Aksiyadorlik-tijorat «Aloqabank»i Toshkent shahrida joylashgan bo‘lib, bank faoliyatining asosiy yo‘nalishi aholi talabiga javob beradigan darajada aloqa kommunikatsiya xizmatlarini ko‘rsatish, aloqa, kommunal xizmatlarni qayta ishlash bilan bog‘liq xarajatlarni o‘z vaqtida moliyalashdan iborat.

«Aloqabank» mijozlar manfaatini himoya qiladi, ularning ehtiyojlarini yuqori darajada qondiradi, vakillik munosabatlarini o‘rnatadi va rivojlantiradi. Aloqa tizimida hisobga olishni yaxshilash, xarajatlar me’yoriga rioya qilinishiga ko‘maklashish maqsadida «Aloqabank» minibanklar ham tashkil etgan.

«Aloqabank» O‘zbekiston Respublikasi valuta birjasi va «Toshkent» respublika fond birjasining a’zosi va aksiyadori hamda obligatsiyalar bozorining dileri hisoblanadi.

**Topshiriq:**

1. Aloqa xizmatini yaxshilashga xizmat qiladigan banklar haqida so‘zlab bering.
2. Reja tuzing.
3. Oxirgi gapdagi «diler» so‘zining ma’nosini izohlang.

***194-mashq.*** Matnga tartib va izchillikni bildiruvchi kirish so‘zlar qo‘yib yozing.

### INTERNET NIMA?

Yuqori darajadagi shunday tarmoqlar mavjudki, unga lokal tarmoqdagi kompyuterlar emas, balki global tarmoqdagi kompyuterlar ulangan, u «Internet» deb yuritiladi. Internet so‘zi Inter — «xalqaro» va net — «tarmoq» ma’nosini anglatadi.

Internetning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- turli xarakterdagi ma’lumotlarga ega bo‘lish;
- yangiliklar bilan tanishish;
- ilg‘or texnologiyalar bilan tanishish;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish (iste’mol talabi va muammolarini o‘rganish);
- fikr almashish va bilim olish.

## *2-DARS:* BUYUK IPAK YO‘LI

**Bilib oling!**

O‘rin ma’nosi qo‘shma gaplar vositasida ham ifodalanishi mumkin. Bunda qo‘shma gapning birinchi qismi tarkibida **qayerga? qayerda? qayerdan?** so‘roq olmoshlari, ikkinchi qismida esa **u yerga, shu yerda, o‘sha yerdan** kabi ko‘rsatish olmoshlari ishtirok etadi va quyidagi tuzilishda bo‘ladi:

**Qayerda? nima bo'lsa? o'sha yerda nima bo'ladi?**

Masalan: *Ko'z qayerda bo'lsa, mehr ham o'sha yerda bo'ladi.* Bunday gaplar sodda gaplarga aylantirilsa, ergash gaplar kengaygan sifatdosh aylanma shaklida beriladi. Masalan: *Qayerda suv serob bo'lsa, o'sha yerda obodonchilik bo'ladi. — Suv serob bo'lgan yerda obodonchilik bo'ladi.*

***195-mashq.*** Gaplarni o'qing, o'rin ma'nosini ifodalovchi qo'shma gaplarni namunadagidek sodda gapga aylantirib yozing.

*Namuna:* Qayerda sport rivojlangan bo'lsa, o'sha yerda sog'lom muhit bo'ladi. — Sport rivojlangan yerda sog'lom muhit bo'ladi.

1. Katta kema qayoqqa yursa, kichik kema ham shu yoqqa yuradi. 2. Qayerda mehnat intizomi yaxshi bo'lsa, u yerda hamma ish o'z vaqtida bajariladi. 3. Ko'pchilik qayerda bo'lsa, sen ham o'sha yerda bo'lganing ma'qul. 4. Qayerda tinchlik-xotirjamlik bo'lsa, o'sha yerda baxt bo'ladi. 5. Qaysi mamlakatning iqtisodi rivojlangan bo'lsa, o'sha yerda bank xizmati yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'ladi.

***196-mashq.*** Matnni o'qing. O'rin ma'nosini ifodalovchi so'zlarni aniqlab, ot va ravish bilan ifodalanishiga ko'ra ikki ustunga ajratib ko'chiring.

## BUYUK IPAK YO'LI

Hindistondan Sirdaryogacha, Kaspiy dengizi qirg'oqlaridan Xitoygacha turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar bir-birlari bilan yaqin aloqada bo'lganlar. Bunda karvon yo'llarining ahamiyati juda kattadir.

Bizning eramizgacha bo'lgan II asrdayoq savdo-sotiq ishlarida karvon yo'li (Buyuk ipak yo'li) janubi-sharqiy Yevropa, Eron, Kavkaz, O'rta Osiyoni Mo'g'uliston va Xitoy bilan bog'lagan. Bu eng yirik karvon yo'li bo'lib, butun Osiyoni, ya'ni sharqni g'arb bilan bog'lagan bo'lib, savdoga asoslangan bog'lanish bo'lgani uchun «Buyuk ipak yo'li» deyilgan. Xitoyliklar O'rta Osiyodan paxta, uzum, loviya, anor kabilarni o'z vatanlariga ko'paytirish uchun olib ketishgan. G'arbdan esa qog'oz, ipak, porox olib kelib, ishlab chiqarishni o'zlashtirganlar. Ayni paytda savdogarlar Xitoydan ipak matolar, chinni idishlarni olib ketishgan. Buyuk ipak yo'li O'rta Osiyoning eng yirik markazlari — Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlari orqali o'tgan.

***Savol va topshiriqlar:***

1. Buyuk ipak yo‘li nima uchun shunday ataladi?
2. Buyuk ipak yo‘li qaysi mamlakatlar orqali o‘tgan?
3. Toshkentda ushbu nom bilan ataladigan qanday joylarni bilasiz?
4. Hozirgi kunda ushbu aloqa yo‘li qay tarzda faoliyat ko‘rsatyapti?
5. Buyuk ipak yo‘li nomi bilan bog‘liq qanday joylarni bilasiz?

*42-topshiriq.* Suhbat matnini rollarga bo‘lib o‘qing.

## METRODA

— Kechirasiz, men «Buyuk ipak yo‘li» bekatiga bormoqchi edim. Qaysi tomonga yurishim kerak?

— Buning uchun siz «Chilonzor» yo‘nalishiga o‘tishingiz kerak.

— U yo‘nalishga qanday o‘taman?

— Bu «Alisher Navoiy» bekati. Eskalator bilan yuqoriga ko‘tarilsangiz, «Paxtakor» bekatiga o‘tasiz. U yerda siz «Buyuk ipak yo‘li» yo‘nalishiga o‘tirasiz. «Buyuk ipak yo‘li» — oxirgi bekat.

— Rahmat.

— Yaxshi boring.

**Topshiriq:**

Toshkent metrosi, uning yo‘nalishlari va bekatlari haqida so‘zlab bering.

***197-mashq.*** «Dam olish kunida» matnini o‘qing va davom ettiring.

Dam olish kuni edi. Yaxshi dam olgani guruhimiz bilan shahardan tashqariga chiqadigan bo‘ldik. Ertalab hammamiz bekatda uchrashgach, avtobusga o‘tirib, Bo‘stonliq tomon yo‘l oldik. Toshkentdan 50 kilometr yo‘l yurilgach, katta chorraha keladi. Ko‘prikdan o‘tib, chap tomonga yursangiz, Oqtoshga, o‘ngga burilsangiz, G‘azalkentga borasiz. Biz ... .

***Savol va topshiriqlar:***

1. Matnni davom ettirishda o‘rin ma’nosini ifodalovchi so‘zlar va ko‘makchilardan foydalaning, ularning qo‘llanishiga e’tibor bering.
2. Siz dam olish kuningizni qanday o‘tkazasiz?
3. O‘zbekistondagi qanday oromgohlarni bilasiz? Ular haqida gapirib bering.

## *3-DARS:* O'TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

**Bilasizmi?**

### MUHAMMAD MUSO XORAZMIY

Xorazmiy — algebra fanining asoschisidir. U birinchi bo'lib «Al-jabr val-muqobala» degan asarini yozadi. Asar lotin va boshqa tillarga tarjima qilinib, butun dunyoga tanildi. Bu kitob «Al-jabr» deb atalib, keyinchalik algebraga aylanib ketgan. Muhammad Muso Xorazmiy butun dunyo olimlari tan olgan buyuk siymodir. G'arbda al-Xorazmiyni «Algaritmus» nomi bilan ataydilar.

Muhammad Muso Xorazmiy geografiya sohasidagi «Yer sur'ati kitobi»da yerni 7 iqlimga bo'lib, yer xaritasini chizadi. Olimning 4 tagina xaritasi bizgacha yetib kelgan. Xorazmiy sathlarni o'lchash haqida, quyosh soati to'g'risida va boshqa sohalarda ham ko'p asarlar yozgan. Lekin olim asarlarining arab tilida yozilgan va asl nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Uning asarlaridan faqat Yevropa tillariga tarjima qilinganlarigina saqlanib qolgan.

Xorazmiy 847-yili vafot etgan.

***198-mashq.*** Iqtisodiy-geografik ma'lumotnomani o'qing va topshiriqlarni bajaring.

### NAMANGAN VILOYATI




Namangan viloyati 1967-yilning 18-dekabrida qayta tashkil etilgan. U Farg'ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan. Maydoni 7,44 ming kv. km, aholisi 2298 ming kishi. Namangan viloyatida 11 tuman, 8 shahar, 12 shaharcha, 99 qishloq bor.

Namangan viloyatining ma'muriy markazi Namangan shahri hisoblanadi. Namangan Farg'ona vodiysining qadimiy shaharlaridan. Shahar aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan.

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i paxtachilik, shuningdek, bog'dorchilik, tokchilik, ipakchilik, sabzavotchilik, polizchilik va

chorvachilik ham rivojlangan. Namangan tuz koni («namak koni») yaqinida qurilgan bo'lib, o'rta asr boshlariga oid tarixiy hujjatlarda birinchi marta tilga olingan. XVIII asrda Namangan Qo'qon xonligiga tobe bo'lgan. Namangan hunarmandchilik markazi hisoblangan. Dehqonlar Namangan bozoridan ip va ipak gazlamalar, mis idishlar, zargarlik buyumlari va turli mehnat qurollari sotib olishgan. Keyinchalik Namanganda kiyim-kechak va oziq-ovqat sanoati, yigiruv-tikuv, to'qimachilik sanoati, energetika va elektrotexnika sanoati, shuningdek, metallarni qayta ishlash va kimyo sanoati qayta rivojlana boshladi.

Namangan viloyatida 500 dan ziyod tashkilot, korxona muassasalari, fermer xo'jaliklari mavjud.

Hozirgi kunda Namanganda yirik to'qimachilik va uy qurish kombinatlari, temir-beton buyumlari, avtota'mirlash mahsulotlari ishlab chiqish korxonalari, kimyo, tikuvchilik va to'qimachilik fabrikalari, mebel, poyabzal ishlab chiqarish, badiiy hunarmandchilik kichik korxonalari, oziq-ovqat sanoati korxonalari ishlab turibdi.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Namangan viloyati qachon tashkil topgan? Uning tarkibida nechta shahar va tuman bor?
2. Namangan viloyati maydoni va aholisining soni qancha?
3. Namangan so'zining kelib chiqishini izohlang.
4. Hozirgi kunda Namanganda qanday korxonalar faoliyat yurityapti?
5. Namangan haqida qo'shimcha ma'lumotlar to'plang va referat yozing.

## *XV bob.* MA'NAVIYAT SABOQLARI
## *(SABAB, MAQSAD VA NATIJA MA'NOLARINI IFODALASH)*

### *1-DARS:* SALOMLASHISH ODOBI

**Bilib oling!**

Nutqda ish-harakatning yuzaga kelish sababini bildiruvchi so'zlar **nima uchun? nima sababdan? nega?** so'roqlariga javob bo'ladi va **-gani uchun, sababli, tufayli** ko'makchilari, sabab ravishlari, otlar va sifatdoshlarga chiqish kelishigi qo'shimchasini qo'shish **(-ligidan** shakli) vositasida ifodalanadi. Masalan: *Sayyora darsni yaxshi tayyorlagani uchun maqtovga sazovor bo'ldi. Muhlisa xursandligidan o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi.*

Sabab ma'nosi qo'shma gaplar vositasida ifodalanganda *chunki, negaki, shu bois, shuning uchun* bog'lovchilari yordamida bog'lanadi. Masalan: *Yo'l tirband edi, shuning uchun aylanib o'tishga to'g'ri keldi.*

*Ilm oling, chunki ilm insonning kelajagidir.*

***199-mashq.*** Gap tarkibidagi sabab ma'nosini ifodalovchi so'zlarni aniqlab, bog'langan so'zi bilan birga ko'chiring.

*Namuna:* Noilojlikdan degan ekan.

1. Tajribaga egaligi tufayli o'z ishini yaxshi biladi. 2. U istamasa ham noiloj borishga majbur bo'ldi. *(O'. U.).* 3. Ikkalasi ham «zangori» rangdagi eshakni chor-nochor «ko'k» o'rniga qabul qilishdi. *(N.A.).* 4. Mirvali shu kichkina bola oldida nochor, noiloj gangib turar edi. *(S.A.).* 5. Paxtachilikda noilojlikdan zaharli moddalarni keng qo'llash oqibatida tashqi muhitda yomon asoratlar qoldi. 6. Dars tugagani uchun kollej jimjit edi.

***200-mashq.*** Nuqtalar o'rniga sabab ma'nosini ifodalovchi qo'shimchalar qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. U muhim topshiriqni bajar... sevinchini ichiga sig'dira olmas edi. 2. Suvsiz... bu yerlarga o'tmishda ekin ekilmas edi. 3. Amir Temur

o‘z nevarasi Muhammad Tarag‘ayni g‘oyat ziyrak va o‘tkir zehnli bo‘l... . ...Ulug‘bek deb ataydi. 4. Otam ilg‘or ishchi bo‘lgan... ... mukofotlandi. 5. Havo sovuq bo‘l... ... jiyanimni uyda olib qoldim. 6. Kamola uyal... nima deyishini bilmay qoldi. 7. Azizaning kel... xursand bo‘ldim. 8. Farhod dars tayyorlama ... ketib qolgan ekan.

***201-mashq.*** Ushbu so‘zlar va birikmalarni qatnashtirib, gaplar tuzing.

Ko‘p o‘ylaganligidan, uxlagani sababli, beburdligi tufayli, vaqtida bergani uchun, uyqusizlik tufayli, halol mehnati uchun, qo‘rqqanidan.

***202-mashq.*** Berilgan savollarga sodda va qo‘shma gaplar vositasida javob bering.

*Namuna:* Bilim manbayi bo‘lgani uchun kitobni sevish kerak.
Kitob bilim manbayi, shuning uchun uni sevish kerak.

1. Nima uchun kitobni sevish kerak?
2. Nima uchun ilm olish kerak?
3. Nima uchun kattalarni hurmat qilish kerak?
4. Nima uchun iqtisodiy bilimlarni bilish kerak?
5. Nega yo‘lning o‘ng tomonidan yurish kerak?

***203-mashq.*** Berilgan sodda gaplardan sabab munosabatidagi qo‘shma gaplar tuzing.

1. Barcha korxonalar xo‘jalik hisobiga o‘tmoqda. Bozor iqtisodi shuni talab qiladi. 2. Vatanimiz iqtisodi kun sayin rivojlanib bora-yotir. Biz xursandmiz. 3. Adiba juda xursand bo‘ldi. Uchrashuv u kutganidan yaxshi o‘tdi. 4. Daryo suvi ko‘payib ketdi. Suvi toshib ketdi. 5. Imtihonga yaxshi tayyorlandim. O‘qituvchimiz xursand bo‘ldilar. 6. Vatanni asrang. Siz shu vatan farzandisiz. 7. Qo‘ng‘iroq chalindi. Barcha sinfga kirdi.

***205-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

## SALOMLASHISH ODATI

Salomlashish — qadimiy odat. Dunyodagi barcha madaniy xalqlar o‘zaro insoniy munosabat, muomala va muloqotni sa-lomdan boshlashadi.

Biz, oʻzbeklar, barcha islom dunyosi xalqlari singari bir-birimizni koʻrganimizda «Assalomu alaykum» deya, qoʻl olishib koʻrishamiz. «Assalomu alaykum» iborasi arabcha «Sizga tinchlik tilayman» ma'nosini bildiradi. «Vaalaykum assalom» esa «Sizga ham tinchlik tilayman» javob salomi sanaladi.

Salomlashish odati yosh va marosim bilan ham bogʻliqdir. Masalan, keksa odamlar bir-birlari bilan ikki qoʻllab koʻrishishadi. Uzoq vaqt bir-birlarini koʻrmagan qadrdonlar quchoqlashib hol-ahvol soʻrashadilar. Keksalari quchoqlashganda bir-birlarining kiftlarini, kurak va yelkalarini silab-siypab, uqalaydilar ham. Bu ayni paytda uzoq yoʻl yurib toliqqan yoʻlovchi mehmonlarga oʻziga xos odamiylik, tibbiy, jismoniy tarbiya hamdir.

**!** **Topshiriqlar:**

1. Matndan holat bildiruvchi soʻzlarni topib, oʻzi bogʻlangan soʻz bilan koʻchirib yozing va ma'nolarini izohlang.
2. Gaplarga holat bildiruvchi soʻzlarni qoʻyib yozing.
3. Matndan holat bildiruvchi soʻzlarni aniqlab, ularni sinonimik variantlarda yozib chiqing.
4. Quyidagi gaplarni boʻlishsiz shaklda ifodalang.
5. Matndagi fe'l shakllarini oʻzi bogʻlangan soʻz bilan koʻchirib yozing va soʻrogʻi, gapdagi vazifasini ayting.
6. Ushbu fe'llarga savol bering va ular bogʻlanishi mumkin boʻlgan soʻzlarni qoʻyib chiqing.
7. Har bir xatboshidagi asosiy fikrni yozib, ixcham matn yarating.

***206-mashq.*** Ushbu matnni oʻqing va oʻzbek tiliga tarjima qiling.

## ЭТИКЕТ ПРИВЕТСТВИЯ

Издавна люди, встречаясь друг с другом, пожимали руки. Говорят, что этот обычай возник в те времена, когда рыцари при встрече протягивали правую руку, чтобы показать, что она без оружия. Рукопожатие требует меры. При встречи с большой группой знакомых пожимать всем руки долго и неудобно. Другая древнейшая форма приветствия — поклон. Кланяться принято медленно и плавно, иначе получится лишь небрежный кивок головой. Чаще всего мы пользуемся формами приветствия. Мы начинаем свой день с «Доброго утра» и заканчиваем пожеланием «Спокойной ночи».

**Topshiriqlar:**

Tuzgan o‘zbekcha matningizni quyidagi savollarga javob bergan holda davom ettiring:

1. Hozirgi vaqtda zamonaviy salomlashishning qanday turlari mavjud?
2. Siz salomlashishning qaysi turidan foydalanasiz?

## *2-DARS:* ODOB — MADANIYAT BELGISI

**Bilib oling!**

Ish-harakatning qanday maqsad bilan yuzaga kelishini bildiradigan gaplar **nima maqsadda? nima uchun?** so‘roqlariga javob beradi va quyidagicha ifodalanadi:

1. **-gani, -gali** qo‘shimchali ravishdosh bilan. Masalan: *Eshik oldi gul hovuz, gul tergani kelganmiz.*
2. **Harakat nomi + maqsadida, maqsadi bilan, uchun** so‘zlari vositasida. Masalan: *Mashinalar qatnovini yengillashtirish uchun (maqsadida) yo‘llar kengaytirildi.*
3. **Jo‘nalish kelishigidagi harakat nomi + uchun** ko‘makchisi vositasida. Masalan: *Qishki ta’tilda Chimyonga dam olishga (uchun) bordik.*
4. **Fe’l + deb** so‘zi vositasida. Masalan: *Rustam kitob olaman deb kelgan ekan.*
5. Kelasi zamon maqsad fe’li bilan. Masalan: *Institutga o‘qishga kirmoqchiman.*

***207-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

### KIYINISH MADANIYATI

Madaniyatlilikning asosiy belgilaridan biri bu did bilan kiyinish odatidir, chunki insonning qanday kiyinganligiga qarab, uning did-farosati, moddiy va ma’naviy darajasini, hatto kasbini aniqlab olish mumkin.

Kiyinish har bir xalqning yashash sharoiti, mintaqasi, turmush tarzi, udum, urf-odatlari, tabiati bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Masalan, serquyosh o‘lkalarda yashovchi xalqlarda qadim zamonlardan beri oq matodan kiyim kiyishni odat qilishgan, chunki oq mato quyosh nurlarini bir qadar qaytarib, kishilarni issiqlik ta’siridan saqlagan.

Aksincha, iqlimi sovuq o'lka va yurtlar xalqlari esa odatda qora matodan kiyim kiyishga odatlanishgan, chunki bu kiyim quyosh nurlarini o'ziga singdirib, kiyim egasining tanini yayratgan.

Dunyodagi barcha xalqlar bir-biriga hududiy, madaniy-maishiy, iqtisodiy jihatdan qanchalik yaqinlashganlariga qarab, ularning kiyinish madaniyatidagi jihatlar ham bir-biriga ko'chib boradi. Chunonchi, rivojlangan mamlakatlarga nafaqat iqtisodiy, balki madaniy, xususan, kiyinish madaniyati jihatidan ham intilish, taqlid qilish ko'p uchraydi.

**!** **Topshiriq:**

Quyidagi savollarga sabab ma'nosini ifodalovchi nutqiy konstruksiyalar yordamida javob bering:

1. Nima uchun kiyinish mintaqa va urf-odatlar bilan bog'liq?
2. Kiyinish madaniyati inson hayotida qanday rol o'ynaydi?
3. Nima uchun issiq o'lkalarda, masalan, Hindistonda oq matodan kiyim kiyish odat tusiga kirgan?
4. O'zbek milliy kiyimlaridan qaysilari va nima uchun sizga yoqadi?
5. Nima uchun iqlimi sovuq o'lkalarda qora rangli kiyim kiyishadi?

***208-mashq.*** Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling va mazmunini so'zlab bering.

## ОБРАЗОВАНИЕ И КУЛЬТУРНОСТЬ

Каким должен быть культурный человек? Определяется ли подлинная культура человека, его внутренняя интелегентность, его общее развитие, скажем, дипломом, которым он владеет, получив образование в том или ином учебном заведении?

У нас иногда путают два понятия: образование и культурность. Конечно, в наше время человек, не имеющий никакого образования, не может стать и поистине культурным. Систематическое образование лучше всего получить в том или ином учебном заведении. Но, помимо образования, нужно ещё и самообразование, то есть постоянное накопление знаний, общекультурных навыков, развитие определённой способности восприятия, умения разбираться во всех тех областях духовной и материальной жизни, с которыми, может быть и не связана непосредственно работа человека.

Люди ленивые, малознающие, плохо работающие, не понимающие истинно прекрасного, нарущающие правила общественной жизни не могут по-настоящему испытывать радость труда, радость творчества, радость общения с людьми.

***209-mashq.*** Berilgan matnni diqqat bilan o'qing va topshiriqlarni bajaring.

## ODOB GULSHANI

Bir donishmand odamlarga shunday o'gitlar beribdi:

— Hayotning quyidagi bo'stonlari bo'ladi: birinchisi — ilm bo'stoni, ikkinchisi — xushmuomalalik bo'stoni, uchinchisi — ixlos bo'stoni, to'rtinchi — kamtarlik bo'stoni, beshinchi — saxovat bo'stoni, oltinchi — rizo bo'stoni, yettinchi — umid bo'stoni.

Agar inson ravnaq topay desa, avvalo, ilm bo'stoniga kiradi va u yerdagi nodonlik va johillikni yo'qotadi. So'ng muomala bo'stoniga kiradi va bu bo'stonda adovat va hasad tikanlarini yo'qotadi. So'ng ixlos bo'stoniga kiradi va bu bo'stonni yolg'on va gumondan tozalaydi. So'ng kamtarlik bo'stoniga kiradi va bu bo'stonda takabburlik va mag'rurlik bo'lsa, ularni yo'qotadi. Undan so'ng rizo bo'stoniga kiradi va bu bo'stonda manmanlik va qaysarlik bor bo'lsa, bo'stonni ulardan holi qiladi. So'ng umid bo'stoniga kiradi va bu bo'stondan umidsizlik va tushkunlikni bartaraf etadi. Shundagina inson ma'naviy boy insonga aylanadi.

**! Topshiriqlar:**

1. Matndan odob-axloq ma'nosini ifodalovchi so'zlar va gaplarni aniqlang, ularning har biri qanday ma'no ifodalashini tushuntiring.
2. Qaysi so'z ko'p ishlatilgan? Uni qaysi so'z bilan almashtirish mumkin?
3. Matndagi sonlarning turi va gapdagi vazifasini tushuntiring.
4. Matndagi asosiy fikrni toping va qisqa shaklda daftaringizga yozib oling.
5. Matnni o'qigach, siz qanday xulosaga keldingiz?
6. Matndan foydalanib, «Nima sababdan shunday bo'ldi?» mavzusida kichik hikoya yozing.

## *3-DARS:* XUSHMUOMALALIK VA XUSHCHEHRALIK

**Bilib oling!**

Natija ma'nosi *natijada, oqibatda* so'zlari yordamida ifodalanadi va **-ki** bog'lovchisi bilan bog'lanadi. Bunday gaplarning birinchi qismida *shunday (shu qadar)* so'zlari, ikkinchi qismida *natijada (oqibatda)* so'zlari qo'llanadi.

Masalan: *Shu qadar kuchli shamol bo'ldiki, natijada ayrim daraxtlarning shoxlari ham sinib ketdi.*

***210-mashq.*** Nuqtalar o'rniga maqsad ma'nosini ifodalovchi so'zlar va qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Yozning issiq bir kunida, qo'zi bordi suv ich... . 2. Inshoni bugun yoz... edim. 3. Kuz kelgach, dehqon daladagi hosilni tezroq yig'ish... shoshiladi. 4. O'qituvchi bir-ikki soat dars berish... qancha tayyorlanishi kerak. 5. Chol daryo yoqasiga baliq ovla... ketibdi. 6. Uni yaxshilab davolatish ... shahardan yaxshi shifokorlarni chaqirishdi. 7. Xayrulla o'qish ... Toshkentga ketdi.

***211-mashq.*** Matnni o'qing va o'zbek tiliga o'giring. Sovg'a qanday maqsadda beriladi? Shu haqida o'z fikringizni ayting.

### ПОДАРОК

Мы дарим, нам дарят ... . Всякий подарок приятен прежде всего потому, что он делается от души. И дело совсем не в том, сколько он стоит. Ценность подарка меньше всего поддаётся оценке в рублях. А тем более если речь идёт о подарках, которые дарите вы, школьники, ещё не зарабатывающие сами.

Подарок — знак внимания и любви. Это букетик цветов, сувенир, милый пустячок. Вы ещё учитесь, и в классе принято поздравлять друг друга чаще всего с днем рождения. Пусть в этот день для именинника будет выпущена специальная газета, прозвучит любимая песня, будет подарена нужная книга, цветы ... .

**212-mashq.** Nuqtalar o‘rniga maqsad ma’nosidagi gaplarni qo‘shib ko‘chiring, zarur tinish belgilarini qo‘ying.

1. ... kutubxonaga yangi kitoblar olindi. 2. ... dehqonlar fidokorona mehnat qildilar. 3. ... ko‘chalar kengaytirilmoqda. 4. ... yangi kanallar qazilmoqda. 5. ... uning derazalarini ochib qo‘ydik. 6. ... daraxt tepasiga in o‘rnatdik. 7. ... , qo‘lidan kelgan barcha ishni qiladi. 8. ... , daryo bo‘yiga bordik. 9. Ota-ona farzandlarini qiynalmasin deb, ... .

**213-mashq.** Matnni o‘qing va o‘z fikringizni bildiring.

## XUSHMUOMALALIK

Har bir kishi atrofdagi odamlarga hurmat bilan, mehribonlik bilan qarashi, ularning ham o‘zlariniki singari nozik qalblari borligini bilishi kerak.

«Qars ikki qo‘ldan chiqadi», deydilar. Janjal ham ikki tomonning qo‘pol muomalasidan chiqadi. Bir qo‘lingiz bilan chapak chala olmaganingiz singari, bir tomon og‘ir bo‘lsa, janjalning o‘ti o‘chadi.

Bir misol. Avtobusda odam tiqilib ketdi. Bunday hollarda yo‘lovchilarning bir-birlariga urinishlari, turtinishlari tabiiy. Bir yo‘lovchi orqadan qisilib o‘tib ketayotib, boshqa bir yo‘lovchiga bexosdan tegib ketdi. U bir o‘qrayib qaradi-yu, jon-jahdi bilan uni itarib tashlab, «ho‘kiz» deb to‘ng‘illadi. Orqada ketayotgan yo‘lovchida ayb yo‘q edi. Buni qo‘pol muomala qilgan kishi ham bilardi. Bila turib, gunohsiz odamni xafa qildi. Haqoratlangan yo‘lovchi qo‘rs kishiga teng bo‘lgisi kelmadi, yo tabiatida xushmuomalalik bormidi, har qalay, unga bir jilmayib qaradi-da:

— Kechirasiz, avtobus tirband ekan, — deb qo‘ya qoldi. Kutilmagan xushmuomalalikdan qo‘rs kishi mulzam bo‘lib qoldi. Mana sizga odamshavandalikning bir ko‘rinishi.

**?** ***Savolga javob bering:***

Nima sababdan qo‘rs kishi mulzam bo‘lib qoldi?

**214-mashq.** Matnni o‘qing. Sabab va natija ma’nolarini ifodalovchi so‘zlarni ko‘rsating.

## XUSHCHEHRALIK

Xushchehralik — biror kishi sizga iltimos bilan murojaat qilganda kayfiyatingiz yomonligini, vaqtingiz ziqligini sezdirmay, darhol chehrangizni ochib, uni iltifot bilan tinglash, kerakli javobni samimiy izhor eta bilishdir.

Biron sababga ko'ra, yoshlikdan odob o'rganmagan, xushmuomalalik, shirinso'zlikka odatlanmagan kishi ham, agar ko'nglida odamiylik xislati bo'lsa, bu kamchilikni tuzatishi mumkin. Chunki o'z xulq-atvorining takomillasha borishiga intilmagan shaxs Inson degan nomga noloyiqdir. Sen ham bir og'izdan, siz ham bir og'izdan chiqadi. So'zning inson hayotidagi o'rni, ahamiyati beqiyosligini buyuk bobomiz Alisher Navoiyning quyidagi fikrlaridan bilish mumkin: «Insonni so'z ayladi judo hayvondin, bilki guhari sharifroq yo'q ondin».

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Shirinso'z, shirinsuxan insonlarni qanday ajratish mumkin?
2. Qo'rslik qanday oqibatlarga olib keladi?
3. Sizga insonlarning tashqi go'zalligi yoqadimi yoki xushfe'lligi yoqadimi?
4. Siz o'zingizdagi qaysi salbiy jihatlarni tuzatishga harakat qilasiz?
5. Yaxshi, tarbiyali inson qanday bo'lishi kerak? Yozib chiqing.
6. Matnni sarlavhalang.

*43-topshiriq*. Ijodiy ish. Madaniyatli inson haqida o'z tasavvuringizni bayon etgan holda uy inshosi yozing.

## *4-DARS:* O'TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

**Bilasizmi?**

### KAMOLIDDIN BEHZOD

Kamoliddin Behzod 1455-yilda Hirot shahrida tug'ildi. U ota-onadan juda erta yetim qoldi. Uni Husayn Bayqaroning kitobdori Mirak Naqqosh o'z tarbiyasiga oladi. Kamoliddin rassomlik san'atiga qiziqishi, qobiliyati va iste'dodi bilan kishilarning e'tiborini jalb etadi, ko'p o'tmay ilm-fan, san'at va adabiyot ahllari orasidan o'ziga munosib o'rin oladi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy iste'dodli yosh rassomga alohida e'tibor beradi va unga har tomonlama g'amxo'rlik qiladi. Behzod 1510-yilgacha Hirotda yashab, ijod qiladi. Keyin esa u Ozarbayjonga — Tabrizga boradi. U yerda poytaxt kutubxonasi va san'atkorlariga boshliq qilib tayinlanadi. Kamoliddin Behzod 1533—1537-yillar o'rtasida vafot etadi.

Behzodning zamondoshlari hamda keyingi davrning olimlari uni Sharq Rafaeli deb nomlashgan. Behzod tasviriy san'atning ulug' namoyandasi bo'lib, u rassomlikda «Hirot maktabi» deb nomlangan yangi bir ijodiy uslubning asoschisi bo'ldi va ustoz san'atkor sifatida O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o'lkalar tasviriy san'atining taraqqiyotiga samarali ta'sir etdi.

***215-mashq.*** Iqtisodiy-geografik ma'lumotnomani o'qing va topshiriqlarni bajaring.

## FARG'ONA VILOYATI




Farg'ona viloyati respublikaning sharqida, Farg'ona vodiysining janubida joylashgan.

Farg'ona 1938-yil 15-yanvarda tashkil etilgan qadimiy shaharlardan biri hisoblanadi.

Farg'ona viloyatining maydoni 7,1 ming kv. km. Aholisi 2444,5 ming kishi. Viloyat tarkibida 15 tuman, 9 shahar, 10 shaharcha va 164 qishloq bor.

Farg'ona vodiysi respublikamizning eng ko'kalamzor, havosi toza viloyatidir. U «yashil vodiy, zumrad vodiy» nomlari bilan mashhur. Farg'onada buyuk allomamiz Ahmad Farg'oniy yashab o'tgan. Markazi — Farg'ona shahri hisoblanadi. Qo'qon, Marg'ilon shaharlari ham Farg'ona vodiysida joylashgan. Marg'ilon shahrining 2000 yilligi nishonlandi.

Marg'ilon ipak shahri deb ham ataladi. U yerda o'zbek xonatlaslari ishlab chiqariladi. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari paxtachilik, g'allachilik, pillachilik va chorvachilik bilan shug'ullanishadi.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Nima uchun Farg‘ona «yashil vodiy» deb ataladi?
2. Xaritadan Farg‘ona vodiysi joylashgan joy va u yerda joylashgan shaharlarni ko‘rsating.
3. Farg‘ona shahri haqida ma’lumot bering.
4. Marg‘ilon nega «Ipak shahri» deb ataladi?
5. Farg‘oniy nomi bilan mashhur alloma kim? U haqida bilganlaringizni so‘zlab bering.

## *XVI bob.* YO‘L HARAKATI QOIDALARI
## *(SHART VA TO‘SIQSIZLIK MA’NOSINI IFODALASH)*

### *1-DARS:* JAMOAT TRANSPORTI QOIDALARI

**Bilib oling!**

O‘zbek tilida shart ma’nosi voqeaning qanday shart bilan yuzaga kelishini bildiradi. Shart ma’nosini ifodalovchi gaplar fe’lning shart mayli shakli **-sa** yoki **-ganda, -ganda edi** vositalari orqali bog‘lanadi va *nima bo‘lsa, nima bo‘ladi?* konstruksiyasida tuziladi. Masalan: *Havo ochilib tursa, ertaga saylga chiqamiz. Yomg‘ir yog‘maganda, bugun sayrga borar edik.*

Ma’noni kuchaytirish uchun gapning boshida *agar, agarda, mabodo* so‘zlarini qo‘llash mumkin. Masalan: *Agar hayot karvon bo‘lsa, sarbon muallim.*

Shart ma’nosi sodda gaplarda *shart, kerak, zarur, darkor, lozim* so‘zlari orqali ifodalanadi. Masalan: *Hamma yo‘l-transport qoidalariga rioya qilishi shart.*

***216-mashq.*** Maqollarni yod oling. Shart ma’nosini ifodalagan gaplarning tuzilishini sharhlang.

1. Kimki senga do‘stlik qilsa,
   Do‘stlik qadrin unutma.

2. Har yerni qilma orzu,
   Har yerda bor tosh-tarozu.

3. Yangi do‘st orttirsang,
   Eskidan yuz o‘girma.

4. Kimki hayotdan olmasa ta’lim,
   Unga o‘rgata olmas hech bir muallim.

5. Boshingga qilich kelsa ham to‘g‘ri gapir.

***217-mashq.*** Quyidagi gaplarni shart ma'nosida davom ettiring.

Agar daraxt barglari uchidan to'kilsa, ...
Agar yoz issiq kelsa, ...
Qovun po'chog'i yerga tushsa, ...
Agar tabiatga zarar yetkazilsa,...
Mabodo qushlar pastlab uchsa,...

***218-mashq.*** Matnni o'qing. Shart ma'nosini ifodalovchi gaplarni aniqlab, grammatik vositalarini ko'rsating.

## JAMOAT TRANSPORTIDA NIMALARGA RIOYA QILISH KERAKLIGINI BILASIZMI?

Yo'lovchilar transportga orqa eshikdan chiqishlari lozim. Bu holatda avval nogironlarni, bolali ayollarni, keksa yoshdagilarni, yosh bolalarni chiqarmoq va so'ngra o'zimiz chiqmog'imiz shart. Salonda odam gavjum bo'lsa, ularni turtib joy izlamang. Jamoat transportining oldingi o'rinlari yosh bolali ayollarga, nogironlarga mo'ljallanganligini esda tutish kerak. Siz doimo sezgir va kuzatuvchan bo'lishingiz kerak. Agar transportga o'zingizdan katta, nogiron yoki yosh bolalilar chiqsa, darrov joy berishingiz lozim. Transportga chiqayotgan yoki tushayotgan kishining yuki og'ir bo'lsa, yordam berish zarur.

Yana muhim odoblardan biri transportni doimo ozoda saqlashimiz, o'rindiqlarni yirtmasdan, keraksiz so'zlarni yozmasdan foydalanishimiz darkor.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Matnni diqqat bilan o'qing. Harakat nomi shaklidagi so'zlarni topib, ma'nosini aniqlang.
2. Suhbatdoshlaringizga transportda o'zini qanday tutish kerakligi haqida maslahat bering.
3. Transportda mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan harakatlarni alohida-alohida yozing.
4. Kishi o'z-o'zini tarbiyalab borishi uchun nimalar qilishi kerak? Kishiga uning transportda o'zini tutishiga qarab baho berish mumkinmi? Fikringizni yozma ifodalang.

***219-mashq.*** Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. Shart ma'nosini ifodalovchi gaplarning har ikki tilda berilishini bir-biriga qiyoslang.

## ЧТО ТАКОЕ ДРУЖБА?

Когда учишься в школе, кажется, что взрослая жизнь будет в каком-то другом мире. От настоящего не останется ничего. А на самом деле всё иначе. Друзья молодости оказываются самыми верными. Круг знакомых увеличился, но настоящие друзья — старые.

Молодость — это время сближения. Об этом нужно помнить и друзей беречь, потому что настоящая дружба очень помогает и в горе, и в радости. В радости ведь тоже нужна помощь. Неразделённая радость — не радость. А когда же наступит пора несчастий, пора утрат, опять нельзя быть одному. Горе человеку, если он один. Поэтому берегите молодость до глубокой старости.

***220-mashq.*** Matnni o‘qing. Shart ma’nosini ifodalovchi gaplarni aniqlab, tuzilishi va ifodalanishini tushuntiring.

## HAYOT QOIDALARI

Bola yetti yoshga yetgach, uni ilm olishga va johillik botqog‘idan qutqarishga uriniladi. Agar unga ilm o‘rgatishning iloji bo‘lmasa, birorta yaxshi hunarga o‘rgatiladi.

Agar sening moling qancha ko‘p bo‘lsa, ularni farzandingning ilm va hunar olishi yo‘lida sarfla, chunki mol-u davlatga ishonib bo‘lmaydi, hunar esa hech qachon o‘lmaydi. Ilm va hunar o‘rganmay o‘tiruvchi kishilar haqida olimlar uch sababi borligi haqida gapiradilar. Bunday kishilar zohid, tanbal yoki takabburdir. Agar u zohid bo‘lsa, tez kunda ta’na balosiga giriftor bo‘ladi, agar tanbal bo‘lsa, gadolik ko‘yiga tushadi. Agar takabbur bo‘lsa, nochorlikdan o‘g‘rilik yo‘liga kiradi. Kimki kasb-korga ega bo‘lsa, bunday illatlardan uzoq bo‘ladi.

***Savol va topshiriqlar:***

1. Nima uchun matnga «Hayot qoidalari» deb sarlavha qo‘yilgan?
2. Siz yana qanday hayot qoidalarini bilasiz?
3. Matndan foydalanib, quyidagi gaplarni davom ettiring:
   - Agar sening moling qancha ko‘p bo‘lsa,...
   - Agar u zohid bo‘lsa,...
   - Agar tanbal bo‘lsa, ...
   - Agar takabbur bo‘lsa, ...
   - Kimki kasb-korga ega bo‘lsa, ...

## *2-DARS:* SIGNALLAR TILI

***221-mashq.*** Matnni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

### SIGNALLAR TILI

Kishilik tarixining ilk rivojlanish davrida avstraliyaliklar o'z joylarini tashlab ketayotganlarida oyoqlari bilan qumga chiziq chizganlar va chiziqning uchiga xivich tiqib qo'yganlar. Chiziqning yo'nalishi va uning uzunligi shu guruhning tomonga va qancha masofaga ketganligini ko'rsatardi. Bu belgi o'z guruhlarining kechikib qolgan a'zolari, shuningdek, mehmonlar uchun qilingan. Shunga o'xshash «signallar tili» hozirgi zamon barcha qabilalar va xalqlarda, ayniqsa, Shimoliy Amerika hindularida ko'p tarqalgan.

Shimoliy Amerika hindularida tomagauk, ya'ni so'yil yuborish urush e'lon qilishning ramziy belgisi bo'lgan. So'yil dushmanga alohida elchi orqali yuborilgan, u so'yilni dushman oldiga olib borib yerga qo'ygan. Agar qarshi tomon so'yilni yerdan ko'tarsa, urushga rozi ekanligini bildirgan. «So'yilni ko'mish» ifodasi «sulh tuzilishi»ni anglatgan.

Yunon tarixchisi Gerodotning hikoyasiga ko'ra, bir vaqtlar eroniylar skiflarga qarshi hujum qilganlarida, ular eroniylarga ramziy narsalar yuborganlar. Skiflar ularga qush, sichqon, baqa va beshta o'q-yoy yuborganlar va bu narsalar quyidagi ma'noni anglatgan: «Agar siz, eroniylar, qush singari osmonga uchmasangiz, sichqon singari kovakka bekinmasangiz yoki baqa singari sakrab tushmasangiz, elingizga qayta olmaysiz va bizning o'q-yoylarimiz ostida qirilasiz».

Bir yoki bir necha tugunli kanop yuborilsa, «signallar tili»da taklif etilganlikni bildirgan, tugunlarning soni esa bu taklifning qanchalik shoshilinch ekanligini ko'rsatgan.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Matnni o'z so'zlaringiz bilan qayta hikoyalang.
2. Nima uchun matn «Signallar tili» deb atalishini izohlang.
3. Matndan shart ma'nosini ifodalovchi gaplarni toping va qanday vositalar bilan ifodalanishini tushuntiring.

4. Matndan to‘siqsizlikni bildiruvchi nutqiy konstruksiyani ko‘chirib yozing va ifodalanishini izohlang.
5. Hozirgi kunda til vositalarisiz fikrni ifodalash «Imo-ishoralar tili», «Internet tili» va hokazolar haqida, nolisoniy vositalar haqida bilganlaringizni so‘zlab bering.

**Bilib oling!**

To‘siqsizlik ma’nosi qo‘shma gaplar orqali ifodalanadi. Bunda birinchi va ikkinchi gapdagi mazmun bir-biriga zid bo‘lsa ham, voqea-hodisaning baribir sodir bo‘lishi ifodalanadi. Masalan:

*Havo bulut bo‘lsa ham, yomg‘ir yog‘madi.*

To‘siqsizlik ma’nosini ifodalovchi gaplar **-sa ham, -sa-da, -ganda ham, -ga qaramay** kabi qo‘shimchalar vositasida bog‘lanadi. Bunda birinchi gap tarkibida ma’noni kuchaytirish maqsadida *garchi, garchand* so‘zlari ishlatiladi. Masalan: *Garchi havo yomon bo‘lsa ham, hamma shanbalikka chiqdi.*

***222-mashq.*** Matnni o‘qing. To‘siqsizlik ma’nosi ifodalangan gaplarni topib, ifodalanishini tushuntiring.

1. Bepoyon, bag‘ri keng, saxiy paxtazor oq dengizdek chayqaladi. Bu yil dalalarda hosil mo‘l. Qancha xirmonlar qad ko‘targan bo‘lsa-da, hali ham hosil kamaymagandek.
2. Madrasa hovlisi qator hujralardan iborat. Hujralar bo‘mbo‘shdek ko‘rinsa ham, har bir hujrada to‘rt kishidan o‘tirishar edi. Hujra tor va zax. Eshikchaning lang ochiqligiga va hali kunduzi bo‘lishiga qaramay, bu yerda nim qorong‘ilik hukm surardi.

***223-mashq.*** Ikkinchi ustundan birinchi ustundagi gaplarning davomini topib yozing. To‘siqsizlik ma’nosining qanday vositalar bilan ifodalanayotganini tushuntiring.

| | |
|---|---|
| Kunduzlari issiq bo‘lsa-da, | bolalar uyga kirishni istashmasdi |
| Quyosh botgan bo‘lsa ham, | kechalari ancha salqin bo‘ladi |
| Tomosha tugagan bo‘lsa ham, | ko‘chib o‘tishni xayoliga keltirmasdi |
| Qor yog‘ib turgan bo‘lsa-da, | zalda hali odamlar to‘la edi |
| U yangi uy olgan bo‘lsa ham, | hali hammayoq yorug‘ edi |

***224-mashq.*** Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling. To‘siqsizlik ma’nosining o‘zbek va rus tillarida qanday vositalar bilan ifodalanishini qiyoslang.

1. Работа кипела, несмотря на то, что наступила ночь. 2. Хотя было холодно, я не замёрз. 3. Как не убеждали его, он ни с кем не согласился. 4. Несмотря на то, что наступила темнота, мы продолжали идти вперед. 5. Если бы все были согласны, то план бы осуществился. 6. Всем они казались друзьями, хотя на самом деле они не любили друг друга. 7. Хотя мавзолей был закрыт на реставрацию, туристы всё равно приезжали.

## *3-DARS:* O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

**Bilasizmi?**

### «ABN AMRO BANK»

«ABN AMRO BANK O‘zbekiston MB, XJ» 1996-yil 16 noyabrda tashkil etilgan. Bu bank xorijiy sarmoya ishtirokidagi bankdir. Niderlandiya davlatiga qarashli bu bank Toshkent shahrining Husniddin Asomov ko‘chasida joylashgan. Bankning to‘g‘risida yirik «O‘zbat» qo‘shma korxonasi, chap tarafida Toshkent moliya instituti, o‘ng tarafida esa Italiya davlatining elchixonasi joylashgan.

O‘zbekiston Respublikasida xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalarga «ABN AMRO BANK» o‘z hissasini qo‘shmoqda. Chunonchi, «O‘zkorfarmsanoat» qo‘shma korxonasi farmatsevtika ishlab chiqarishga ulush qo‘shgan va kredit bergan.

«ABN AMRO BANK» asosan yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatadi.

Bankning filiallari mavjud emas.

**!** **Topshiriq:**

1. Matndan o‘rin ma’nosini ifodalovchi gaplarni aniqlang va vositalarni ko‘rsating.
2. Qisqartma otlarga e’tibor bering.
3. O‘zbekiston Respublikasidagi yana qanday xorijiy sarmoya ishtirokidagi banklarni bilasiz? Aytib bering.

*225-mashq.* Iqtisodiy-geografik ma'lumotnomani o'qing va topshiriqlarni bajaring.

## SURXONDARYO VILOYATI




Surxondaryo viloyati respublikaning eng janubida, Surxon-Sherobod vodiysida joylashgan bo'lib, 1941-yil 11-martda tashkil etilgan. Tarkibida 10 tuman, 8 shahar, 3 shaharcha bor. Markazi — Termiz shahri. Maydoni 20,8 ming kv.km, aholisi 830 ming kishi. Aholisi, asosan, o'zbeklar, tojiklar va turkmanlardan iborat, shuningdek, ruslar, tatarlar va qozoqlar ham bor. XIX asrning oxiri — XX asrning boshlarigacha aholi orasida urug'-qabilaga bo'linish saqlangan bo'lib, ular qo'ng'irot, barlos, qarluq va turk qabilalariga bo'lingan.

Surxondaryo hududida tarixiy-madaniy ahamiyatga ega yuzlab arxeologik qazilmalar topilgan. Ayritom, Piromoni, Qoratepa g'oridagi budda ibodatxonasi, Dalvarzintepadan chiqqan 115 oltin buyumdan iborat xazinalar eramizdan avvalgi III—II asrlarda bu hududda katta davlat bo'lganligidan va hunarmandchilik rivojlanganligidan darak beradi.

Surxondaryo viloyatida hozirgi kunda tog'-kon, oziq-ovqat, yengil va qurilish materiallari sanoati rivojlanmoqda. Surxondaryo iqlimi issiq bo'lganligi uchun qishloq xo'jaligi va chorvadorlik juda rivojlangan. Paxtaning eng qimmatbaho ipak paxta navi, pillachilik, subtropik o'simliklar yetishtiriladi. Shuningdek, chorvachilik ham rivojlangan. Surxondaryoda jahon mo'yna va teri auksionlarida qadrlanadigan «Surxon suri» qorako'l terisi yetishtiriladi.

***Savol va topshiriqlar:***

1. Surxondaryo viloyati qayerda joylashgan?
2. Surxondaryo viloyati qachon tashkil etilgan? Tarkibida nechta tuman va shahar bor?
3. Surxondaryo aholisining etnik tarkibi va soni haqida ma'lumot bering.

4. Surxondaryo hududida qanday arxeologik qazilmalar topilgan? Ularning ahamiyati nimada?
5. Termiz shahrida qanday jahonga mashhur maqbara bor?
6. Surxondaryo viloyatida qanday sanoat korxonalari bor?
7. Nima uchun Surxondaryoda qishloq xo‘jaligi juda rivojlangan?
8. Surxondaryo haqida yana qanday ma’lumotga egasiz?
9. Internet va ommaviy axborot vositalari yordamida qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plang va Surxondaryo haqida referat tayyorlang.

*XVII bob.* **O‘ZBEKISTON JAHONGA YUZ TUTMOQDA**
*(FIKRGA MUNOSABAT BILDIRISH)*

## *1-DARS:* O‘ZBEKISTON VA JAHON

**Bilib oling!**

Fikrga munosabat bildirishda *albatta, haqiqatan ham, demak, ehtimol, shekilli, balki, baxtimizga* kabi so‘zlardan foydalaniladi. Bunday so‘zlar gapning boshida ham, oxirida ham kelishi mumkin va hamisha vergul bilan ajratib yoziladi. Masalan: *Baxtimizga onajonimiz sog‘ bo‘lsinlar, bugun yomg‘ir yog‘adi, shekilli. Hashar kunlarida, albatta, hamma ishtirok etadi.*



✍ ***226-mashq.*** Nuqtalar o‘rniga fikrga munosabat bildiruvchi so‘zlarni qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

..., olimlar buyuk ishlarni amalga oshiradilar. Ular ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qilib, jamiyatni rivojlantiradilar. Ayrim kashfiyotlar, ..., bir necha o‘n yillik ishlar mahsuli bo‘lishi mumkin. ..., ilm olish igna bilan quduq qazishdir. ..., ustozning ishini shogirdlar davom ettiradilar. ..., har bir haqiqiy olimning iste’dodli shogirdlari bo‘ladi. Xalqimizning «Yaxshidan bog‘ qoladi», deb bejiz aytilmagan. ..., olim — bog‘bon, shogirdlari esa hayot mevalaridir.

**?** ***Savol va topshiriqlar:***

1. Nima uchun ilm olish igna bilan quduq qazishga o‘xshatiladi?
2. «Yaxshidan bog‘ qoladi» maqolini qanday tushunasiz?

✍ ***227-mashq.*** Quyidagi so‘z va iboralar yordamida tartib va izchillikni bildiruvchi so‘zlarni qo‘llab suhbat matnini yozing.

✍ ***228-mashq.*** Qavs ichida berilgan so‘zlarni qo‘llab, savollarga javob bering. Javobda tartib va izchillikni bildiruvchi so‘zlarni ishlating.

1. Hosil mo‘l bo‘lishi uchun nima zarur?
   ***(quyosh, suv, parvarish)***
2. Bilimlarimiz mustahkam bo‘lishi uchun nimalar zarur?
   ***(qunt, mehnatsevarlik, intizom)***
3. Mohir san’atkor bo‘lish uchun qanday xislatlar bo‘lishi shart?
   ***(qobiliyat, tirishqoqlik o‘ziga talabchanlik, ijodiy izlanish)***
4. Yaxshi inson qanday fazilatlarga ega bo‘lishi lozim?
   ***(halollik, kamtarlik, mehnatsevarlik, shirinso‘zlik)***

✍ ***229-mashq.*** Matnni o‘qing va o‘zbek tiliga tarjima qiling.

## О КНИГЕ

Как велико было моё изумление, когда я почувствовал, что почти каждая книга как бы открывает предо мной окно в новый неведомый мир, рассказывая мне о людях, чувствах, мыслях и отношениях, которых я не знал, не видел.

Чем больше я читал, тем более книги роднили меня с миром, тем ярче, значительнее становилась для меня жизнь. Нередко я плакал читая, так хорошо рассказывалось о людях, так милы и близки становились они.

## *2-DARS:* O‘ZBEKISTON FAXRI

***230-mashq.*** Matnni o‘qing. Fikrga munosabat bildiruvchi so‘zlar qanday vazifa bajarayotganini tushuntiring.

O‘zbekiston bo‘hrondan chiqib boryapti va yangilanish sur’atini dadillik bilan egallab, o‘zining kelajagiga ishonch bilan qaramoqda. Xo‘sh, bu ishonch nimaga asoslangan?

Birinchidan, dunyo xaritasida bizning zaminimizchalik boylikka, mineral xomashyo, qishloq xo‘jaligi va boshqa noyob resurslarga ega bo‘lgan davlat kam topiladi. Hozircha bu boylikning kattagina qismidan foydalanilayotgani yo‘q, shuning uchun ham bu boyliklar o‘zaro foyda ko‘rish asosida biz bilan hamkorlik qilmoqchi bo‘lgan jahondagi mashhur kompaniya va banklarning e’tiborini jalb etmoqda. Xorijlik ekspertlarning hisob-kitobiga qaraganda, O‘zbekistonning mineral xomashyo resurslarining o‘zigina uch trillion dollar miqdorida baholanar ekan. Bu raqamning o‘zi hamma gapni aytib turibdi.

Ikkinchidan, bizning eng katta boyligimiz ko‘p millatli mehnatsevar xalqimizdir. Bizning tariximiz — buyuk tarix. Bizning tomirlarimizda jahon ma’rifatiga salmoqli hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimiz qoni oqmoqda. Bu zaminda ezgulik va insonparvarlik, tinchlik va ahllik, yaxshilik, adolatning buyuk qadriyatlaridan ta’lim bergan buyuk mutafakkirlar yashab o‘tgan. Biz ushbu buyuk ajdodlarimizning vorislari sifatida O‘zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishimizga ishonamiz.

***231-mashq.*** Matnni o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

### O‘ZBEKISTONNING JAHON BOZORIDAGI O‘RNI

Bugungi kunda O‘rta Osiyo, Rossiya, Yevropa yo‘llarida O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan «Damas», «Matiz», «Neksiya», «Lassetti», «Epika» avtomobillarini uchratish mumkin. Xalqaro ekspertlar xulosasiga ko‘ra, bu mashinalar nafaqat markali avtomobil sifatida, balki yaxshi sifati bilan ham ko‘zga tashlanmoqda. Mazkur avtomobil markalari Rossiya bozorida «Folksvagen» va «Volvo» avtomobillari bilan bir qatordan o‘rin olgan. Asaka avtomobillari arzonligi va tejamliligi bilan ajralib turadi. Avtomobil ishlab chiqarish korxonasi nafaqat o‘zining mahsulotlari, balki yengil avtomobil tuzatish va xizmat ko‘rsatish sohasida ham butun dunyoga mashhur.

Avtokorxona xaridorlarning talablarini hisobga oladi. Shuning uchun mashinaning kuchi, germetik saloni, rangli gammalari kengaytirilgan.

Asaka avtomobil korxonasining mahsuloti Rossiya bozori qatorida Minsk va Buxarest bozorlaridan o'rin olgan. Yaqin orada, Varshava bozorida ham korxona o'z mahsulotini sotuvga qo'yishni rejalashtirmoqda. Shunday qilib, avtokorxonaning sifatli mahsulotlari jahon bozorlariga ishonch bilan kirib bormoqda.

**!** **Topshiriqlar:**

1. O'zbekistondagi avtomobil ishlab chiqarish korxonalari haqida ma'lumot bering.
2. Asaka avtomobil korxonasining mahsulotlari chet mamlakatlarda qanday baholanayotgani haqida nimalarni bilasiz? Shu haqida so'zlab bering.
3. «O'zbekistonda mashinasozlik sanoati» mavzusida referat tayyorlang.

## *3-DARS:* O'TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

**Bilasizmi?**

### NOYOB DASTXATLAR

Yer yuzidagi eng qadimiy shaharlardan biri, yigirma besh asrlik Feodosiyada toshxatlar muzeyi — lapidariy ochilgan. Unda moviy dengiz sohilida yashagan uzoq ajdodlarimiz tosh va qoyalarda qoldirilgan «noyob dastxatlar» yig'ilgan. Qadimgi kishilarning hayoti, ularning mehnati, mashg'ulotlari to'g'risida hikoya qiluvchi rasmlar tosh sahifalarda qolgan.

Butun Qrim diyoriga shunday tosh «kundaliklar» tarqalgan. Feodosiya va uning chekkalarida ellin, genuya, turk, qadimgi arman bitiklari va boshqa bitiklar chekilgan tosh va plitalar ayniqsa ko'p. Mahalliy o'lkashunoslik muzeyining xodimlari shularni bir joyga yig'ishga qaror qildilar. Feodosiyaning qadimgi binolaridan birida joylashgan noyob kolleksiya shu tarzda vujudga keldi.

Ilmiy xodimlar ko'pgina bitiklarning ma'nolarini yechdilar. Toshxatlar kolleksiyasi tobora ko'payib bormoqda.

***<u>Adabiy o‘qish</u>***

*Azim Suyun*

## XORIJGA KETIB QOLGAN O‘ZBEKLARGA SAVOLIM

Bir sabab, bir ixtiyor
Qo‘lingizdan tutgandir.
Sarkash o‘yda baxtiyor
Bir yo‘l boshlab ketgandir.
Tasavvur qilish mumkin:
Bor ilohiy bog‘ingiz.
Uyda porlagay, balkim,
Sehrli chirog‘ingiz.
Balkim oqar daryolar
Eshigingiz qoshidan.
Sochilar mol-dunyolar
Farzandingiz boshidan.
Iqbol ohanrabosi
Sarob bo‘lmagan balkim.
Buxoroning tillosi
Ado bo‘lmagan balkim.
Balkim nasib pariday
Hur qizlarning nechasi.
«Chin tiriklik» suvidan
Balkim har kun ichasiz.
Tasavvur qilish mumkin:
Unutilgan ona Yurt...
Unutmagansiz, balkim, —
Imoningiz nonday but?
O, shunday bo‘lsa, bir zum,
Menga quloq solgaysiz:
— O‘zbekistonsiz, ayting,
Qanday nafas olgaysiz!

**!** **Topshiriq:**

1. She’rni ifodali o‘qing va yod oling.
2. Quyidagi maqol mazmunini sharhlang:

*O‘zga yurtning sultoni bo‘lguncha,*
*O‘z yurtingning bog‘boni bo‘l.*

# O‘ZBEKCHA – RUSCHA LUG‘AT

## A

*Adabiy til* — литературный язык
*Adashmoq* — заблуждаться
*Ado* — исполнение, завершение, окончание
*Ado etmoq* — исполнять, выполнять, завершать
*Afsona* — легенда, миф
*Afv* — прощение, извенение
*Afzal* — лучший, предпочтительный
*Ahd* — уговор, соглашение, обещание
*Ahil* — дружный
*Aholi* — население
*Ajdod* — предки
*Ajnabiy* — иностранец
*Ajratma, ajramoq, ajratmoq* — отделяться, разделяться, расходиться
*Aktiv balans* — актив баланс
*Akkreditlash* — аккредитация
*Aksiya* — акция
*Aksiyador* — акционер
*Aksiyadorlar mablag‘i* — акционерный капитал
*Aksiyadorlik jamiyati* — акционерное общество
*Albatta* — обязательно, несомненно
*Alloma* — мыслитель
*Almashish* — обмен
*Alohida shaxs* — частное лицо
*Aloqa* — связь
*Aloqa vositalari* — средство связи
*Aloqani tiklamoq* — восстанавливать связи
*Amaldor* — чиновник, должностное лицо
*Amalga oshirmoq* — воплощать, осуществлять

*Amaliyot* — практика
*Amal qilmoq* — соблюдать, действовать
*Andoza* — стандарт
*Anjuman* — конференция
*Anqov* — недогадливый
*An'ana* — традиция
*Aql* — разум
*Aqliy mehnat* — умственный труд
*Ardoqlamoq* — ценить, уважать
*Asl* — суть, существо, начало, оригинал, сущность
*Asos* — основа, основание
*Asosan* — в основном
*Asosiy vositalar* — основные средства
*Astoydil* — искренне, добросовестно
*Atrof* — вокруг
*Audit* — ревизия
*Avaylamoq* — беречь
*Avlod* — поколение
*Avtomobilsoz* — машиностроитель
*Avvalambor* — изначально
*Avzo* — вид, выражение
*Axborot* — известие, сообщение, информация
*Ayirboshlamoq* — обменивать
*Ayrim* — некоторое
*Azim* — большой
*Ashyo* — вещь, предмет

## B

*Badal* — взнос
*Badantarbiya* — физкультура
*Baho* — цена, стоимость
*Bajarmoq* — исполнять, выполнять
*Balans foizi* — процентный баланс
*Balans hisoboti* — балансовый отчет
*Balog'at yoshi* — совершеннолетие
*Bank krediti* — банковский кредит
*Banknotalar* — банкноты
*Bank o'tkazmalari* — банковские переводы
*Barakalla* — молодец
*Barqarorlik* — стабильность

*Bekor qilmoq* — анулировать
*Belgi* — знак, отметка, примета
*Belgilangan qiymat* — номинал
*Bepul* — безвозмездно
*Bildirish* — рапорт
*Bildirish xati* — извещение
*Bilimdon* — знайка
*Binoan* — на основе
*Birgalik* — совместность
*Birikma* — сочетание
*Birlashma* — объединение, ассоциация, соединение
*Bir kalima* — словечко, фраза
*Bir zumda* — в миг
*Bitik* — надпись, письмо
*Bitilmoq* — быть написанным
*Bitim* — соглашение, сделка
*Boj* — пошлина, таможенный сбор
*Bojxona* — таможня
*Bol* — мёд
*Boylik* — богатство
*Bozor* — рынок
*Boqimanda* — дебиторская задолженность, недоимка
*Bosqich* — ступень
*Boshoq* — колосье
*Boshqarmoq* — руководить, управлять делами
*Buyruq* — приказ, распоряжение
*Buyum* — вещь, предмет
*Buyurtma* — заказ
*Bo'lajak* — будущее
*Bo'linma* — подразделение
*Bo'nak* — аванс, задаток
*Bo'ysunmoq* — быть зависимым
*Bo'shamoq* — освобождаться, увольняться

## D

*Dadil* — решительно
*Dalil* — довод, доказательство, аргумент
*Dallol* — маклер
*Dalolatnoma* — акт
*Daqiqa* — минута

*Daraja* — степень, уровень, ступень
*Dargoh* — высокопочтенное место
*Darhaqiqat* — действительно
*Darhol* — сразу
*Daromad* — доход, приход, подоходный
*Daromad solig'i* — подоходный налог
*Darrov* — сразу
*Davlat* — государство, богатство, достояние, благо
*Davlat banki* — государственный банк
*Davlat korxonasi* — государственное предприятие
*Davlat mulki* — государственное имущество
*Davr* — эпоха, время
*Dasht* — пустыня
*Da'vo* — иск, претензия
*Debitor* — дебитор
*Devonxona* — канцелярия
*Dil* — душа
*Diltortar* — привликательный
*Dod solmoq* — кричать
*Doir* — присущи
*Dorulfunun* — университет
*Duradgor* — плотник
*Dunyo* — вселенный мир
*Do'kon* — магазин

## E

*Egri* — кривой, согнутый
*Ehtiyoj* — потребность, нужда
*Ehtirom* — почтение
*El* — народ
*Elat* — племень, народ
*Elektron hisoblash mashinasi* — электронно-вычислительная машина
*Elchixona* — дипломатический корпус
*Erishmoq* — достичь, достигать
*Eskirmoq* — износ
*Eslamoq* — вспоминать
*Eslatma* — примечание
*Etak* — подол
*Ezgulik* — добро

*E'tibor* — внимание
*E'tibor bermoq* — обращать внимание
*E'tirof* — признание, сознание
*E'lonlar taxtasi* — доска объявлений
*E'tiroz* — возражение, несогласие
*E'tiroznoma* — протест

## F

*Faol* — активный
*Faoliyat* — деятельность
*Faqir* — бедный
*Faraz* — предположение
*Farosat* — проницательность, восприимчивость
*Farovonlik* — изобилие
*Farog'at* — покой, спокойствие, досуг
*Farq* — разница
*Farrosh* — уборщица
*Fazilat* — достоинство, положительное качество
*Fayz* — прелесть, привлекательность
*Fidoyilik* — патриотизм
*Fikr* — мысль, идея
*Foiz* — процент
*Foyda* — выгода
*Foydali taklif* — выгодное предложение
*Fuqarolik* — гражданство
*Fursat* — время, момент
*Futur* — ущерб, повреждение

## G

*Galma-gal* — поочерёдно
*Gard* — пыль, пылинка, прах
*Gardan* — шея
*Garov* — залог, заклад
*Garchi* — хотя, несмотря
*Gavjum* — многолюдно
*Gasht* — удовольствие
*Gerb* — герб
*Gerdaymoq* — задирать нос, важничать
*Girdob* — пучина, омут

*Giyoh* — трава
*Guldon* — ваза
*Gullay boshlamoq* — зацветать
*Guvoh* — свидетель, очевидец
*Guvohnoma* — свидетельство (документ), удостоверение
*Guruh* — группа

## H

*Hadya shartnomasi* — договор дарения
*Hajm* — объем, емкость
*Hakamlik* — арбитраж
*Halol* — честно
*Hamisha* — всегда
*Hamkasb* — коллега
*Hamshahar* — земляк
*Hamshira* — медсестра
*Harom* — заработанный не честным путём
*Havas* — белая зависть
*Havza* — водохранилище
*Hayajon* — волнение
*Hayfsan* — выговор
*Hayrat* — удивление
*Hay'at* — коллегия
*Himmat* — бескорыстная помощь
*Hisob-kitob arizasi* — отчетное заявление
*Hisob-kitob daftarchasi* — расчетная книжка
*Hisob-kitob raqami* — расчетный счет
*Hisobga olish varag'i* — учетный лист
*Hisobot* — отчет
*Hisobchi* — учетник, бухгалтер
*Hisobchilik* — бухгалтерство
*Hissa* — доля
*Hokimiyat* – власть
*Holat* — положение, состояние
*Hosil, hosildor* — урожай
*Hozirlamoq* — подготовить

*Hudud* — территория
*Hujjat* — документ
*Hujjatchilik* — документация
*Hukumat mukofoti* — правительственная награда
*Hunar* — ремесло
*Hunarmand* — ремесленник
*Huquqshunos* — юрист
*Huquqiy* — правовой
*Husn* — красота

## I

*Ibodat* — молитва
*Idora* — контора, правление, управление, учреждение
*Idrok* — разум, соображение
*Iftixor* — гордость
*Ijara* — аренда, наём
*Ijarachi* — арендатор, наниматель, съемщик
*Ijodiy* — творческий
*Ijro etuvchi* — исполнительная власть
*Ijrochi* — исполнитель
*Ijtimoiy* — общественный
*Ikki tomonlama bitim* — двустороннее соглашение
*Ilhom* — вдохновение, воодушевление
*Illat* — болезнь, недостаток
*Ilmiy* — научный
*Ilmiy daraja* — научная степень
*Ilmiy ishlanma* — научная разработка
*Ilohiy* — священный
*Ilova* — дополнение, приложение, вставка
*Iltifot* — внимание, любезность, благосклонность
*Ilg'or* — передовик, передовой, прогрессивный
*Imkon* — шанс
*Imkoniyat* — возможность
*Imzo* — подпись
*Imtiyoz* — привилегия, преимущество, льгота
*Inoq* — дружный, согласный
*Inqiroz* — банкротство
*Insof* — совесть
*Insonparvar* — гуманист
*Insonparvarlik yordami* — гуманитарная помощь

*Investitsiya* — инвестиция
*Iqbol* — счастье, успех, удача
*Islohot* — реформа
*Isrof* — расточительство, трата, растрата
*Isrofgarchilik* — расточительство, неэкономный расход
*Istamoq* — желать, хотеть
*Istiqomat qilmoq* — жить, проживать
*Iste'dodli* — способный, талантливый
*Iste'fo* — отставка
*Iste'mol* — употребление, потребление
*Iste'molchi* — потребитель
*Ixtisos* — специальность
*Ixtiyor* — воля, желание
*Izoh va qo'shimchalar* — примечание и дополнения
*Izzat* — почесть, почёт, уважение
*Ishbilarmon* — бизнесмен
*Ishsizlik* — безработица
*Ishlab chiqarish* — производство
*Ishlab chiqarish munosabatlari* — производственное отношение
*Ishonch yorlig'i* — верительная грамота
*Ishtirok* — участие

## J

*Jabha* — область, деятельность
*Jabr* — угнетение
*Jadal* — быстрый, ускоренный
*Jami* — итого, всего
*Jamiyat* — общество, публика, народ
*Jamoa* — коллектив
*Jamol* — красота
*Jamg'arma* — накопление, сбережение
*Janub* — юг
*Jarayon* — процесс, течение
*Jarima* — штраф
*Javob* — ответ
*Javob xat* — письмо-ответ
*Javobgar* — ответчик
*Javobgar shaxs* — ответственное лицо
*Jihat* — в этом отношении
*Jihoz* — оборудование

*Jips* — плотно, тесно
*Jismoniy shaxs* — физическое лицо
*Joriy* — действующий, текущий
*Jur'at* — смелость, решимость
*Jo'natma* — посылка
*Jo'shqin* — кипучий, бурливый

## K

*Kabobpaz* — шашлычник
*Kadrlar boshqarmasi* — управление кадрами
*Kadrlar bo'limi* — отдел кадров
*Kafolatnoma* — гарантийное письмо
*Kamol* — совершенство
*Kamsitish* — унижение
*Kamtar* — скромный
*Kam maoshli lavozim* — низкооплачиваемая должность
*Kammahsul* — малопродуктивный
*Kasaba uyushmasi* — профсоюз
*Kasallik varaqasi* — больничный лист
*Kasb* — специальность, профессия, ремесло
*Kasbiy fazilatlar* — профессиональное качество
*Kashfiyot* — изобретение, открытие
*Kelajak* — будущее, грядущее
*Kenja* — последыш
*Kengaytirmoq* — расширять
*Kengash* — совет, совещание
*Keskin* — острый, резкий
*Kimoshdi savdosi* — аукцион
*Kirim va chiqim* — приход и расход
*Kommunal xizmat* — коммунальная услуга
*Kon* — рудник, шахта, копь
*Korxona* — предприятие
*Kotiba* — секретарь
*Kun tartibi* — повестка дня
*Kuz* — осень
*Ko'k* — синий, голубой
*Ko'lam* — объем, размер, масштаб
*Ko'nikma* — навык

*Ko‘rgazma* — выставка
*Ko‘rik* — смотр, просмотр
*Ko‘rsatkich* — указатель, показатель, указка
*Ko‘rsatma* — указание
*Ko‘za* — кувшин
*Ko‘zlamoq* — присматривать, намечать
*Ko‘chirma* — выписка

## L

*Lafz* — слово
*Lanj* — ослабевший
*Lavozim* — должность, чин
*Lavozim yo‘riqnomasi* — должностная инструкция
*Lavozimni bajarishga kirishmoq* — вступить в должность
*Lof* — преувеличение
*Loyiha* — проект
*Loyihalashtirmoq* — проектировать
*Loqayd* — равнодушно, безразлично
*Luqma* — реплика
*Lo‘nda* — локанично, ясно, конкретно
*Lo‘ttiboz* — жулик

## M

*Mablag‘* — денежное средство
*Mabodo* — в случае, если
*Madad* — помощь, поддержка
*Madhiya* — гимн
*Madadkor* — опора, помощник
*Madaniyatli* — культурный
*Mafkura* — идеология
*Majburiyat* — вынужденность, обязательство
*Majnuntol* — плакучая ива
*Malaka oshirish* — повышение квалификации
*Mahkama* — учреждение
*Mahorat* — мастерство
*Mahsulot* — продукция
*Malaka* — классификация
*Malaka darajasi* — разряд квалификации

*Mahkama* — учреждение
*Mahsulot* — продукция
*Manfaat* — выгода, благо
*Manfaatdor shaxs* — заинтересованное лицо
*Manfaatdorlik* — заинтересованность
*Manmanlik* — высокомерный
*Maosh berish* — выдача заработной платы
*Maqom* — статус
*Maroq* — интерес, увлечение
*Masala* — задача, вопрос
*Maslahat byurosi* — консультативное бюро
*Mas'ullik* — ответственность
*Mayna* — посмешище
*Mavqe* — позиция
*Mashaqqatli* — мучительный
*Mashg'ul* — занятый
*Mash'al* — факел
*Ma'lumot* — сведение
*Ma'lumotnoma* — справка
*Ma'mur* — администратор
*Ma'muriy* — административный
*Ma'muriyat* — администрация
*Ma'ruza* — доклад, лекция
*Ma'naviy* — духовный
*Ma'no* — смысл
*Ma'rifat* — образование, просвещение
*Ma'qullamoq* — одобрять
*Mas'ul xodim* — ответственный работник
*Mas'ul shaxs* — ответственное лицо
*Mas'uliyat* — ответственность
*Mehmondo'st* — гостеприимный
*Mehnat* — труд
*Mehnat bitimi* — трудовое соглашение
*Mehnat daftarchasi* — трудовая книжка
*Mehnat resursi* — трудовой ресурс
*Mehnat taqsimoti* — разделение труда
*Me'yor* — мера
*Mijoz* — клиент
*Millat* — нация
*Milliy madaniyat* — национальная культура
*Mintaqa* — регион, край

*Miqdor* — количество
*Miqyos* — статус
*Misl* — подобие
*Mislsiz* — бесподобный
*Mohir* — искусный, мастер
*Mohiyat* — сущность
*Monelik* — препятствие
*Muallim* — учитель
*Muammo* — проблема
*Muddat* — дата
*Mudr* — заведующий
*Muhtasham* — роскошный, грандиозный
*Muhtoj* — нуждающийся
*Mukammal* — совершенный
*Mulk* — имущество, достояние, собственность
*Mulkdor* — имущий
*Muloqot* — общение
*Muomala* — обращение
*Mukofot* — награда
*Munosabat* — отношение
*Munosib* — подходящий, достойный
*Munozara* — дебаты
*Muqobillashtirmoq* — альтернативный
*Murojaat* — обращение
*Mutafakkir* — мыслитель
*Mug'ambir* — хитрый, лукавый
*Mo'ljallamoq* — намечать

## N

*Nafaqa* — пенсия
*Nafaqat* — не только
*Nafaqaxo'r* — пенсионер
*Nafas* — дыхание
*Namuna* — образец
*Narx* — цена
*Narxnoma* — прейскурант
*Nasiba* — доля
*Natija* — результат
*Nashriyot* — издательство
*Negiz* — корень, основа

*Nisbatan* — относительно
*Nizom* — устав
*Nishonlamoq* — отмечать
*Nodir* — ценный
*Nogiron* — инвалид
*Noinsof* — бессовестный, нечестный
*Nomzod* — кандидат
*Nozik* — нежный
*Nufuz* — престиж
*Nuqson* — дефект
*Nusxa* — копия
*Nusxalash* — копирование

## O

*Obida* — памятник
*Obodonlashtirish* — благоустраивать
*Obuna* — подписка
*Odamgarchilik* — человечность
*Oddiy muhr* — простая печать
*Oftob* — солнце
*Ogohlantirmoq* — предупреждение
*Oid* — относящийся
*Oilaviy ahvol* — семейное положение
*Oldi-sotdi shartnomasi* — договор купли-продажи
*Oliyjanob* — благородный, величественный
*Oliy ma'lumot* — высшее образование
*Oliy o'quv yurti* — ВУЗ
*Ombor* — склад
*Omil* — фактор
*Omonat* — вклад
*Omonatchi* — вкладчик
*Oriq* — худой, тощий
*Ortiqcha* — излишний
*Orzu* — мечта
*Osmono'par* — небоскрёб
*Ovoz bermoq* — голосовать
*Oylik reja* — месячный план
*Ochiq xat* — открытое письмо
*Oshkoralik* — гласность
*Og'irlik birligi* — единица веса

## P

| | |
|---|---|
| *Pardozlamoq* | — отделывать, прихорашивать |
| *Parvarishlamoq* | — ухаживать |
| *Pasaymoq* | — понижаться |
| *Passiv balans* | — пассивный баланс |
| *Pasttekislik* | — низменность |
| *Patta* | — билет, квитанция |
| *Patent* | — патент |
| *Parcha* | — отрывок |
| *Pirovard* | — исход, конечный |
| *Pudrat* | — подряд |
| *Pul* | — деньги |
| *Pul birligi* | — денежная единица |
| *Pul islohoti* | — денежная реформа |
| *Pul qo'yuvchi* | — вкладчик |
| *Puxta* | — расчётливый |
| *Pinhon* | — скрытый, тайный |
| *Pirovard* | — конец, исход |
| *Pishiq* | — зрелый |
| *Poklamoq* | — чистить, очищать |
| *Pora* | — взятка |
| *Porloq* | — сияющий |
| *Porlamoq* | — блестеть, блистать |
| *Posbon* | — постовой, охранник |
| *Pochta manzili* | — почтамт |
| *Puxta* | — прочный |
| *Po'lat sandiq* | — сейф |

## Q

| | |
|---|---|
| *Qabila* | — племя |
| *Qabriston* | — кладбище |
| *Qabul qilmoq* | — принимать |
| *Qabulxona* | — приемная |
| *Qadam* | — шаг |
| *Qadimiy* | — древний |
| *Qadriyat* | — ценность |
| *Qadoq* | — мера измерения: фунт; мозоль |
| *Qalam haqi* | — гонорар |

*Qalam haqi*
*jamg'armasi* — гонорарный фонд
*Qalamdon* — пенал
*Qalbaki* — фальшивый, подложный
*Qaltis* — рискованный
*Qaramlik* — зависимость
*Qarashli* — принадлежащий
*Qarindosh* — родственник
*Qaror* — решение
*Qarovsiz* — заброшенный, без присмотра
*Qarz* — долг
*Qarzdorlik* — задолженность
*Qarz oluvchi* — должник
*Qator* — ряд
*Qat'iy* — решительный
*Qayd* — констатировать
*Qaydlov bo'limi* — регистратура
*Qaydlov byurosi* — регистрационное бюро
*Qaydlov nazorat*
*daftarchasi* — регистрационно-контрольная карточка
*Qayta* — заново
*Qaytarmoq* — возвращать
*Qilich* — меч
*Qiymat* — ценность, стоимость
*Qimmat* — дорогой, ценный
*Qimmatli qog'ozlar* — ценные бумаги
*Qirol* — царь
*Qisqa* — кратко
*Qisqa bayonnoma* — краткий протокол
*Qisqa sharh* — аннотация
*Qiymat* — стоимость
*Qiziqmoq* — интересоваться
*Qizg'in* — бурный
*Qizg'ish* — красноватый
*Qobiliyat* — способность, талант
*Qoldiq* — сальдо, остаток
*Qondirmoq* — удовлетворить
*Qoniqtirmoq* — удовлетворять
*Qonun* — закон
*Qozonmoq* — завоёвывать, добиваться
*Qovushtirmoq* — соединять, скрещивать

*Qog'ozbozlik* — бумажная волокита
*Qulay* — удобный
*Quvvat* — сила
*Qo'llanma* — руководство, пособие
*Qo'mita* — комитет
*Qo'pol* — грубый
*Qo'rg'on* — крепость
*Qo'shin* — войско
*Qo'shma korxona* — совместное предприятие
*Qo'shma haq* — доплата

## R

*Rahbariyat* — руководство
*Rahbar xodim* — руководящий работник
*Ramz* — символ
*Raqam* — цифра
*Raqamli hisobot* — статистический отчет
*Raqobat* — конкуренция, соперничество
*Raqobatbardosh* — конкурентоспособный
*Rasmiy* — официальный, формальный
*Rasmiylashtirmoq* — оформлять
*Rasmiy qog'ozlar* — деловые бумаги
*Rasmiy vakil* — официальный представитель
*Rasmiyatchi* — бюрократ
*Reja* — план
*Rejadan tashqari jamg'arma* — сверхплановое накопление
*Rejalashtirilgan daromad* — плановая прибыль
*Rejali ish* — плановая работа
*Rioya qilmoq* — соблюдать
*Risola* — брошюра, послание
*Rivoj* — развитие, расцвет
*Rivojnoma* — развивать
*Rozilik* — согласие
*Rozilik belgisi* — виза
*Ruxsatnoma* — пропуск
*Ruxsatnoma byurosi* — пропускное бюро
*Ruxsat turi* — форма отпуска
*Ruxsat varaqchasi* — карточка допуска

*Ro‘y bermoq* — происходить, случаться
*Ro‘yxat* — список, перечень
*Ro‘yobga chiqmoq* — осуществляться
*Ro‘yxatdan chiqish* — отчисление, списание
*Ro‘yxatdan o‘tmoq* — зарегистрироваться
*Ro‘yxatga kiritmoq* — включить в список

## S

*Saboq* — урок
*Saf* — ряд
*Salmoq* — вес, тяжесть
*Salobatli* — величественный
*Samara* — плод, результат
*Sanoq* — счет
*Sanoat* — промышленность
*Sansolarlik* — волокита
*Sardor* — возглавляющий
*Sarf* — расход
*Sarflangan mablag‘* — расходный капитал
*Sarkarda* — полководец
*Sarkor* — старший, начальник
*Sarmoya* — вклад
*Sarob* — мираж
*Savod* — грамотность
*Saxiy* — щедрый
*Sayyor sessiya* — выездная сессия
*Serharakat* — энергичный
*Sinish* — банкротство
*Sirg‘a* — серьги
*Sig‘im* — емкость, вместимость
*Siyosat* — политика
*Sifat* — качество
*Soatsoz* — часовщик
*Sobiq* — бывщий, прежний
*Sof* — чистый
*Soha* — область, сфера
*Sohibkor* — знаток, специалист
*Soliq* — налог
*Soz* — хорошо
*Sulola* — поколение

*Sur'at* — темп
*Sust* — слабый
*Suyuq* — жидкий
*Sug'ormoq* — орошать
*Sug'urta* — страхование
*So'rov varag'i* — анкетный лист
*So'rov xat* — письмо, запрос
*So'zsiz* — бесспорно

## T

*Taajjub* — удивление
*Taalluqli* — относящийся, касающийся
*Tabarruk* — чтимый, священный
*Tabassum* — улыбка
*Tabaqa* — створка
*Tabiiy* — природный, натуральный, естественный
*Tabiiy boyliklar* — природные богатства
*Tadbirkor* — распорядительный, предприниматель
*Tadbirkor rejasi* — план мероприятий
*Taftishchi* — контролер, ревизор
*Tahlil* — анализ
*Tahririyat* — редакция
*Tajriba* — практика
*Taklif* — предложение
*Talabnoma* — требование
*Talon-taroj* — грабёж
*Tamaddixona* — столовая
*Tamoyil* — принцип
*Tanbal* — лодырь, лентяй
*Tanbeh* — замечание
*Tanlama* — выборка
*Tanlov komissiyasi* — конкурсная комиссия
*Tan olmoq* — признавать
*Tannarx* — себестоимость
*Tantana* — торжество
*Tarannum* — воспевать
*Taraqqiyot* — развитие, прогресс
*Tarbiyachi* — воспитатель
*Tarjimayi hol* — биография
*Tarif jadvali* — тарифная сетка

*Tarmoq* — отрасль
*Tarmoqlararo* — межотраслевой
*Tarkibiy qism* — составная часть
*Taqdim etmoq* — преподносить
*Taqdimnoma* — ходатайство
*Taqdimot* — претензия
*Taqriz* — рецензия
*Taqchil, kamyoblik* — дефицит
*Tasnif* — классификация, составление
*Tasdiqlamoq* — заверять
*Tashabbus* — инициатива
*Tashakkurnoma* — благодарственное письмо
*Tashrifnoma* — визитная карточка
*Tashkil etilmoq* — организовывать
*Tavakkal* — рисковать
*Ta'lim* — знание
*Ta'minot* — обеспечение
*Ta'minlovchi* — снабженист
*Ta'mirlamoq* — ремонтировать
*Ta'rif* — описание, характеристика
*Ta'sir* — влияние
*Ta'sis etmoq* — учредить
*Tegishli* — надлежащий
*Tejamkor* — экономный
*Tijorat* — торговля, коммерция
*Tiklanmoq* — подниматься, восстанавливаться
*Tikmajild* — скоросшиватель
*Tilak* — желание
*Tilxat* — доверенность
*Tilshunos* — языковед, лингвист
*Timsol* — символ
*Tirishqoq* — старательный, усердный
*Tizim* — связка
*Tizma* — цепь
*Topshiriq* — задание, поручение
*Tortma, g'aladon* — выдвижной ящик
*Tortmoq* — тянуть, тащить
*Tovon, badal* — возмещение
*Tuman* — район
*Tunikasoz* — жестянщик
*Tuyg'u* — чувство

*Tushum* — доход
*Tushuntirish xati* — объяснительная записка
*To'lamoq, undirmoq* — возместить
*To'laqonli* — полноценный
*To'lov* — оплата, платёж, взнос
*To'ng'ich* — первенец, первый
*To'satdan* — внезапно, неожиданно
*To'g'ri* — правильно

## U

*Uddaburon* — способный, ловкий
*Uddalamoq* — справляться
*Udum* — обычай
*Ulgurji* — оптом
*Ulgurmoq* — успевать
*Ulug'* — великий
*Ulush* — часть, доля
*Ulushbay* — долевой
*Umid* — надежда
*Umumiste'mol* — общепотребление
*Umumiy* — общий
*Umumkasbiy* — общепрофессиональный
*Umumta'lim* — общеобразовательный
*Umumxalq* — общенародный
*Undirma* — алименты
*Unsur* — элемент
*Unum* — урожай, производительность
*Urug'* — семя, семена
*Ustama* — надбавка
*Ustun* — столб, колонка
*Ustxat* — гриф, подпись
*Uyushma* — объединение
*Uzatmoq* — передавать, подавать
*Ushlab qolmoq* — удерживать
*Uchburchak muhr* — треугольная печать

## V

*Valuta* — валюта
*Valuta kursi* — валютный курс
*Valuta muomalasi* — валютная операция

*Vakil* — представитель
*Vakolat* — полномочие
*Vakolatnoma* — доверенность, верительная грамота
*Varaq* — лист
*Varaqlamoq* — перелистать
*Vasiyat qiluvchi* — завещатель
*Vasiyatnoma* — завещание
*Vazir* — министр
*Vazirlik* — министерство
*Vazifa* — задача, задание, поручение
*Vazifalarni taqsimlash* — распределение
*Viloyat* — область
*Voris* — наследник
*Vosita* — средство, орудие
*Vositachi* — посредник

## X

*Xabar* — известие
*Xabarnoma* — извещение
*Xabarchi* — курьер
*Xalqaro xos raqam* — международный код
*Xalal* — помеха, препятствие
*Xaram* — гарем
*Xaridor* — покупатель
*Xaroba* — развалина
*Xatboshi* — абзац
*Xatlov, xatlash* — опись
*Xato* — ошибка
*Xayriya* — благотворительный
*Xazina* — казна
*Xizmat* — сервис
*Xizmat yozishmasi* — служебная записка
*Xizmat safari* — командировка
*Xodim* — сотрудник
*Xodimlar qo'nimsizligi* — текучесть кадров
*Xoli* — свободный, пустой
*Xomashyo* — сырьё

| | |
|---|---|
| *Xonadon* | — семья, семейство |
| *Xor* | — униженный, жалкий |
| *Xorijiy* | — иностранный |
| *Xos ish qog'ozi* | — фирменный бланк |
| *Xuddi* | — как раз, точь в точь |
| *Xususiyat* | — особенность, свойство |

## Y

| | |
|---|---|
| *Yaratmoq* | — создавать, творить |
| *Yerosti* | — подземный |
| *Yetaklamoq* | — вести, водить |
| *Yetakchi* | — ведущий, руководитель |
| *Yechim* | — развязка, решение |
| *Yillik reja* | — годовой план |
| *Yil choragi* | — квартал |
| *Yirik korxona* | — крупное предприятие |
| *Yig'im* | — сбор |
| *Yig'indi* | — совокупность, сумма |
| *Yondashmoq* | — подходить, приближаться |
| *Yoqilg'i* | — топливо |
| *Yoqut* | — рубин, сапфир |
| *Yorliq* | — грамота |
| *Yoymoq* | — расстилать |
| *Yuksak* | — высокий, возвыщенный |
| *Yo'llanma* | — направление, путевка |
| *Yo'l solig'i* | — дорожный налог |
| *Yo'nalish* | — направление |
| *Yo'qlama* | — перекличка |
| *Yo'qlama daftari* | — инвентарная книга |
| *Yo'riq* | — инструкция, указание |
| *Yo'riqchi* | — инструктор |
| *Yo'riqnoma* | — инструкция |
| *Yog'ingarchilik* | — дождливая погода |

## Z

| | |
|---|---|
| *Zabardast* | — сильный, рослый |
| *Zafar* | — шафран |
| *Zaif* | — слабый |

*Zamin* — земля
*Zamon* — земля, основа, база
*Zarang* — клен
*Zarda* — желчь, изжога, гнев, злость
*Zaqqum* — анчар
*Zerikarli* — скучный
*Ziddiyat* — противоположность
*Ziyod* — свыше, больше
*Ziyon* — убыток
*Ziyorat* — поломничество
*Ziyrak* — проницательный, чуткий
*Zimma* — взять на себя
*Zig'ir* — лень
*Zich* — плотный
*Zulmat* — мрак, тьма
*Zo'r* — сила, мощь, усиление

## O'

*O'lchov* — измерение
*O'lchov birligi* — единица измерения
*O'nkunlik* — декада
*O'ram* — ниток, сверток
*O'rgatmoq* — обучать
*O'rindoshlik asosida* — по совместительству
*O'rmon* — лес
*O'sish sur'ati* — темп роста
*O'tkazmoq* — переводить
*O'tloq* — луга
*O'quv rejasi* — учебный план
*O'z xarajatlarini qoplash* — самоокупаемость
*O'zak* — основа
*O'zaro kelishuv* — компромисс
*O'zaro manfaat* — взаимная выгода
*O'zgarish* — изменение
*O'ziga bek* — самоправитель
*O'zlashtirish* — освоение
*O'g'uz* — огузы (название племени)

## G‘

*G‘azab* — гнев
*G‘ayir* — завистник
*G‘ayrat* — энергия, усердие
*G‘azna* — касса
*G‘amlamoq* — запасать
*G‘animat* — благоприятный, удобный
*G‘araz* — корысть
*G‘ash* — раздражение
*G‘irrom* — мошенник
*G‘olib* — победитель
*G‘oya* — идея, замысль
*G‘ubor* — прах, грусть
*G‘uj-g‘uj* — кучный, скученный
*G‘urur* — задор, гордость
*G‘ussa* — печаль, горе
*G‘or* — зелёный

## Sh

*Shabnam* — роса
*Shaddot* — тиран, деспот, властный
*Shahid* — погибщий в бою
*Shoxobcha* — сеть
*Shahodatnoma* — свидетельство удостоверение
*Shajara* — родословие
*Sharh* — комментарий
*Shart* — условие, необходимо
*Shartnoma* — договор
*Shartnomaviy majburiyatlar* — договорные обязательства
*Shartli raqam* — индекс
*Shaxsiy varaqa* — личный листок
*Shaxsiy mulk* — личная собственность
*Shay* — готовый
*Sheriklik* — партнерство
*Sheva* — говор
*Shijoat* — храбрость, смелость
*Shikoyat* — жалоба
*Shirkat* — кооператив

*Shogird* — ученик
*Shtat jadvali* — штатное расписание
*Shuur* — осезание
*Shug'ullanmoq* — заниматься
*Sho'ba* — филиал
*Shu'la* — луч, свет

## Ch

*Charaqlamoq* — сверкать, сиять, блестеть
*Chayqovchi* — перекупщик
*Chakana* — розничный
*Chakki* — неуместный
*Chama* — предположение
*Chaman* — цветущий луг, цветник
*Chegaradosh* — сопредельный
*Chegirma* — скидка
*Chegirma yordam* — дотация
*Chek daftarchasi* — чековая книжка
*Cheksiz* — безграничный, бескрайний
*Cheklamoq* — ограничивать, ставить предел
*Chetlamoq* — обходить
*Chevar* — мастерица, искусница
*Chidam* — терпение
*Chimdim* — щепотка
*Chiqindi* — отбросы
*Chora* — мероприятие, мера
*Chorvachilik* — животноводство
*Churuk* — растёпанный
*Cho'qqi* — вершина
*Cho'g'* — раскаленные угли

## MUNDARIJA

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi ................................ 3

*I bob.* **O'ZBEKISTON — MUSTAQIL RESPUBLIKA**
*(Atoqli otlar imlosi va tanishish iboralarini qo'llash)*

*1-dars:* Mening Vatanim — O'zbekiston ........................................... 4
*2-dars:* Ona yurting — oltin beshiging ............................................... 9
*3-dars:* Toshkent — respublikamiz poytaxti ...................................... 13
*4-dars:* O'tilganlarni mustahkamlash ................................................ 17

*II bob.* **OILAM — TAYANCHIM VA FAXRIM**
*(Kishilik olmoshlari va shaxs-son qo'shimchalarining qo'llanishi)*

*1-dars:* Men va mening oilam ........................................................... 21
*2-dars:* Men — O'zbekiston farzandiman ........................................ 24
*3-dars:* Mening do'stlarim ................................................................ 28
*4-dars:* O'tilganlarni mustahkamlash ................................................ 30

*III bob.* **MENING QIZIQISHLARIM VA MASHG'ULOTLARIM**
*(Shaxs va kasb otlarini ifodalash)*

*1-dars:* Kasbim — faxrim .................................................................. 32
*2-dars:* Ilm — kamolot beshigi ......................................................... 38
*3-dars:* Fanlarni o'rganamiz ............................................................ 42
*4-dars:* O'tilganlarni mustahkamlash ................................................ 45

*IV bob.* **MUSTAQILLIK — BUYUK NE'MAT**
*(Aloqa-munosabat shakllarining qo'llanishi)*

*1-dars:* Muqaddas kun ..................................................................... 47
*2-dars:* Davlat ramzlari .................................................................... 50
*3-dars:* Respublikamizning davlat tili ................................................ 52
*4-dars:* O'tilganlarni mustahkamlash ................................................ 54

*V bob.* **MILLIY QADRIYATLARIMIZ**
*(Aloqa-munosabat shakllarining qo'llanishi)*

*1-dars:* Urug', shajara, sulola ........ 57
*2-dars:* «O'zbek» atamasi tarixi ........ 60
*3-dars:* Milliy boyliklarimiz ........ 62
*4-dars:* O'tilganlarni mustahkamlash ........ 64

*VI bob.* **TA'RIF VA TAVSIF**
*(Belgi-xususiyatni ifodalash)*

*1-dars:* Biz — XXI asr yoshlarimiz ........ 67
*2-dars:* Ajdodlarimiz ibrati ........ 70
*3-dars:* Barkamol avlod — kelajak poydevori ........ 73
*4-dars:* Oltin davr ........ 75
*5-dars:* O'tilganlarni mustahkamlash ........ 77

*VII bob.* **JAMIYAT VA IQTISOD**
*(Miqdor va tartibni ifodalash)*

*1-dars:* Pul va iqtisod ........ 80
*2-dars:* O'zbekistonning taraqqiyot yo'li ........ 84
*3-dars:* O'zbekistonning milliy valutasi ........ 88
*4-dars:* O'zbekiston Markaziy banki ........ 91
*5-dars:* O'tilganlarni mustahkamlash ........ 95

*VIII bob.* **IQTISOD — TARAQQIYOT ASOSI**
*(Harakatni ifodalash)*

*1-dars:* Harakat — taraqqiyot asosi ........ 98
*2-dars:* Faoliyat yo'nalishini tanlash ........ 103
*3-dars:* Bank va moliya bozori ........ 106
*4-dars:* O'tilganlarni mustahkamlash ........ 110

*IX bob.* **MODDIY VA MA'NAVIY YUKSALISH**
*(Harakatning voqelikka munosabatini ifodalash)*

*1-dars:* Yaxshi odatlar ........ 112
*2-dars:* Xalqaro hamkorlik ........ 114
*3-dars:* O'zbek oshxonasida ........ 116
*4-dars:* O'tilganlarni mustahkamlash ........ 119

*X bob.* **BOZOR IQTISODIYOTI VA JAMIYAT RIVOJI**

*(O'zga subyekt ta'sirida bajarilgan harakatni ifodalash)*

*1-dars:* Birja savdosi .... 120
*2-dars:* Iqtisodiyot nima uchun o'rganiladi? .... 123
*3-dars:* Sug'urta va kredit .... 125
*4-dars:* O'tilganlarni mustahkamlash .... 129

*XI bob.* **ALLOMALARNING IQTISODIY QARASHLARI**

*(Holatni ifodalash)*

*1-dars:* Beruniyning iqtisodiy kashfiyoti .... 131
*2-dars:* Aristotel va iqtisodiyot .... 134
*3-dars:* Amir Temurning iqtisodiy siyosati .... 135
*4-dars:* Alisher Navoiyning iqtisodiy qarashlari .... 137
*5-dars:* Abdurauf Fitratning iqtisodiy g'oyalari .... 139
*6-dars:* O'tilganlarni mustahkamlash .... 141

*XII bob.* **VAQT — OLTINDAN QIMMAT**

*(Payt ma'nosini ifodalash)*

*1-dars:* Tarix, bugun, kelajak .... 144
*2-dars:* Vaqting ketdi — baxting ketdi .... 147
*3-dars:* Yangi davr yangiliklari .... 149
*4-dars:* O'tilganlarni mustahkamlash .... 153

*XIII bob.* **SOG'LIQ — TUMAN BOYLIK**

*(O'rin va makon ma'nosini ifodalash)*

*1-dars:* Sport — salomatlik garovi .... 156
*2-dars:* O'zbekiston — alpomishlar yurti .... 158
*3-dars:* O'tilganlarni mustahkamlash .... 160

*XIV bob.* **ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI**

*(O'rin ma'nosini qo'shma gaplar vositasida ifodalash)*

*1-dars:* Kompyuter va ta'lim .... 163
*2-dars:* Buyuk ipak yo'li .... 166
*3-dars:* O'tilganlarni mustahkamlash .... 169

*XV bob.* **MA'NAVIYAT SABOQLARI**
*(Sabab, maqsad va natija ma'nolarini ifodalash)*

*1-dars:* Salomlashish odobi .......... 171
*2-dars:* Odob — madaniyat belgisi .......... 174
*3-dars:* Xushmuomalalik va xushchehralik .......... 177
*4-dars:* O'tilganlarni mustahkamlash .......... 179

*XVI bob.* **YO'L HARAKATI QOIDALARI**
*(Shart va to'siqsizlik ma'nosini ifodalash)*

*1-dars:* Jamoat transporti qoidalari .......... 182
*2-dars:* Signallar tili .......... 185
*3-dars:* O'tilganlarni mustahkamlash .......... 187

*XVII bob.* **O'ZBEKISTON JAHONGA YUZ TUTMOQDA**
*(Fikrga munosabat bildirish)*

*1-dars:* O'zbekiston va jahon .......... 190
*2-dars:* O'zbekiston faxri .......... 192
*3-dars:* O'tilganlarni mustahkamlash .......... 193
O'zbekcha-ruscha lug'at .......... 195

M 92 **JAMOA. O‘ZBEK TILI** (Iqtisodiy yo‘nalishdagi kasb-hunar kollejlari rus guruhlari uchun o‘quv qo‘llanma). T.: «ILM ZIYO», 2013. — 224 b.

UO‘K: 811.512.133 (076)
KBK 81.2O‘zb

ISBN 978-9943-16-138-2

XADICHA MUHIDDINOVA, RA’NO MAJIDOVA,
SAODAT SHOKIROVA

# O‘ZBEK TILI

*Iqtisodiy yo‘nalishdagi kasb-hunar kollejlari rus guruhlari uchun o‘quv qo‘llanma*

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2013

Muharrir *I. Usmonov*
Badiiy muharrir *Sh. Odilov*
Texnik muharrir *F. Samadov*
Musahhih *T. Mirzayev*

Noshirlik litsenziyasi AI № 166, 23.12.2009-yil.

2013-yil 30-mayda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60x90$^1/_{16}$.
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog‘i 14,0.
Nashr tabog‘i 13,0. 1160 nusxa. Buyurtma №

«ILM ZIYO» nashriyot uyi, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
Shartnoma № ___— 2013.

«PAPER MAX» xususiy korxonasida chop etildi.
Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.